O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

BUXGALTERIYA QISOBI VA AUDIT KAFEDRASI

K.B. URAZOV

# BUXGALTERIYA QISOBI VA AUDIT

MA`RUZA MATNLARI TO`PLAMI

1-QISM

SAMARQAND - 2004

**K.Urazov. Buxgalteriya qisobi va audit. Ma`ruza matnlari to`plami. 1-қism, Samarқand, SamISI, 2004. - 228 b.**

Ushbu ma`ruza matnlari to`plamida buxgalteriya qisobining nazariy asoslari, shuningdek korxonalarning qisob siyosatining moqiyati, asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, moliyaviy va kapital investitsiyalar, tovar-moddiy boyliklar va pul mablaғlarining qisobini yuritish oxirgi yillarda қabul қilingan қonunlar va boshқa me`yoriy xujjatlarga muvofiқ yoritilgan.

Oliy o`қuv yurtlarida 5340100 «Iқtisodiyot», 5340200 «Menejment», 5340300 «Marketing» va 5340400 «Biznes» ta`lim yo`nalishlari bo`yicha bakalavriatda ta`lim olayotgan talabalarga mo`ljallangan. Undan boshқa ixtisosliklarda ta`lim olayotgan bakalavrlar, magistrlar, malaka oshirish fakul'teti tinglovchilari qam foydalanishlari mumkin.

*Taқrizchilar:*

*Professor Abdullaev R.A. (Sam ISI)*
*Dotsent Aliқulov A.I. (SamKQI)*

© Samarқand iқtisodiyot va servis instituti, 2004 y.

# K I R I SH

Respublikamiz oliy va o`rta maxsus o`қuv yurtlarida berilayotgan iқtisodiy bilimlar ichida muqim o`rinlardan birini buxgalteriya qisobi va audit egallaydi.

Buxgalteriya qisobi maxsus fan sifatida olti asrdan beri o`қitilib kelinmoқda. Uning jamiyatda tutgan o`rni, metologiyasi, tashkil etilishi bo`yicha juda ko`p kitoblar yozilgan. Buxgalteriya qisobining aqamiyati to`ғrisida «Қuron»da, mashqur sarkorda bobomiz Amir Temur tuzuklarida, xattoki yozuvchi va shoirlarimiz asarlarida qam juda ajoyib fikrlar keltirilgan.

Audit bizning mamalakatimiz uchun nisbatan yangi ilm soqasi, lekinda jaqon mamalakatlari malakasida u bir yarim asrdan ko`p davrga to`ғri keladigan tarixga ega. Ushbu yangi ilm soqasini respublikamizda rivojlantirish, iқtisodiyotimiz ravnaқi uchun zarur bўlgan auditorlarni tayyorlash bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir. Prezidentimiz I. Karimov ushbu faoliyatga aloqida e`tibor berib, «Tadbirkorlar manfaatini qimoya қilishda auditorlik faoliyatining mavқeini yanada oshirish kerak», deb o`қtirgan edi[1].

Respublikamizning mustaқillikga erishishi, uni bozor munosabatlariga asoslangan iқtisodiyotga yo`l tutishi, iқtisodiyotni to`liқ isloq қilinishi, albatta, buxgalteriya qisobi va audit soqalarini qam chetlab o`tmadi. Ўtgan 12 yil ichida boshқaruvning ushbu vositalarida qam tub o`zgarishlar yuz berdi. Aynan shu yillar ichida buxgalteriya qisobi va auditorlik faoliyatini tartibga soluvchi қonunlar қabul қilindi, ular bўyicha qalқaro talablarga javob beradigan 50 ga yaқin milliy standartlar va boshқa me`yoriy xujjatlar yaratildi. Ushbu Қonunlar va boshқa me`yoriy xujjatlarni, shuningdek boshқa қabul қilingan tadbirlarni, jumladan, қuyidagi yilnoma sifatida keltirish mumkin:

Ўtgan 12 yil ichida respublikamizda ta`lim tizimi qam tubdan yangilandi. Birinchi bor besh tabaқali ta`limni o`z ichiga olgan Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi ishlab chiқildi, unga muvofiқ mamlakatimizda majburiy to`liқsiz o`rta ta`lim, akadem litseylar va kasb-qunar kollejlari orқali o`rta va o`rta-maxsus kasb ta`limi, institut va universitetlarda bakalavrlar, magistrlar, aspirant va doktorantlar tayyorlashga va kadrlarni malakasini yangicha tarzda oshirishga o`tildi.

E`tiborlaringizga qavola etilayotgan ushbu ma`ruza matnlari to`plami oxirgi yillarda қabul қilingan Қonunlar va boshқa me`yoriy xujjatlarga, shuningdek muallifning institutdagi qamda «TASIS», «PRAGMA», «EVROOSIYO» xalқaro fondlari orқali o`tқazilgan va o`tқazilayotgan maxsus «Moliyaviy qisob» kursini olib borish bo`yicha

---

[1] Қаранг: И.А.Каримов. «Жамиятда тадбиркорлик руҳини қарор топтириш- тараққиёт гарови». «Туркистон» газетаси, 2001 йил, 18 июль.

to`plagan pedogogik malakasiga, shuningdek amaliyotda buxgalteriya qisobi va audit bo`yicha olib borayotgan kasbiy maqoratiga asoslanib tayyorlandi.

Ikki қismdan iborat bo`lgan ushbu ma`ruza matnlari to`plami «Buxgalteriya qisobi va audit» fanining uchta bo`limini o`z ichiga oladi. U 22 ta ma`ruzaga (jami 44 soatga) mo`ljallangan. Ajratilgan vaқtning chegaralanganligi sababli talabalarning ma`ruza matnlari to`plamida berilgan o`қuv materiallarini қo`shimcha tarzda o`zlashtirishlari maқsadga muvofiқ bo`ladi.

**«Buxgalteriya qisobining nazariy asoslari»** nomli birinchi bo`limda qisobning moqiyati, tasnifi va tavsifi, buxgalteriya qisobining predmeti, ob`ektlari, uslubi va usullarining mazmuni yoritilgan.

**«Korxonalarda buxgalteriya qisobi»** nomli ikkinchi bo`limda korxona qisob siyosatining mazmuni, tarkibi, tuzilishi va taқdim etilishi ko`rsatilgan. Ushbu bo`limda korxonalarning uzoқ va қisқa muddatli aktivlari, majburiyatlari, xususiy kapitali, daromadlari, xarajatlari va oxirgi moliyaviy natijalari ko`rsatkichlarini qisobga olish qamda moliyaviy qisobotni tuzish tartibi қabul қilingan milliy standartlarga muvofiқ ochib berilgan.

**«Audit asoslari»** nomli uchinchi bo`limda auditning moqiyati, tasnifi, tavsifi, predmeti, ob`ektlari, uslubi, usullari, tashkiliy-quқuқiy asoslari, shuningdek korxonalarning aktivlari, majburiyatlari, xususiy kapitali, moliyaviy natijalar ko`rsatkichlarini auditorlik tekshiruvining metodologik jiqatlari ochib berilgan. SHuningdek, ushbu bo`limda auditorlik tekshiruvi natijalarini umumlashtirish, rasmiylashtirish va tadbiқ қilish tartiblari qam ko`rsatilgan.

Ma`ruza matnlari to`plamida barcha mavzular bo`yicha tayanch iboralar va atamalarning moqiyati ochib berilgan, talabalarning o`z-o`zini nazorat қilishlari uchun test savol-javoblari berilgan. Mavzularni yoritishda talabalarga eslab қolishga o`nғay va oson bo`lishligi uchun tasniflashlar, baqolash usullari, amaliy misollar va qujjatlar chizmalar, jadvallar va ilovalar ko`rinishida keltirilgan.

Ma`ruza matnlari to`plamida mavzularni chuқur o`rganish uchun me`yoriy xujjatlar va maxsus davriy adabiyotlar ro`yxati keltirilgan.

# 1-BO`LIM. BUXGALTERIYA QISOBINING NAZARIY ASOSLARI

## Ma`ruza 1. BUXGALTERIYA QISOBINING PREDMETI VA USLUBI (2 soat)

### Ma`ruza rejasi

*1. Qisob tushunchasi, uning turlari va boshқaruvda tutgan ўrni*
*2. Buxgalteriya qisobining predmeti va ob`ektlari*
*3.Buxgalteriya qisobining uslubi va unda қo`llaniladigan usullar*

## 1. Qisob tushunchasi, uning turlari va boshқaruvda tutgan ўrni

Qar қanday jamiyatni rivojlanishi uni boshқarishni taқozo etadi. Boshқarish, ўz navbatida, jamiyatning turli tarmoқ va soqalarida yuz bergan va berayotgan jarayonlar, xўjalik faoliyatini olib borayotgan sub`ektlarning mablaғlari, ularni tashkil etish manbalari, erishayotgan natijalari va boshқa jiqatlari tўғrisidagi axborotlarni mavjudligiga boғliқ bўladi. Bunday axborotlarni ўzida mujassamlashtiruvchi vosita bўlib xўjalik qisobi qisoblanadi.

Xўjalik qisobi negizida, kўrinib turibdiki, «xўjalik» va «qisob» sўzlari yotadi.

**«Xўjalik»** deganda ma`lum maқşadlarga yўnaltirilgan, ўzining bazisi va ustқurmasiga ega bўlgan sub`ektlar tushuniladi. Xўjalik sifatida қaraladigan sub`ektlar bўlib bir butun mamlakatning ўzi va uning turli tarkibiy bўlinmalari, masalan, tarmoқlari, soqalari, mintaқalari, qududlari, vazirliklar, birlashmalar, korxonalar qisoblanadi. Mamlakat doiraisdagi xўjalik xalқ xўjaligi, uning eng қўyi bўғinidagi xўjalik korxona xўjaligi deb ataladi. Iқtisodiyotning yuқori va қўyi bўғinlari ўrtasidagi xўjaliklarga tarmoқlar, soqalar, birlashmalar, viloyatlar, tuman va shaqarlar xўjaliklari kiradi.

**«Qisob»** - bu xўjalikda yuz bergan va berayotgan qodisa va jarayonlar, ularning natijalari tўғrisidagi axborotlarni yiғish, қayd etish, guruqlash va uzatish tizimi. Demak, qisobning asosiy maqsuli bўlib axborot, qisob yuritishning asosiy maқşadi bўlib, bu axborotlarni aniқ, tўliқ va ўz vaқtida yiғish, қayd etish, guruqlash va foydalanuvchilarga etkazib berish qisoblanadi.

SHunday қilib, ikki sўz yiғindisidan tashkil topgan «xўjalik qisobi» xalқ xўjaligining turli bўғinlarida yuz bergan va berayotgan qodisa va jarayonlar, ularni natijalarini soniy va sifat jiqatdan xarakterlovchi axborotlarni yiғish, қayd etish, guruqlash va uzatish tizimidir.

Xўjalik qisobini u yoki bu belgilariga қarab turli turlarga ajratish mumkin (1-chizmaga қarang).

*Xўjaliklarni moliyalashtirilishiga kўra* ularda yuritiladigan qisobni ikkiga bўlish mumkin: korxona qisobi, byudjet qisobi.

**Korxona** deganda ўz-ўzini mablaғ bilan ta`minlaydigan, mustaқil faoliyat yuritadigan xўjalik tushuniladi. Ularga zavod va fabrikalar, firmalar, shirkatlar, jamoa

xўjaliklari, қurilish tashkilotlari, banklar va boshқalar kiradi. Ushbu xўjaliklarda yuritiladigan qisob korxona qisobi deb ataladi.

**Byudjet qisobi** deganda, davlat tomonidan moliyalashtiriladigan muassasalarda yuritiladigan qisob tushuniladi. Bunday muassasalarga maorif, soғliқni saқlash, madaniyat va boshқa ijtimoiy soqa muassasalari kiradi.

Xalқ xўjaligi soqalarigi kўra xўjalik qisobi aloqida shu soqalar qisobidan iborat bўladi, masalan, sanoat soqasi qisobi, қishloқ xўjaligi soqasi qisobi, savdo soqasi qisobi, maorif soqasi qisobi va boshқalar.

*Axborot foydalanuvchilariga kўra* xўjalik qisobi ichki va tashқi qisobga bўlinadi.

**Ichki qisob** deganda faқat xўjalikning ўzida yuritiladigan qisob tushuniladi. Ichki qisob adabiyotlarda turlicha nomlangan, masalan, operativ-texnik qisob, boshқaruv qisobi, ishlab chiқarish qisobi.

**Operativ-texnik qisob** deganda xўjalik bўlimlari tomonidan u yoki bu maқsadda yuritiladigan tezkor qisob tushuniladi. Kadrlar bўlimini xodimlarni ishga ўz vaқtida kelishi va ketishining operativ qisobi, smena boshliғini yoki masterining stanoklarni ish qolati qisobi va boshқalar operativ-texnik qisobga misol bўla oladi.

**Boshқaruv qisobi** – bu xўjalik raqbariyati talablariga kўra boshқaruvga tegishli қarorlarni қabul қilish maқsadida batafsil (analitik) tarzda yuritiladigan qisob tizimi. Bunday qisobni xўjalikning qamma bўlimlari olib borishlari mumkin.

**Ishlab chiқarish qisobi** – bu xўjalikni ishlab chiқarish jarayonlari va ularning natijalarini u yoki bu usullarda aks ettiruvchi qisob tizimi. Odatda, ishlab chiқarish qisobi negizida maqsulot tannarxini kal'kulyatsiya қilish usullari yotadi, masalan, normativ, reja, qaқiқiy tannarx usullari.



*1-chizma*. Xўjalik qisobini tasniflash asoslari

**Tashқi qisob** deganda xўjalik faoliyati tўғrisidagi axborotlarni tashқi axborot foydalanuvchilarga taқdim etuvchi qisob tizimi tushuniladi. Tashқi qisobga қўyidagilarni kiritish mumkin:

- Moliyaviy qisob
- Statistika qisobi

**Moliyaviy qisob** deganda xўjalik moliyaviy faoliyati tўғrisidagi axborotlarni asosan tashқi foydalanuvchilar uchun taқdim etuvchi qisob tizimi tushuniladi. Moliyaviy qisob tashқi foydalanuvchilar uchun asosan qisobotlar kўrinishida taқdim etiladi. Moliyaviy qisob ma`lumotlaridan ichki foydalanuvchilar qam keng foydalanadilar. Moliyaviy qisob ma`lumotlarini keng iste`mol қiluvchi tashқi va ichki foydalanuvchilarning tarkibi 2-chizmada keltirilgan.

**Statistika qisobi** deganda jamiyatda yuz bergan va berayotgan yoppa qodisa va jarayonlarni soniy aks ettiradigan va sifat jiqatdan izoqlaydigan qisob tizimi tushuniladi.

Statistika qisobining asosiy maqsuli bўlib statistik qisobotlar qisoblanadi. Statistik qisob ma`lumotlarni tuman, viloyat va yaxlit mamlakat doirasida jamlaydi. Statistik qisob davlat tomonidan strategik boshқaruvni olib borishga asos qisoblanadi.

*Davlat tomonidan tartibga solinishiga kўra* хўjalik qisobini ikki turga bўlish mumkin:

- Reglamentlashtiriladigan
- Reglamentlashtirilmaydigan

**Reglamentlashtiriladigan qisob** deganda shakli va mazmuni, yuritish texnikasi va tartibi ma`lum me`yoriy qujjatlar bilan tartibga solingan qisob
tizimi tushuniladi. Tartibga soluvchi qujjatlar bўlib қonunlar, farmonlar, milliy standartlar, nizomlar, yўriқnomalar qisoblanadi. Reglamentlashtiriladigan qisobga Ўzbekiston Respublikasida moliyaviy qisob va statistik qisob kiradi. Ushbu qisob turlari shakl va mazmun jiqatdan qamma uchun bir xildir.

**Reglamentlashtirilmaydigan qisob** deganda shakl va mazmuni, yuritish tartibi va texnikasi davlat tomonidan belgilab қўyilmagan qisob tizimi tushuniladi. Bunday qisob turlariga operativ-texnik qisobini, boshқaruv qisobini, ishlab chiқarish qisobini kiritish mumkin. Ushbu qisob turlarida қўllaniladigan registrlar, ularning shakllari, yuritish tartibi qar bir хўjalik tomonidan ўz qoqishiga қarab belgilanadi.



***2-chizma.*** **Moliyaviy qisob ma`lumotlaridan foydalanuvchilarning tarkibi**

*Хўjalik qisobi uni yurituvchi bўlimlarga қarab* buxgalteriya qisobi, kadrlar bўlimi qisobi, ishlab chiқarish bўlimi qisobi, ta`minot bўlimi qisobi, sotish bўlimi qisobi va boshқalarga bўlinadi.

Хўjalik qisobining boshқaruvda tutgan ўrni asosan u bajaradigan axborot berish va nazorat қilish funktsiyalarida yorқin namoyon bўladi.

**Axborot berish funktsiyasi** – bu ichki va tashқi foydalanuvchilarni хўjalik faoliyati, uning mablaғlari, mablaғlarni tashkil topish manbalari, faoliyat natijalari tўғrisidagi axborotlar bilan ta`minlash. Foydalanuvchilarga beriladigan axborotlar қўyidagi talablarga javob berishi kerak:

- Reallik – beriladigan axborotlarni aniқ boshlanғich qujjatlarga asoslanganligi;
- Ўz vaқtidalilik – axborotlarni foydalanuvchilarga kerakli vaқtda etkazish;
- Batafsillik- axborotlarni foydalanuvchilarga ularning talablarini қoniқtiradigan mazmunda berish;
- Neytrallik – axborotlarni foydalanuvchilarga bir-birini quқuқlariga putur etkazmasdan berish;

Xo`jalik qisobi beradigan axborotlar xalқ xo`jaligining barcha bo`ғinlarini strategig va taktik boshқarish vositasi, o`tқaziladigan iқtisodiy taqlil va auditning asosiy manbai, nazorat қilish қuroli qisoblanadi.

**Nazorat** – bu yuz bergan, berayotgan va beradigan xodisa va jarayonlarni қonuniyligi, qaққoniyligi va tўғri rasmiylashtirilganligini tekshirish. Xўjalik qisobi tomonidan olib boriladigan nazoratni asosan uchta turga bўlish mumkin:

- Dastlabki nazorat
- Joriy nazorat
- Keyingi nazorat

**Dastlabki nazorat** – xўjalikda yuz bergan va beradigan xodisa va operatsiyalarni қonuniyligi, ular bўyicha tayyorlangan boshlanғich qujjatlarni tўғriligini ularni imzolash choғida tekshirish.

**Joriy nazorat** – yuz bergan jarayon va operatsiyalarni ular bўyicha tuzilgan qisobotlarni қabul қilish choғida tekshirish.

**Keyingi nazorat** – xўjalikda yuz bergan jarayon va operatsiyalarni, mablaғlar qolatini inventarizatsiya қilish, taftish ўtkazish, taққoslama dalolatnomalarni tuzish yўllari bilan tekshirish.

## 2. Buxgalteriya qisobining predmeti va ob`ektlari

«Buxgalteriya qisobi» deb atalmish qisobning ushbu turi o`zining ko`p yillik tarixiga ega. Faoliyat sifatida u kishilik jamiyatida xo`jalik yurituvchi sub`ektlarni, masalan, artel', manifakturalarni paydo bo`lishi bilan vujudga kelgan. Ishlab chiқarishni rivojlanib borishi bilan mos ravishda buxgalteriya qisobi qam rivojlangan, uning shakl va mazmuni, yuritish texnikasi va usullari takomillashib borgan. Boshқaruv organlari xodimlari ichida aynan qisob-kitob ishlari bilan shuғullanuvchi kasb egalari shakllangan. SHu yo`sinda buxgalteriya qisobi maxsus kasbga aylangan.

Jamiyatni boshқarishni takomillashtirish buxgalteriya qisobini rivojlantirishni va ushbu kasb egalarini tayyorlash, ularning malakasini oshirib borishni taқoza etgan. Bu zaruriyatlar buxgalteriya qisobini maxsus fan sifatida shakllanishiga, buxgalterlar tayyorlash maktablarini vujudga kelishiga (jumladan, italiya, angliya, amerika, nemets, frantsuz, amsterdam, venetsiya, rus, toskan, lombard va shu kabi), ularni asta-sekinlik bilan rivojlanib borishiga asos solgan.

Buxgalteriya qisobini fan sifatida vujudga kelishiga eng katta qissa қo`shgan maktablardan biri bo`lib Italiya maktabi qisoblanadi. Aynan ushbu maktab vakili, mutaxassisligi bo`yicha matematik bo`lgan Luka Pacholi (1445-1517) buxgalteriya

qisobi fanini yaratuvchisi sifatida butun dunyo mamlakatlarida tan olingan. Uning 1494 yilda chop etilgan «Schetlar va yozuvlar to`ғrisida traktat» nomli asari birinchi marta buxgalteriya qisobini fan sifatida o`қitilishiga asos solgan. Buyuk olimning asarida birinchi marta buxgalteriya schetlari, ularga ikki yoқlama yozish tushunchalari kiritildi, ularning moqiyati ochib berildi , bu yozuvni amalga oshirishda to`rtta omil, ya`ni sub`ekt, ob`ekt, vaқt, joy qisobda ko`rinib turilishlik zaruriyatlari isbotlandi. Luka Pacholi o`z asarida buxgalteriya qisobida ikkita postulatni (schetlar tizimida debet va kredit oborot summalari, debet va kredit қoldiқ summalari qamma vaқt bir-biriga teng bo`lishi kerak), shuningdek debitorlik va kreditorlik қarzni tan olishning ikkita tartibini ( qech kimni қarzdor (debitor ) deb bo`lmaydi, agarda u buni tan olmasa; qech kimni ishonchli vakilim (kreditor) deb bo`lmaydi, agarda ma`lum shartlarda u bunga o`zi rozi bo`lmasa) yaratdi. Luka Pacholidan keyingi olti asr maboynida buxgalteriya qisobida juda ko`p yangi postulatlar, tartiblar vujudga keldi, jumladan De Lya Porta postulati (XYII asr) , J. Savari postulati (XYII asr), J.Dzappa postulati (XIX asr), e.Pizani postulati (XIX asr), I.P.Russiyan postulati ( XIX asr), J.CHerboni postulati ( XIX asr), I. F. SHer postulati (XX asr), e.SHmalenbax postulati ( XX asr), shuningdek P.Gerstner tartibi ( XIX asr oxiri va XX asr boshi), V. Riger tartibi ( XX asr), CH. Garrison tartibi ( XX asr) va boshқalar. Ushbu va boshқa postulat va tartiblarga asoslangan buxgalteriya qisobi asta-sekinlik bilan oddiy kishilik faoliyatidan maxsus iқtisodiy fan darajasiga etdi, u bugun barcha iқtisod yo`nalishidagi oliy va o`rta maxsus ilm dargoqlarida o`қitilmoқda.

Buxgalteriya qisobi qam faoliyat, qam maxsus fan sifatida o`zining predmetiga ega.

**Buxgalteriya qisobining predmeti** deganda umuman olganda korxona va tashkilotlarning xo`jalik faoliyati, ushbu faoliyatni tashkil etuvchi jarayonlar va ularni yuritilishini ta`minlovchi mablaғlar, mablaғlarning tashkil topish manbalari, shuningdek xo`jalik faoliyatining natijalari tushuniladi.

YUқoridagi ta`rifga asosan buxgalteriya qisobi predmetini ifodalovchi ob`ektlarni қuyidagi to`rtta guruqga ajratish mumkin:

- Xo`jalik faoliyati;
- Xo`jalik aktivlari;
- Xo`jalik aktivlarining manbalari;
- Xo`jalik faoliyatining natijalari

3-chizmada buxgalteriya qisobi predmetini tashkil қiluvchi ob`ektlarning tasnifi va tarkibi ko`rgazmali tarzda keltirilgan. Қuyida ularning moqiyatiga to`xtalamiz.

**Xo`jalik faoliyati.** Xar қanday korxonaning xo`jalik faoliyati deganda unda yuz beradigan ***ta`minot, ishlab chiқarish*** va ***sotish jarayonlarining*** majmuasi tushuniladi.

Korxona faoliyat ko`rsatishi uchun unga meqnat predmetlari va vositalari, ishchi kuchi, pul mablaғlari va boshқa ta`minotlar kerak bo`ladi. **Ta`minot** deb atalmish bu jarayonni, odatda, korxonaning maxsus ta`minot bo`limi xodimlari
olib boradilar. Ushbu jarayonsiz faoliyatning keyingi jarayonlari, ya`ni ishlab chiқarish va sotish jarayonlari amalga oshishi mumkin emas. SHuning uchun korxona ning doimiy faoliyat ko`rsatishi aynan ta`minot jarayonining uzliksizligiga bevosita boғliқdir.

**Ishlab chiқarish jarayoni** deganda ishchi kuchi va meqnat vositalari yordamida meqnat predmetlaridan yangi maqsulotlar yaratish tushuniladi. Ushbu jarayon o`z ichiga turli texnologik operatsiyalarni oladi, bu operatsiyalarni bajarish esa turli xarajatlarni amalga oshirishni ta`қoza etadi. Ishlab chiқarish jarayonining pirovard natijasi bo`lib tayyor maqsulot qisoblanadi. Tayyor maqsulotni ishlab chiқarishga ketgan moddiy xarajatlar, meqnatga haқ to`lash xarajatlari, ishlab chiқarish vositalarining amortizatsiya xarajatlari va boshқa ushbu jarayonga tegishli xarajatlar ishlab chiқarish xarajatlarini, yaratilgan maqsulot қiymatiga kiritilgan xarajatlar esa tayyor maqsulotning tannarxini tashkil қiladi. SHuni ta`kidlash joizki korxona tomonidan bajarilgan ishlar, masalan қurilish-montaj ishlari, ko`rsatilgan xizmatlar, masalan turistlarga ko`rsatilgan yotoқxona va boshқa xizmatlar yoki auditorlik xizmati xam ishlab chiқarish jarayoni qisoblanadi. Bunday ishlab chiқarish jarayonining natijasi bo`lib bajarilgan ish yoki ko`rsatilgan xizmat xajmi qisoblanadi, ularga sarflangan xarajatlar bajarilgan ish yoki xizmatning tannarxini tashkil қiladi.

**Sotish jarayoni** deganda ishlab chiқarish jarayonida yaratilgan tayyor maqsulotlarni, bajarilgan ishlarni, ko`rsatilgan xizmatlarni xaridorlarga sotish tushuniladi. Ushbu jarayonda tayyor maqsulot, ish, xizmat pulga aylanadi, sotuvchi va sotib oluvchi o`rtasida o`zaro qisob-kitoblar bo`yicha қarzlar vujudga keladi. Sotish jarayonida korxonaning yalpi tushumi, sotish tannarxi, sotishdan
olingan foyda yoki zarari, sotish jarayonining xarajatlari, unga doir soliқlar va boshқa ko`rsatkichlar qisobga olinadi.

Buxgalteriya qisobining birinchi guruq ob`ekti bo`lib qisoblangan xo`jalik faoliyati faқatgina uni tashkil etuvchi jarayonlarni doimiy va uzliksiz ravishda amalga oshirib borgan qolda mavjud bo`ladi. Bu jarayonlarni bir birisiz tasavvur etib bo`lmadi, chunonchi ta`minotsiz ishlab chiқarish, ishlab chiқarishsiz esa sotish jarayoni amalga oshmaydi. Sotish bo`lmasa korxonaga pul kelib tushmaydi, pulsiz esa ta`minot, ishlab chiқarish jarayonlarini yangidan takrorlab va rivojlantirib bo`lmaydi. Bundan xulosa қilsa bo`ladiki, xo`jalik faoliyati mablaғlarni usliksiz aylanishidan va ko`payib borishidan iboratdir. Buyuk iқtisodchi Karl Marks xo`jalik faoliyati jarayonlarini kapitalning aylanishi deb e`tirof etib, uni o`zining «Kapital» asarida қuyidagicha ifodalagan edi.




Bu erda: **P**-pul, **MP**-meqnat predmetlari, **MV**-meqnat vositalari,

**TM**-tayyor maqsulot, **T**-tovar, **P 1 -** sotishdan olingan pul.



*3-chisma.* **Buxgalteriya qisobining predmetini tashkil қiluvchi ob`ektlar**

Xo`jalik faoliyatining barcha jarayonlari buxgalteriya qisobining muqim ob`ektlari bo`lib qisoblanadi. Qar bir jarayonda yuz bergan operatsiyalar buxgalteriya qisobida o`zining soniy o`lchovini va sifat tavsifini topadi. Buxgalteriya qisobi ta`minot jarayonida meqnat predmetlari va vositalarini қancha miқdorda, қaysi baqolarda, қaysi ta`minotchilardan sotib olininganligi, shuningdek ular bo`yicha ta`minotchilar bilan qisob-kitoblarning qolati to`ғrisida batafsil axborot beradi. Ishlab chiқarish jarayoni bo`yicha buxgalteriya qisobida қanday maqsulotlar ishlab chiқarilganligi, қancha ishlab chiқarilganligi, buning uchun қancha xarajat қilinganligi, omborlarga қabul қilingan tayyor maqsulotning қiymati (tannarxi) va boshқa ma`lumotlar shakllanadi. Sotish jarayoni bo`yicha buxgalteriya qisobi қancha maqsulot sotilganligi, kimlarga sotilganligi, қanday to`lov turlari bo`yicha sotilganligi, қanday baqolarda sotilganligi, xaridorlar bilan qisob-kitoblarning qolati, sotishdan olingan tushum, sotishga doir xarajatlar, sotishdan olingan foyda, undan to`lanadigan soliқlar va boshқalar to`ғrisida atroflicha axborot beradi.

**Xo`jalik aktivlari.** Ўz faoliyatini yuritish uchun qar қanday korxona xo`jalik aktivlariga ega bo`lishi lozim.

Ўzbekiston Respublikasi Adliya Vazirligidan 1998 yil 14 avgustda 475 –tartib raқami bilan ro`yxatdan o`tgan «Moliyaviy qisobotni tuzish va taқdim etish uchun kontseptual asos»ga muvofiқ (39- modda) **aktivlar** deganda xo`jalik yurituvchi sub`ektning baxolash қiymatiga ega bo`lgan va o`z ichiga pul mablaғlari
va debitorlik қarzlarni olgan moddiy , shuningdek nomoddiy mulki tushuniladi.

Aktiv deb tan olish uchun moddiy va nomoddiy mulk қuyidagi talablarga javob berishi kerak:

- Қiymatga ega bo`lishi va bu қiymat baqolanadigan bo`lishi kerak.
- Egalik қilish quқuқiga asosan қaysi korxona balansiga kiritilgan bo`lsa, shu korxona tomonidan nazorat қilinishi lozim.

• Kelgusida korxonaga iқtisodiy naf keltirishi kerak, jumladan korxonaning pul mablaғlarini kirimini ko`payishiga bevosita va bilvosita qissa қo`shishi kerak.

• YUz bergan xo`jalik operatsiyalari natijasi qisoblanishi kerak, masalan tayyor maqsulot ishlab chiқarish jarayonining natijasidir.

Aktivlarning xarakterli xususiyatlariga қuyidagilarni kiritish mumkin:

• Jismoniy ko`rinishga (shaklga) ega bo`lishi qam, ega bo`lmasligi qam mumkin. Masalan, bino yoki stanok aniқ shaklga ega, lekinda patent, litsenziya, savdo belgisi, mualliflik quқuқi moddiy shaklga ega emas.

• Sotib olingan, bepul kelib tushgan, ishlab chiқarilgan bo`lishi mumkin.

• Korxonada yuz berayotgan jarayonlarda moddiy asos yoki ularning natijasi qisoblanishi mumkin. Masalan, xom-ashyo ishlab chiқarishga moddiy asos, tayyor maqsulot esa ishlab chiқarishning natijasi qisoblanadi.

• Boshқa aktivlarga almashtirilishi mumkin.

• Қarzlarni to`lash uchun ishlatilishi mumkin.

• Қisқa yoki uzoқ vaқt maboynida foydalanishda bo`lishligi mumkin.

• Oborotda va oborotdan tashқarida bo`lishligi mumkin.

Korxonalarning yuқorida keltirilgan talab va xususiyatlarga javob beradigan asosiy aktivlariga қuyidagilar kiradi:

1.**Uzoқ muddatli aktivlar** – 1 yildan ko`p muddatda xizmat қiladigan va oborotda bo`ladigan moddiy va nomoddiy mablaғlari:

• ***Asosiy vositalar***- binolar, inshoatlar, mashina va mexanizmlar, transport vositalari, komp'yuter texnikasi, mebel va boshқalar.

• ***Nomoddiy aktivlar*** – litsentsiya, patent, savdo markasi, tovar belgisi, gudvil, mualliflik quқuқi va boshқalar.

• ***Moliyaviy investitsiyalar*** - sotib olingan қimmatli қoғozlar, berilgan kredit va қarzlar, kiritilgan pay va badallar.

• ***Kapital investitsiyalar*** - tugallanmagan қurilishlarga, xarakatdagi asosiy vositalarni kengaytirish, rekonstruktsiya va modernizatsiya қilishga sarflangan, shuningdek yangi uzoқ muddatli aktivlarni sotib olishga kiritilgan mablaғlar, sotib olingan, lekin o`rnatilmagan jiqozlar.

**2.Қisқa muddatli aktivlar** – 1 yilgacha muddatda xizmat қiladigan va oborotda bo`ladigan mablaғlar:

• ***Ishlab chiқarish zaxiralari*** – xom-ashyo va materiallar, yoқilғi, tara va tara materiallari, eqtiyot қismlar, қurilish materiallari, xo`jalik inventarlari, boқuvdagi va o`stirishdagi yosh mollar.

• ***Tugallanmagan ishlab chiқarish xarajatlari*** – tayyor qolga etmagan maqsulotlarlarga to`ғri keladigan xarajatlar, yarim maqsulotlar.

• ***Tayyor maqsulotlar*** – omborlarga қabul қilingan tayyor buyumlar.

• ***Tovarlar*** - magazin va omborlarda saқlanayotgan iste`mol buyumlari.

• ***Kelgusi davr xarajatlari*** - xisobot yilida kelgusi davrlar uchun қilingan xarajatlar, masalan obuna to`lovlari, ijara to`lovlari.

• ***Muddati uzaytirilgan xarajatlar*** - qisobot yilida kelgusi davrda qisobiga to`langan soliқlar va boshқa xarajatlar.

• ***Pul mablaғlari*** – kassadagi, yo`ldagi va banklardagi milliy va chet el valyutalari.

• ***Pul ekvivalentlari*** – pulli cheklar, yo`llanmalar, chiptalar, talonlar, markalar va boshқalar.

• ***Olinadigan schyotlar*** - boshқa yuridik va jismoniy shaxslarning korxona oldidagi debitorlik қarzlari.

Barcha xo`jalik aktivlar korxonada yuritiladigan buxgalteriya qisobining muqim ob`ektlari qisoblanadi, ularni qar birining qolati, ko`payishi va kamayishi buxgalteriya qisobida xujjatli asosda aks ettiriladi. Buxgalteriya qisobi ma`lumotlari asosida korxona aktivlari boshқariladi, taqlil etiladi va nazorat қilinadi.

**Xo`jalik aktivlarining manbalari.** Korxona ixtiyoridagi barcha aktivlar ikki manbadan tashkil topadi:

- **Xususiy kapital**
- **Majburiyatlar**

Mulkga egalik қilish quқuқiga muvofiқ aktivlar va ularning manbalari қuyidagi tenglik ko`rinishida ifodalanadi:

**AKTIV = XUSUSIY KAPITAL + MAJBURIYATLAR**

**A = XK + M**

**Xususiy kapital** – bu korxonaning majburiyatlarini chegirib tashlagandan so`ng қoladigan aktivlaridir. YUқoridagi tenglikga muvofiқ:

**XUSUSIY KAPITAL = AKTIV - MAJBURIYATLAR**

**XK = A - M**

Korxonalarning xususiy kapitalini shakllanishining asosiy manbalari bo`lib қuyidagilar qisoblanadi:

• ***Ustav kapitali (UK)*** – bu korxonaga uning ta`sischilari tomonidan kiritilgan mablaғlar majmuasi.

• ***Қo`shilgan kapital (ҚK)*** – bu aktsiyalarni sotish va nominal қiymatlari o`rtasidagi ijobiy farқ, shuningdek chet el investorlarini ustav kapitaliga kiritgan mablaғlari bo`yicha vujudga kelgan valyutalar o`rtasidagi ijobiy farқlar summasi.

• ***Rezerv kapitali (RK)*** – bu korxonaning sof foydasidan tashkil etilgan rezerv kapitali, mulkni қayta baqolashdan olingan қo`shimcha қiymat va bepul kelib tushgan mulklar қiymatining majmuasi.

• ***Taқsimlanmagan foyda(TF)*** – bu korxonaning ta`sischilari o`rtasida taқsimlanmay қolgan sof foydasining summasi.

• ***Rezervlar (R)*** – bu turli joriy to`lovlarni amalga oshirish uchun qisobot davr daromadlari evaziga shakllangan zaxira summasi, masalan joriy va kapital ta`mirlash uchun, meqnat ta`tili qaқlarini to`lash uchun va shu kabilar.

• ***Maқsadli tushumlar (MT)*** – korxonaga turli maқsadlarda turli manbalardan kelib tushgan mablaғlar majmuasi (grantlar, subsidiyalar, a`zolik badallari, soliқlar bo`yicha imtiyozlar va boshқalar).

• ***Grantlar (G) --*** bu korxonaga қaytarib olinmaslik sharti bilan davlat, nodavlat, xalқaro tashkilot va fondlardan aniқ maқsadlar uchun kelib tushgan moddiy va nomoddiy mablaғlar majmuasi. Ushbu mablaғlar faқatgina қat`iy maқsadlarga ishlatilishi lozim.

• ***Subsidiyalar (S)*** – bu korxonaga uning faoliyatini rivojlantirish maқsadida ma`lum bir shartlarga ko`ra davlat tomonidan berilgan yordam va imtiyozlar summasi.

Xususiy kapitalning umumiy miқdori yuқoridagi uning elementlari summalarining yiғindisidan iborat bo`ladi, ya`ni:

$$XK = UK + KҚ + RK + TF + R + MT$$

Aktsionerlik jamiyatlarida chiқarilgan o`z aktsiyalari boshқalardan қayta sotib olingan bo`lsa, u qolda xususiy kapital summasini topishda sotib olingan xususiy aktsiyalar қiymati (XAҚ) xususiy kapital miқdoridan chegirib tashlanadi, ya`ni:

$$XK = UK + KҚ + RK + TF + R + MT - XAҚ$$

**Majburiyatlar** – bu korxonaning boshқa yuridik va jismoniy shaxslar oldidagi қarzlari. Majburiyatlarning asosiy turlari bo`lib қuyidagilar qisoblanadi:

• ***Olingan uzoқ va қisқa muddatli қarzlar*** – bu mos ravishda 1 yildan ko`p va 1 yilgacha muddatga boshқa yuridik shaxslardan vaқtinchalik moliyaviy yordam sifatida olingan mablaғlarni қaytarish bo`yicha қarzlar summasi.

• ***Olingan uzoқ va қisқa muddatli kreditlar*** - bu mos ravishda 1 yildan ko`p va 1 yilgacha muddatga banklardan kredit shartnomalari asosida olingan kredit resurslarini қaytarish bo`yicha қarzlar summasi.

• ***Ta`minotchilarga to`lanadigan schetlar*** – bu olingan tovar-moddiy boyliklar uchun ta`minochilarga o`tқazilmay қolingan қarz summasi.

• ***Xaridorlardan olingan avanslar*** - bu xaridorlardan tovar-moddiy boyliklarni sotib olish uchun oldindan kelib tushgan pullar bo`yicha қarz summasi.

• ***Muddati kechiktirilgan uzoқ va қisқa muddatli қarzlar*** – bu soliқlar va boshқa to`lovlar bo`yicha muddati mos ravishda 1 yildan ko`p va 1 yilgacha bo`lgan davrga uzaytirilgan қarz summasi.

• ***Byudjet oldidagi қarzlar*** – bu qisobot davrida qisoblangan, lekinda byudjetga o`tқazib berilmagan soliқ va to`lovlar bo`yicha қarz summasi.

• ***Ijtimoiy suғurta bo`yicha қarzlar*** – bu ijtimoiy suғurta bo`yicha qisobot davrida qisoblangan, lekinda tegishli suғurta organlariga o`tқazib berilmagan қarz summasi.

• ***Ish haқi bo`yicha қarzlar*** – bu korxonaning xodimlariga qisoblangan va vaқtincha saқlanayotgan ish qaқlarini to`lanmay қolingan қismi.

• ***Ta`sischilar oldidagi қarzlar*** – bu ta`sischilarga qisoblangan, lekinda to`lanmagan dividendlar bo`yicha korxonaning қarzi, shuningdek ta`sischilar safidan chiқib ketgan shaxslarning ustav kapitalidagi qissasini қaytarilmagan қismi.

• ***Boshқa kreditorlar oldidagi қarzlar*** – bu turli xizmatlar, foizlar, kamomadlar, da`volar va boshқa to`lovlar bo`yicha korxonaning boshқa yuridik va jismoniy shaxslar olidagi қarzi.

Buxgalteriya qisobi axborot berish na nazorat қilish vositasi sifatida korxona aktivlarining tashkil topish manbalari bo`yicha ma`lumotlarni jamlaydi, ular asosida korxonaning moliyaviy қuvvati ko`rsatkichlari taxlil etiladi. Buxgalteriya qisobi ma`lumotlari asosida korxonaning xususiy kapitali, қarzlari to`ғrisidagi ma`lumotlar axborot foydalanuvchilariga etқaziladi.

**Xo`jalik faoliyatining natijalari.** Korxona va tashkilotlarning xo`jalik faoliyatining natijalari bo`lib u olgan foyda yoki ko`rgan zarari qisoblanadi.

**Foyda(F)** – bu korxonaning daromadlari ( D) va xarajatlari(X) o`rtasidagi ijobiy farқ, ya`ni

$$F = D > X.$$

Demak, қanchalik daromad ko`p bo`lib, xarajat kam bo`lsa, korxonaning foydasi shunchalik ko`p bo`ladi.

**Zarar** – bu korxonaning daromadlari va xarajatlari o`rtasidagi salbiy farқ, boshқachasiga xarajatlarni daromaddan ko`p bo`lishi, ya`ni:

$$Z = D < X$$

Demak, korxona daromadga қanchalik ko`p xarajat bilan erishsa, uning zarari shunchalik ko`p bo`ladi.

Korxonaning faoliyat natijalari ko`rsatkichlari buxgalteriya qisobining eng ma`suliyatli bo`limi, chunki ushbu ko`rsatkichlarning miқdori ularni qisobda to`ғri aks ettirilganligiga va jamlanganligiga, qisobotlarni to`ғri tuzilganligiga bevosita boғliқ.

SHunday қilib, buxgalteriya qisobining predmeti va ob`ektlarini tashkil etuvchi iқtisodiyotning қuyi bo`ғini bo`lgan korxonalar faoliyatini aniқ, batafsil ma`lumotlarda ifodalab, ularni boshқaruv organlariga, mulkdorlarga va boshқa қiziқuvchilarga o`z vaқtida etқazib berish ushbu soqa xodimlarining jamiyatda tutgan o`rnini yanada qam oshishining muqim garovidir.

## 3. Buxgalteriya qisobining uslubi va unda қo`llaniladigan usullar

Buxgalteriya qisobi xo`jalik faoliyati jarayonlari, aktivlar, ularning manbalari va oxirgi moliyaviy natijalarni aks ettirishni makon va zamonda, dialektik xarakatda amalga oshiradi. Aynan shunday yondashish buxgalteriya qisobining uslubini ifodalaydi.

Buxgalteriya qisobi uslubining moqiyati unda қo`llaniladigan usullarda yorқin namoyon bo`ladi. Bunday usullarga қuyidagilar kiradi:

1.**Buxgalteriya balansi** – korxona aktivlari va ularni tashkil topish manbalarining ma`lum bir sanadagi qolatini pul ifodasida aks ettirish usuli.

2.**Buxgalteriya qisobi schetlari** - bu korxona aktivlari, xususiy kapitali, majburiyatlari, daromad, xarajat, foyda va zararlarini qisobot davridagi qolati (boshlanғich va oxirgi), shuningdek ularning shu davrdagi qarakati (ko`payishi va kamayishi) to`ғrisidagi ma`lumotlarni pul ifodasida aks ettirish usuli.

3.**Buxgalteriya qisobi schetlariga ikki yoқlama yozuv -** bu yuz bergan operatsiyaning summasini ikki marta, ya`ni bir schetning debetiga va boshқa bir schyotning kreditiga yozish usuli.

**4.Baqolash** – bu korxona aktivlarining қiymatini pulda ifodalash usuli.

**5.Kal'kulyatsiya** –bu xo`jalik aktivlarining sotib olish, ishlab chiқarish va sotish қiymatlarini qisoblab topish usuli.

Korxona aktivlarini baqolash va kal'kulyatsiya қilish negizida қuyidagi қiymat turlari yotadi:

• .**Boshlanғich қiymat –** bu aktivlarni sotib olish, қurish, ishlab chiқarish va boshқa yo`llar bilan kelib tushgan vaқtida shakllangan қiymati. Ushbu қiymat o`z ichiga aktivlarni sotib olishga, қurishga va ishlab chiқarishga ketgan xarajatlarni oladi. Bepul kelib tushgan aktivlarning boshlanғich қiymati komissiya tomonidan ekspert yo`li bilan topiladi.

• .**Қoldiқ қiymat –** bu aktivlarning boshlanғich қiymatidan foydalanish davrida jamlangan eskirish summasini chegirishdan keyin қolgan қiymati.

• .**Sof sotish қiymati -** bu aktivning sifati, qolati, shuningdek bozordagi talab va taklifdan kelib chiқgan qolda shakllangan қiymati. Ushbu қiymat yuқorida keltirilgan қiymat turlaridan kam qam, ko`p qam bo`lishi mumkin.

Korxona aktivlarining aloqida turlarini baqolash va kal'kulyatsiya қilishda o`ziga xos xususiyatlar mavjud va bunda turli usullardan foydalaniladi, ular to`ғrisida keyingi ma`ruzalarda to`xtalamiz.

**6.Qujjatlashtirish.** Buxgalteriya qisobining boshқa qisob turlaridan yana bitta farқli xususiyati shundaki, unda aks ettirilgan xo`jalik operatsiyalari қat`iy xujjatlashtirilgan bo`ladi, ya`ni qisobda aks ettirilgan ma`lumotlar xujjatli asosga ega bo`ladi. Bu o`z navbatida buxgalteriya qisobi ma`lumotlarini muqimliligini, ishonarliligini, yuridik kuchga ega ekanligini ta`minlaydi. SHuning uchun qam xujjatlashtirish buxgalteriya qisobining muqim usuli qisoblanadi.

**Qujjatlashtirish** – bu xo`jalik operatsiyalarini ma`lum bir qujjatlar bilan rasmiylashtirish usuli.

**Qujjat** – bu qo`jalik operatsiyalarini qaқiқatda yuz berganligiga guvoq beruvchi yoki ularni kelgusida yuz berishiga asos bo`luvchi yozma guvoqnoma. Masalan, tovar-moddiy boyliklarni qaқiқatda sotilganligi yoki olinganligiga schet-fakturalar, pulni kassaga olinganligiga kirim kassa orderi guvoq qisoblanadi. Boshқa bir qujjatlar xo`jalik operatsiyalarini kelgusida yuz berishiga asos bo`ladi, masalan berilgan ishonchnoma shu shaxs tomonidan boshқa korxonadan tovar-moddiy boyliklarni қabul қilib olishiga, chek esa kassirga pulni bankdan naқd olishga quқuқ beradi.

Buxgalteriya qisobida juda ko`p turdagi qujjatlar ishlatiladi. Ularni turli belgilariga қarab tasniflash mumkin ( 4-chizmaga қarang ).

*Maқsadiga ko`ra* buxgalteriya qujjatlari guvoqlik beruvchi, farmoyish beruvchi, farmoyish va guvoqlik beruvchi, buxgalterlik qisob-kitoblarini aks ettiruvchi turlarga bo`linadi.

**Guvoqlik beruvchi qujjatlar** deganda, yuқorida aytib o`tganimizdek, xo`jalik operatsiyalarini qaқiқatda yuz berganligiga guvoq beruvchi qujjatlar tushuniladi.

**Farmoyish beruvchi qujjatlar** deganda u yoki bu qarakatni kelgusida amalga oshirishga farmoyish beruvchi qujjatlar tushuniladi. Masalan, inventarizatsiya o`tқazish to`ғrisida farmoyish, tovarni olib kelush uchun berilgan ishonchnoma va shu kabilar.

**Farmoyish va guvoqlik beruvchi qujjatlar** deganda bir vaқtning o`zida xo`jalik operatsiyasini amalga oshirishga berilgan farmoyishni ifodalovchi, qam bu farmoyish asosida qaқiқatda yuz bergan xo`jalik operatsiyasiga guvoqlik beruvchi qujjatlar tushuniladi. Masalan, kassa chiқim orderi bir vaқtning o`zida pulni berilishi uchun tuzilgan raqbariyatning farmoyishini, shuningdek shu farmoyish asosida pulni qaқiқatda kimgadir berilganligi to`ғrisida guvoqlik beruvchi qujjat qisoblanadi. Pul cheki qam xuddi shunday qujjat qisoblanadi.

**Buxgalterlik qisob-kitoblarini aks ettiruvchi qujjatlar** deganda bevosita yuz bergan xo`jalik operatsiyasini aks ettirmaydigan, lekinda u yoki bu ko`rsatkichni, қarzni topish uchun buxgalter tomonidan tuzilgan qujjatlar tushuniladi. Bunday qujjatlarga misol қilib soliқlar qisob-kitoblarini, majburiy ajratmalar qisob-kitoblarini, amortizatsiyani aniқlash qisob-kitoblarini keltirish mumkin.

*Tuzish tartibiga ko`ra* buxgalteriya qisobida ishlatiladigan qujjatlar blshlanғich va yiғma qujjatlarga bo`linadi.

**Boshlanғich qujjatlar** deb xo`jalik operatsiyasi sodir bo`lgan vaқtda tuzilgan qujjatlar tushuniladi. Barcha guvoqlik beruvchi qujjatlar boshlanғich qujjatlar qisoblanadi.

**Yiғma qujjatlar** deganda boshlanғich qujjatlar asosida tuzilgan va ularning ma`lumotlarini ma`lum davr uchun jamlab beradigan qujjatlar tushuniladi. Bunday qujjatlarga moddiy qisobotlar, avans qisobotlari, tovar-pul qisobotlari, bank ko`chirmalari va boshқalar kiradi.

*Aks ettirish usullariga ko`ra* buxgalteriya qujjatlari bir marotaba yuz bergan va ko`p marotaba yuz bergan operatsiyalarni aks ettiradigan qujjatlarga bo`linadi.



*4-chizma*. Buxgalteriya qisobida қўllaniladigan xujjatlarni tasniflash asoslari

**Yiғma qujjatlar** deganda boshlanғich qujjatlar asosida tuzilgan va ularning ma`lumotlarini ma`lum davr uchun jamlab beradigan qujjatlar tushuniladi. Bunday qujjatlarga moddiy qisobotlar, avans qisobotlari, tovar-pul qisobotlari, bank ko`chirmalari va boshқalar kiradi.

*Aks ettirish usullariga ko`ra* buxgalteriya qujjatlari bir marotaba yuz bergan va ko`p marotaba yuz bergan operatsiyalarni aks ettiradigan qujjatlarga bo`linadi.

**Bir marotaba yuz bergan operatsiyalarni aks ettiruvchi qujjatlar** deganda faқat bitta operatsiyani u yuz bergan vaқtda aks ettiruvchi qujjatlar tushuniladi, masalan, pulni kassaga kirim қilganda tuzilgan kirim kassa orderi, tovar jo`natilganda tuzilgan schyot-faktura va shu kabi qujjatlar.

**Ko`p marotaba yuz bergan operatsiyalarni aks ettiruvchi qujjatlar** deganda bir xil mazmundagi va ko`p takrorlanib tutuvchi xo`jalik operatsiyalarni ma`lum bir davrda (masalan xafta , o`n kunlik, bir oy ichida) bitta qujjat bilan rasmiylashtiruvchi qujjatlar tuқuniladi, masalan ombordan ishlab chiқarishga xar kuni beriladigan materiallar bir qafta, o`n kun yoki bir oyga ochilgan bitta zabor listi bilan rasmiylashtirilishi mumkin. Bunday qujjatlar boshlanғich qujjatlar sonini kamayishiga, ularni tuzish va ishloviga ketadigan vaқtni anchagina tejalishiga olib keladi.

*Tuzilgan joyiga ko`ra* qujjatlar ichki va tashқi qujjatlarga bo`linadi.

**Ichki qujjatlar** deb korxonaning o`zida tuzilgan, **tashқi qujjatlar** deb esa korxonaga chetdan kelib tushgan qujjatlar tushuniladi. Masalan, tayyor maqsulotni jo`natishda tuzilgan schyot-faktura ichki, materiallarni ta`minotchilardan kelib tushganligini ko`rsatuvchi schyot-faktura esa tashқi qujjat qisoblanadi.

*Tuzish usullariga ko`ra* buxgalteriya qujjatlari қo`lda va komp'yuterlarda tuzilgan qujjatlarga bo`linadi.

Buxgalteriya qisobida қo`llaniladigan qujjatlar shakl va mazmuniga ko`ra unifikatsiyalashtirish va standartlashtirish talablariga javob berishlari kerak.

**Qujjatlarni unifikatsiyalashtirish** deganda bir xil mazmundagi operatsiyalarni barcha korxonalarda yagona shakl va mazmundagi qujjatlar bilan rasmiylashtirilishi tushuniladi. Masalan, 1998 yil 1 yanvardan boshlab Ўzbekiston Respublikasida tovar-moddiy zaqiralarni sotish va sotib olish operatsiyalarini faқatgina tasdiқlangan yagona shakldagi schet –faktura bilan rasmiylashtirish tartibi қo`llaniladi. Xuddi shunday tartib kassadagi va banklardagi pul mablaғlari va boshқa aktivlarga doir operatsiyalarni qujjatlashtirishda qam ishlatiladi.

**Qujjatlarni standartlashtirish** deganda bir xil nomdagi qujjatlar uchun yagona razmer va shakllarni o`rnatilishi tushuniladi. YUқorida aytilgan schet-faktura va boshқa qujjatlar standart qujjatlarga misol bo`la oladi.

Buxgalteriya qisobi qujjati deb tan olinishi uchun qujjat ma`lum talablarga javob berishi lozim. Bu talablarga қuyidagilar kiradi:

1.Qujjat aniқ rekvizitlarga ega bo`lishligi va bu rekvizitlar to`liғicha ko`rsatilgan bo`lishligi kerak. Buxgalteriya qisobida қo`llaniladigan qujjatlarning asosiy rekvizitlariga қuyidagilar kiradi:

- Qujjatning nomi;
- Qujjatning tartib raқami
- Qujjatning tuzish sanasi
- Operatsiyada қatnashuvchi tomonlarning nomi, adresi, telefoni, bank rekvizitlari, soliқ to`lovchi sifatidagi identifikatsion raқami (STIR);
- YUz bergan operatsiyaning mazmuni;

- Raqbar va bosh qisobchining familiyasi, ismi – sharifi;
- Operatsiyaga asos bo`lgan qujjat (masalan, ishonchnomaning nomeri va sanasi);
- Operatsiyada bevosita қatnashgan shaxslarning familiyasi, ismi- sharifi.

2.Qujjat imzolangan bo`lishi kerak (raqbar, bosh qisobchi va operatsiyalarda қatnashgan boshқa shaxslar tomonidan).

3.Qujjat korxonaning muqri bilan tasdiқlangan bo`lishi kerak.

4.Qujjat қalam bilan tuzilmagan bo`lishi kerak;

5.Qujjatning barcha nusxalari bir xil bo`lishi lozim.

Ushbu talablarning birontasiga amal қilinmay tuzilgan qujjat to`liқ yuridik kuchga ega bo`lmaydi.

Buxgalteriya qisobida juda ko`p nomdagi va sondagi qujjatlar tuziladi. SHuning uchun qujjatlar aylanishini to`ғri tashkil etish, ularni belgilangan muddatlarda korxonada saқlash va davlat arxiviga belgilangan tartiblarda topshirish o`ta muqim qisoblanadi.

**7.Inventarizatsiya** – bu buxgalteriya qisobida uning ma`lumotlarini to`ғriligini, korxona aktivlarini qaқiқiy qolatini, moddiy javobgar shaxslarning o`z funktsiyalarini sidқidildan vijdonan bajarayotgaligini, mulkni talon-taroj қilinmaganligini bilish maқsadida o`tқaziladigan қayta qisob-kitob қilish usuli.

Ўzbekiston Respublikasida buxgalteriya qisob ob`ektlarini inventarizatsiya қilish tartibi maxsus 19- son BXMS «Inventarizatsiyani tashkil қilish va o`tқazish» bilan reglamentlashtirilgan. Ushbu standartga muvofiқ inventarizatsiyaning қuyidagi turlari mavjud:

- **Rejali inventarizatsiya** – bu korxonaning moddiy javobgar shaxslarni navbatdagi meqnat ta`tiliga chiқarish rejasiga ko`ra o`tқaziladigan inventarizatsiya.
- **Rejadan tashқari inventarizatsiya** – bu ko`zda tutilmagan qollarda, masalan favқulotdagi qodisalar yuz berganda (o`ғrilik,toshқin va shu kabi qodisalar sodir bo`lganda) o`tқaziladigan inventarizatsiya.

**Inventarizatsiyaning xarakterli xususiyatlari:**

- Inventarizatsiya to`satdan o`tқaziladi, ya`ni moddiy javobgar shaxs uni o`tқazilishi to`ғrisida oldindan xabar topmasligi lozim.
- Inventarizatsiya raqbarning buyruғi yoki farmoyishi bilan tasdiқlangan doimiy xarakatdagi va ishchi inventarizatsiya komissiyalari tomonidan o`tқaziladi, ushbu komissiyaga moddiy javobgar shaxs albatta kiritiladi.
- Inventarizatsiya ma`lum muddatga o`tқaziladi, uning boshlanish va tugash vaқti buyruқda yoki farmoyishda ko`rsatilgan bo`lishi kerak.
- Inventarizatsiyani o`tқazish belgilangan tartibda va usullarda amalga oshiriladi.

• Inventarizatsiya natijalari maxsus sanoқ va taққoshlash dalolatnomalari bilan rasmiylashtiriladi.

Ўzbekiston Respublikasining BXMS lariga muvofiқ korxona aktivlarini rejali invetarizatsiya қilishda қuyidagi muddatlar belgilangan:

| *Inventarizatsiya ob`ekti* | *Inventarizatsiyani o`tқazish muddatlari* | *Қaysi BXMSga muvofiқ* |
|---|---|---|
| **Asosiy vositalar** | Ikki yilda bir marta yillik qisobot oldidan | 5- son BXMS,<br>19-son BXMS |
| **Kutubxona fondi** | Besh yilda bir marta | 5- son BXMS,<br>19-son BXMS |
| **Tovar-moddiy boyliklar (yoқilғi, oziқ –ovқatlar, қimmatbaqo metallardan tashқari)** | Yiliga kamida bir marta | 4-son BXMS,<br>19-son BXMS |
| **YOқilғi, oziқ –ovқatlar** | Xar chorakda | 4 –son BQMS<br>19-son BXMS |

| | | |
|---|---|---|
| **Қimmatbaqo metallar** | Tarmoқ yo`riқnomasiga muvofiқ belgilangan muddatlarda | Maxsus yo`riқnoma |
| **Pul mablaғlari,<br>Pulli ekvivalentlar va qujjatlar** | Xar oyda bir marta | 12- son BXMS<br>19—son BXMS |
| **Qisob-kitoblar** | Bir marta yillik qisobot oldidan | 19-son BXMS |

Inventarizatsiyaning natijasida qisob ma`lumotlaridan chetlanishlar aniқlanishi mumkin. Bunday chetlanishlar bo`lib kamomad va ortiқchalar qisoblanadi. Aniқlangan kamomadlar ning belgilangan me`yorlardan tashқarisi moddiy javobgar shaxslardan қonun doirasida o`ndirilib olinadi. Aniқlangan ortiқchalar korxonaning daromadiga olinadi.

**8.Moliyaviy qisobot -** – bu ma`lum davrdagi moliyaviy xo`jalik faoliyati ko`rsatkichlarini pulda belgilangan shakl va mazmunda ifodalash usuli.

**Moliyaviy qisobot** –bu korxona va tashkilotlarning moliyaviy-xo`jalik faoliyati ko`rsatkichlarini o`zida mujassamlashtirgan qisobot shakllari majmuasi.

Moliyaviy qisobot davlat aqamiyatiga molik buxgalteriya xujjatlari tizimi qisoblanadi. Ўzbekiston Respublikasida moliyaviy qisobotning turlari, tarkibi, shakllari, tayyorlanishi va taқdim etilishi Moliya Vazirligi tomonidan belgilangan Қoidalar va Nizomga muvofiқ amalga oshiriladi.

Ushbu xujjatlarga asosan moliyaviy qisobot choraklik, yarim yillik va yillik qisobotlarga bo`linadi. Ularda ma`lumotlar yil boshidan o`sib borish tartibida ko`rsatiladi va mos ravishda choraklik, yarim yillik, to`ққiz oylik va yillik faoliyat natijalarini ko`rsatadi.

Moliyaviy qisobotlar shakllarini to`ldirish Tartibiga muvofiқ moliyaviy qisobotning tarkibi qisobot davrlari bo`yicha o`z ichiga қuyidagi qisobot shakllarini oladi:

| *Qisobot turlari* | *Qisobot shakllari* |
|---|---|

| | |
|---|---|
| **Yillik** | 1. 1-sonli shakl «Buxgalteriya balansi»<br>2. 2-sonli shakl «Moliyaviy natijalar to`ғrisida qisobot»<br>3. 3-sonli shakl «Asosiy vositalar to`ғrisida qisobot»<br>4. 4-sonli shakl « Pul oқimlari to`ғrisida qisobot»<br>5. 5-sonli shakl «Xususiy kapital to`ғrisida qisobot»<br>6. 2a –sonli shakl « Debitorlik va kreditorlik қarzlari to`ғrisida ma`lumotnoma»<br>7. 2b –sonli shakl « Korxonaning moliyaviy –iқtisodiy qolati to`ғrisida ma`lumotnoma» |
| **YArim yillik** | 1.1-sonli shakl «Buxgalteriya balansi»<br>2.2-sonli shakl «Moliyaviy natijalar to`ғrisida qisobot»<br>3.4-sonli « Pul oқimlari to`ғrisida qisobot»<br>4.2a –sonli shakl « Debitorlik va kreditorlik қarzlari to`ғrisida ma`lumotnoma» |
| **CHoraklik** | 1.1-sonli shakl «Buxgalteriya balansi»<br>2.2-sonli shakl «Moliyaviy natijalar to`ғrisida qisobot»<br>3..2a –sonli shakl « Debitorlik va kreditorlik қarzlari to`ғrisida ma`lumotnoma» |

Moliyaviy qisobotning tasdiқlangan va respublikamizda қo`llanilib kelinayotgan shakllari 1-ilovada keltirilgan.

Yillik moliyaviy qisobotga қuyidagi ilovalar қilinadi:

- Moliyaviy-xo`jalik faoliyati ko`rsatkichlariga ta`sir қilgan omillarni o`zida bayon etuvchi tushuntirish xati va qisobotning ayrim moddalari bo`yicha tavsifli jadvallar;
- Moliyaviy qisobot bo`yicha olingan xolis auditorlik xulosasi
Korxonaning qisob siyosatidan qar bir қiziқuvchi ўz maқsadlarida foydalanadilar. Masalan, soliқ idorasi uchun ushbu qujjat korxonada soliқlar qisob-kitoblarini tўғriligini tekshirish, qisobni tўғri yuritilganligini nazorat қilish maқsadida zarur. Auditorlik firmalari qisob siyosatini ўrganish asosida uni tўғri tuzilganligi tўғrisida xulosa қiladilar, shuningdek unga қanchalik amal қilinayotganligiga baqo beradilar. Investorlar, aktsionerlar, kreditorlar uchun qisob siyosati ўz mablaғlarini ushbu korxonaga қўyish yoki қўymaslik bўyicha қaror қabul қilishda asos bўlib qisoblanadi.

Qisob siyosati rasmiy qujjat sifatida ma`lum shakl va tarkibga ega bўlishi kerak. BXMS № 1 ning 96-punktiga muvofiқ qisob siyosatida қўyidagi tarkibiy elementlar ўz aksini albatta topishi lozim:

- Korxona aktivlarini baqolash turlari va usullari;
- Amortizatsiyani qisoblash usullari;
- Rezervlarni tashkil қilish;
- Tovar-moddiy boyliklarni baqolash va qisobga olish usullari;
- Tadқiқot va rivojlanishga sarflangan xarajatlarni tan olish va qisobga olish;
- Tannarxni kalkulyatsiya қilishning usullari;
- Moliyaviy qisobotni konsolidatsiya қilish tartibi;
- Pul oқimlari tўғrisida qisobotni tuzish usullari;
- Buxgalteriya qisobining ishchi schetlar rejasi.

Qisob siyosatida yuқorida keltirilgan ma`lumotlar aloqida boblar, paragraflar kўrinishida ifodalangan bўlishi lozim. Korxonaning moliyaviy qisobotini tuzishda muqim aqamiyat kasb etadigan boshқa qollar va tartiblar qam qisob siyosatida aks ettirilishi mumkin.

Korxonada ishlab chiқilgan va tasdiқlangan qisob siyosatiga tўliқ amal қilinishi lozim. Buning uchun korxonada tegishli shart-sharoitlar yaratilgan bўlishi kerak. Jumladan, xodimlar ўrtasida bajariladigan ishlar aniқ taқsimlangan bўlishi kerak. Bunday taқsimotni bosh qisobchi amalga oshiradi. U qar bir qisobchiga yuritiladigan buxgalteriya qisobi schetlarini, qisob registrlarini ochish, yuritish, yopish tartiblari va muddatlarini belgilab beradi.

Bosh qisobchi korxonaning buxgalteriyasi, uning bўlimlari tўғrisida Nizomni ishlab chiқishi, uni raqbariyat tomonidan tasdiқlanishini ta`minlashi kerak. Nizomda qar bir bўlim xodimining lavozimiga қarab bajaradigan ishlari va majburiyatlari aniқ belgilangan bўlishi lozim.

Qisob siyosatiga amal қilishning muqim shartlaridan biri bўlib korxonada qujjatlar aylanishining aniқ grafigini ishlab chiқilganligi va tasdiқlanganligi qisoblanadi. Bunday grafiklarni jadval yoki tarmoқli grafik kўrinishida ifodalash mumkin.

Qisob siyosatiga amal қilishning yana bir muqim shartlaridan biri bўlib qisob xodimlari faoliyatiga baqo berish yoki reyting tizimini mavjudligi qisoblanadi. Ishga baqo berish yoki reyting tizimiga amal қilish qisobchilarni rағbatlantirish (yutuқlar uchun), yoki ularga nisbatan jazo choralarini kўrish (xato-kamchiliklar uchun) orқali amalga oshirilishi lozim. Qisobchilar ishiga baqo berish reyting tizimini mavjudligi va uni doimiy tarzda qisobchilar ўrtasida e`lon қilib borish buxgalteriya ishini doimiy yaxshilanib borishiga katta ta`sir kўrsatish vositasi qisoblanadi.

Qisob siyosatiga amal қilishning muqim shartlariga yana doimiy qarakatdagi ilmiy–amaliy seminarlarni uyushtirishni, qisobchilarning malakasini doimiy tarzda oshirib borishni va boshқalarni kiritish mumkin.

## 2..Korxonalarda buxgalteriya qisobini tashkil қilish shakllari va tamoyillari

Buxgalteriya qisobi tўғrisida Қonunga muvofiқ (7-modda) korxonada buxgalteriya qisobi va qisobotini tashkil etish ma`suliyati bevosita uning raqbariga yuklatiladi.

Korxona raqbari, jumladan, қўyidagilarni ta`minlashi lozim:

- Qisob va qisobotning ichki tizimini ishlab chiқish;
- Xўjalik operatsiyalarini nazorat қilish tartibini belgilash;
- Buxgalteriya qisobini tўliқ va aniқ bўlishligi;
- Qisob qujjatlarini butligi;
- Moliyaviy qisobotni tashқi foydalanuvchilar uchun tayerlash;
- Qisob-kitoblarni ўz vaқtida amalga oshishi va taқdim etilishi;
- Imzo chekish quқuқiga ega shaxslarni belgilash;
- Korxona aktivlarini inventarizatsiya қilish muddatlarini va komissiyalarini belgilash, ularni ўz vaқtida amalga oshishini nazorat қilish.

Қonunning 7-moddasiga muvofiқ korxonada buxgalteriya qisobini tashkil қilish қўyidagi tўrtta shakllardan birida amalga oshishi mumkin.

1. *Bosh buxgalter raqbarligidagi maxsus buxgalteriyani tashkil etish.*

*2. SHartnoma asosida jalb etilgan buxgalterni xizmatidan foydalanish.*

*3. SHartnoma asosida buxgalteriya qisobini yuritish vakolatini maxsus buxgalterlik (auditorlik) firmasiga yoki ўz birlashmasining markaziy buxgalteriyasiga berish.*

*4. Buxgalteriya qisobini raqbarning ўzi tomonidan mustaқil olib borish.*

Buxgalteriya qisobini tashkil қilishning birinchi shakli xodimlar soni kўp bўlgan, ish qajmi katta bўlgan korxonalarda (zavod, fabrika, kompaniya, shirkat xўjaligi, jamoa xўjaligi va boshқalar) қўllaniladi. Bu shaklda buxgalteriya qisobini korxonaning maxsus bўlinmasi, ya`ni buxgalteriya olib boradi.

**Buxgalteriya** – bu korxonaning qisob-kitoblarni yurituvchi bўlimi.

Buxgalteriya ўz ishini, odatda, raqbariyat tomonidan tasdiқlangan “Korxona buxgalteriyasi tўғrisida Nizom”ga muvofiқ yuritadi. Ushbu nizomda buxgalteriyaning maқsadi, vazifalari, tarkibiy tuzilishi, qar bir tuzilmaning va uning lavozimli xodimlarining quқuқ va funktsional majburiyatlari, javobgarliklari kўrsatiladi.

Buxgalteriya ishiga raqbarlikni bosh buxgalter olib boradi.

**Bosh buxgalter** – korxona raqbari tomonidan qisob xizmatiga raqbarlikga tayinlangan shaxs.

Bosh buxgalterning quқuқlari, majburiyatlari, javobgarligi Nizomda aloqida aks ettiriladi. Bosh buxgalter korxona raqbaridan keyin qujjatlarga imzo chekish quқuқiga ega bўlgan ikkinchi shaxs qisoblanadi. U raqbar bilan birga davlat қonunlari oldida javob beradi, xato va kamchiliklar uchun ma`muriy, moliyaviy va jinoiy javobgarlikga tortiladi. Buxgalteriyaning tarkibiy tuzilishi, buxgalteriya xodimlarining ierarxik bўysinishi 7-chizmada keltirilgan tartibda amalga oshiriladi.

Buxgalteriya qisobini tashkil қilishning ikkinchi shakli kichik biznes korxonalariga (firmalar, xususiy korxonalar va boshқalar) taalluқli. Bu turdagi korxonalarda xodimlar soni kam, ish qajmi katta bўlmaganligi uchun maxsus buxgalteriya tashkil etilmaydi, lekinda buxgalteriya qisobini yuritish uchun aloxida shaxs (buxgalter) bilan meqnat shartnomasi tuziladi. Ushbu shartnomaga muvofiқ buxgalter ishga asosiy xodim sifatida yoki ўrindosh sifatida buyruk asosida қabul қilinishi mumkin. Ushbu shaklda buxgalteriya qisobini yuritish yuklatilgan buxgalter bosh buxgalterning quқuқlari, majburiyatlari va javobgarliklariga ega bўladi.






*7-chizma.* Korxona buxgalteriyasining taxminiy tarkibiy tuzilishi.

Buxgalteriya qisobini tashkil kilishning uchinchi shakli kichik va ўrta biznes korxonalariga taalluқli bўlib, ular ўzlarida qisob xizmati bўlimini tuzmaydilar, buxgalteriya qisobini yuritish vakolati shartnoma asosida maxsus ixtisoslashgan buxgalterlik (auditorlik) firmalariga yoki korxonaning birlashmasi қoshidagi markaziy buxgalteriyasiga berilgan bўladi. Ushbu shaklda buxgalteriya qisobi ma`lumotlaring realligiga shartnoma asosida qar ikkala tomon belgilab қўyilgan tartiblarga asosan javob beradilar.

Buxgalteriya qisobini tashkil қilishning tўrtinchi shakli xususiy tadbirkorlarga taalluқli bўlib, ular қonun bўyicha qisob-kitoblarini ўzlari mustaқil olib boradilar. Bu turdagi xo`jalik yurituvchilarda raqbar va bosh buxgalter sifatida qujjatlarga xususiy tadbirkorning ўzi imzo chekadi. Qisob va qisobotning realligi uchun Қonun oldida yakka tadbirkorning ўzi javob beradi.

Jaqonning turli mamlakatlarida, shu jumladan Ўzbekiston Respublikasida, buxgalteriya qisobini davlat tomonidan reglamentlashtirilishining muqim belgilaridan biri bo`lib uni belgilangan tamoyillarga asoslanib yuritilishi qisoblanadi.

**Buxgalteriya qisobi tamoyillari d**eganda uni yuritishda amal қilish lozim bўlgan қoida va tartiblar majmuasi tushuniladi.

Buxgalteriya qisobini yuritishning tamoyillari mamlakatimizda Ўzbekiston Respublikasining «Buxgalteriya qisobi tўғrisida Қonuni»ning 6- moddasi bilan belgilangan, shuningdek 1-son BXMS «Qisob siyosati va moliyaviy qisobot» ning 16-49 punktlarida ushbu tamoyillarning moqiyati ochib berilgan. Bu tamoyillarning asosiylari қўyidagilar.

**Uzliksizlik tamoyili.** Bu tamoyil korxonani doimo qarakatdagi sub`ekt, ya`ni ўz faoliyatini kelgusida davom ettiruvchi va rivojlantiruvchi sub`ekt sifatida қaraydi. Buxgalteriya qisobini uzliksiz yuritilishi korxonaning kelajagi borligidan darak beradi. Bundan tashқari buxgalteriya qisobi korxonaning kelajakda ravnaқ topishiga xizmat қiluvchi vosita qamdir.

**Qisoblash tamoyili.** Bu tamoyil korxonaning daromad va xarajatlarini yuz bergan vaқtiga kўra tan olish va shu vaқtdan boshlab ularni buxgalteriya qisobida va qisobotda aks ettirishni bildiradi. Solиқ Kodeksiga muvofiқ 1998 yil 1 yanvardan boshlab barcha korxonalar uchun ularning mulk shaklidan қat'iy nazar sotish momenti қilib maqsulot (ish, xizmat) ni jўnatish (bajarish) sanasi, ular uchun tўlov pulini қachon kelib tushishidan қat'iy nazar, қabul қilindi.

**Ikki yoқlama yozuv tamoyili.** Bu tamoyil korxonada yuz bergan qar қanday operatsiyaning summasini bir vaқtning ўzida ikkita schetda, ya`ni birining debetida va ikkinchisining kreditida aks ettirishni bildiradi. Ushbu tamoyilga amal қilish korxonaning aktivlari va ularning tashkil topish manbalari summalarini doimo teng bўlishini ta`minlaydi.

**Қiymat tamoyili.** Bu tamoyil korxona aktivlari va passivlarini tannarx yoki bozor baqolarida (ulardan қaysi biri past bўlsa, ўshanda) qisobga olishni bildiradi.

**Pulda ifodalash tamoyili.** Bu tamoyil barcha aktiv va passivlarni, yuz bergan operatsiyalarni milliy valyutada, ya`ni sum va tiyinlarda aks ettirishni bildiradi.

**Eqtiyotkorlik yoki konservatizm tamoyili.** Bu tamoyil korxona qisobotida aktivlar va daromadlarni kam (ko`p) қilib kўrsatmaslikni, shu bilan birga majburiyatlarni yoki xarajatlarni ko`p (kam) қilib kўrsatmaslikni ifodalaydi. Ushbu tamoyilni қўllash yashirilgan rezervlarni vujudga keltirish, biron maқsadda aktiv yoki foydani kamaytirib (ko`paytirib) ko`rsatish, xarajat va majburiyatlarni ko`paytirib (kamaytirib) ko`rsatish quқuқini bermaydi.

**Qisobot davri raromad va xarajatlarining mosligi tamoyili**. Bu tamoyil qisobot davri xarajatlariga shu davrda real daromad keltirgan қismini kiritishni bildiradi.

**Mazmunni shakldan ustunlik tamoyili.** Bu tamoyil korxona aktivlarini quқuқiy maқomi bўyicha emas, balkim ularning iқtisodiy mazmuni, egalik қilish quқuқini berilish vaқtiga kўra qisobga olish va balansga kiritishni ifodalaydi. Masalan, tovar–moddiy boyliklar korxonaga kelib tushgan sanadan boshlab, ular uchun haқ tўlangan yoki tўlanmagan bўlishidan қat`iy nazar, korxona aktivlari tarkibiga kiritiladi va balansga olinadi. Uzoқ muddali ijaraga olingan asosiy vositalar qam ularning qaқi tўlanishi muddatidan қat`iy nazar korxona balansiga olingan kundan boshlab kiritiladi.

**Neytrallik tamoyili.** Bu tamoyil moliviy qisobotni bironta shaxs manfaatlari uchun boshқa bironta shaxs zararlari evaziga moslashtirmaslikni bildiradi.

**Aniқlilik tamoyili.** Bu tamoyil qisobda aks ettirilgan qar bir summani қat`iy qujjatli asosga ega bўlishligini bildiradi.

**Aqamiyatlilik tamoyili.** Bu tamoyil qisobda shakllangan ma`lumotlarni foydalanuvchilarning axborotga bo`lgan eqtiyojlarini қondirishda aqamiyatliligini bildiradi.

**Muqimlilik tamoyili**. Bu tamoyil qisob va qisobot ma`lumotlarini foydalanuvchilarning taқdim etilgan axborot asosida қabul қilgan қarorlariga ta`sirini bildiradi.

**Tushunarlilik tamoyili.** Bu tamoyil qisob ma`lumotlarini barcha foydalanuvchilar uchun tushunarliligini bildiradi.

**YAkunlanganlik tamoyili.** Bu tamoyil qisob ma`lumotlarini biron bir qisobot davri uchun jamlanganligini, ya`ni moliyaviy qisobot qisobot davri ma`lumotlarini tўliқ қamrab olganligini bildiradi.

**Taққoslamalik tamoyili.** Bu tamoyil qisobot ma`lumotlarini ўzaro mos qisobot davrlari bўyicha (choraklar, yil) mavjud real tendentsiyalarni aniқlash uchun ўzaro taққoslash imkoniyatlarini bildiradi. Bunday taққoslashlar uchun ўtgan yillar ma`lumotlari taққoslama baqolarda қayta qisoblanishi lozim.

**Tejamkorlik tamoyili.** Bu tamoyil qisob va qisobotni kam meqnat va moliyaviy mablaғlar sarflab olib borishni bildiradi.

**Tezkorlik tamoyili.** Bu tamoyil qisob va qisobot ma`lumotlarini boshқaruv organlariga kerakli vaқtda va qajmda berishni bildiradi. Kechiktirib berilgan ma`lumotlar qisobning boshқaruv vositasi sifatidagi rolini pasaytiradi. Aksincha, ўz vaқtida berilgan ma`lumotlar qisobni boshқaruv vositasi sifatida rolini, uning ta`sirchanlik kuchini oshiradi.

## 3.Buxgalteriya qisobining shakllari va ular bo`yicha ma`lumotlarni jamlash tartibi

Korxonada qisob ma`lumotlarini yiғish, қayd etish va jamlash qisob siyosatida aks ettirilgan shakl va registrlar yordamida amalga oshiriladi.

**Qisob shakli –** bu buxgalteriya qisobi ma`lumotlarini қayd etish, guruqlash va yiғishda қo`llaniladigan registrlarning tizimli majmuasi. Buxgalteriya qisobi amaliyotida uning **jurnal –order, memorial-order, kitob-jurnal, bosh jurnal, komp'yuterlashtirilgan, ixchamlashtirilgan shakllari** mavjud va ular qalқ xo`jaligining turli tarmoқ va soqalarida қo`llanilib kelinmoқda.

**Qisob registrlari** – bu buxgalteriya qisobi ma`lumotlarini қayd etish, guruqlash va jamlashda ishlatiladigan axborot tashuvchilar. Amaliyotda buxgalteriya qisobi ma`lumotlarini қayd etish, guruqlash va jamlashda қo`llanilayotgan axborot tashuvchilarni nomi, shakli, maқsadi, yuritilish tartibi va boshқa jiqatlariga қarab қuyidagi turlarga ajratish mumkin:

***1.Kitoblar*** –bular xo`jalik operatsiyalarini қayd etish uchun mo`ljallangan qisob varaқalarini o`z ichiga olgan, muқovalangan va tikilgan qisob registrlari. Ularga misol etib Kassa kitobini, Bosh kitobni, ish qaқj qaқj kitobini, asosiy vositalar qisobi kitobini, kelib tushgan yuklarni қayd etish kitobini va boshқalarni keltirish mumkin. Ushbu qisob registrlarining afsalligi shundaki, ular u yoki bu ma`lumotlarni bir necha qisobot davri uchun o`zida mujassamlashtiradi, bu ma`lumotlarni yo`қolib ketmasligiga, yaxshi saқlanishiga imkon beradi. SHu bilan birga ular faқat қo`lda yuritishga mo`ljallangan, zamonaviy komp'yuterlarning imkonlaridan bu kitoblarni aynan shu ko`rinishida uchun foydalanib bo`lmaydi.

Buxgalteriya qisobida қo`llaniladigan kitoblar ichida muqim rolni Bosh kitob o`ynaydi. Ushbu kitob qisobot yilining boshida ochiladi, unda qar bir schetga aloqida varaқ ajratiladi. Kitobga yozuvlar oyma-oy ularga ajratilgan қatorlarda ko`rsatiladi. Bosh kitobda schetlarning debet tomoni yozuvlari barcha korrespondentsiyalanadigan kredit schetlar bo`yicha aks ettiriladi, kredit tomoni yozuvlari jamlangan qolda ko`rsatiladi.

***2.Jurnal-orderlar*** – bu ma`lumotlarni schetlarning krediti bo`yicha guruqlangan qolda қayd etishga mo`ljallangan registrlar. Aynan jurnal-orderlar Bosh kitobning kreditida jamlangan qolda ko`rsatilgan ma`lumotlarni barcha korrespondentsiyalanadigan debet schetlar bo`yicha aks ettiradi, ya`ni jurnal-orderlar Bosh kitobning to`ldiruvchisi, davomi qisoblanadi. Ўzbekiston Respublikasida buxgalteriya qisobi schetlari bo`yicha turli jurnal –orderlarni yuritish ko`zda tutilgan, masalan 50 «Kassa» schyoti bo`yicha №1, 51 «Qisob-kitob scheti» bo`yicha № 2, 60 «Ta`minotchilar va pudratchilar bilan qisob-kitoblar» scheti bo`yicha № 6, shuningdek boshқa schetlar bo`yicha boshқa jurnal-orderlar yuritiladi. Jurnal-orderlar buxgalteriya qisobini jurnal-order shaklining asosini tashkil etadi.

***3.Қaydnomalar*** –bu schetlarning debeti bo`yicha analitik qisobni olib borishga mo`ljallangan registrlar. Қaydnomalar qam turli schyotlar bo`yicha qar xil shakl va mazmunda yuritiladi.

***4.Memorial-orderlar -*** bu ma`lumotlarni bir vaқtning o`zida schetlarning qam debeti, qam krediti bo`yicha guruqlangan qolda қayd etishga mo`ljallangan registrlar. Ushbu registrlar buxgalteriya qisobini memorial-order shaklining asosini tashkil etadi.

***5.Kartochkalar -*** bular xo`jalik operatsiyalarini қayd etish uchun mo`ljallangan va aloqida qisob varaқalari sifatida қalin қoғozga yoki karton қoғozga tipografik usulda ma`lum shaklda tayyorlangan registrlar. Ularga misol etib ombor qisobi kartochkasini, xodimning shaxsiy scheti kartochkasini, avtomobillar ishi qisobi kartochkasini va boshқalarni keltirish mumkin.

***6.Mashinogrammalar -*** bular zamonaviy komp'yuterlarda tegishli algoritmlar va dasturlar asosida shakllangan analitik va sintetik qisob, shuningdek moliyaviy qisobot

registrlari. Mashinogrammalar buxgalteriya qisobining komp'yuterlashtirilgan shaklini asosini tashkil etadi.




***8-chizma.*** **Jurnal-order shaklda qisob ma`lumotlarini jamlash tartibi**



*9-chizma.*Memorial-order shaklda qisob ma`lumotlarini jamlash tartibi




*10-chizma.* Ixchamlashtirilgan shaklda qisob ma`lumotlarini jamlash tartibi



*11. chizma.* **Komp'yuterlashtirilgan shaklda qisob ma`lumotlarini jamlash tartibi**

Turli qisob registrlariga asoslangan buxgalteriya qisobining turli shaklida ma`lumotlarni yiғish, қayd etish, guruqlash va jamlash o`ziga xos xususiyatlarga ega (8,9,10,11- chizmalarga қarang). SHuning bilan birga barcha qisob shakllarida ma`lumotlarni yiғish, қayd etish va jamlash қuyidagi umumiy ketma ketlikda amalga oshiriladi :

*1.Barcha yuz bergan va tegishli xujjatlar bilan rasmiylashtirilgan xo`jalik operatsiyalari schetlarga ochilgan analitik va sintetik qisob registrlarida (qisobotlar, қaydnomalar, jurnal-orderlar, memorial -orderlar) xronoligik tarzda қayd etiladi. Ko`p martalab yuz beradigan operatsiyalar dastlab jamlovchi қaydnomalarga o`tқaziladi, ularning jamlangan ma`lumotlari esa oy oxirida jurnal-orderlarga (memorial-orderlarga, analitik qisob mashinogrammalariga ) o`tқaziladi.*

*2.Jurnal-orderlar, memorial-orderlar, analitik qisob mashinogrammalari, қaydnomalarning yiғma ma`lumotlari Bosh kitobga o`tқaziladi.*

*3.Bosh kitob ma`lumotlari asosida buxgalteriya balansi va moliyaviy qisobotning boshқa shakllari tuziladi.*

Kichik tadbirkorlik sub`ektlariga buxgalteriya qisobini yuritishda soddalashtirilgan shaklni қo`llash ruxsat etilgan. Ўzbekiston Respublikasida ushbu qisob shaklining registrlari, ularni tuzish tartibi 20-son BXMS bilan belgilangan. Boshқa turdagi korxonalar buxgalteriya qisobini o`zlarining qisob siyosatlarida ko`rsatilgan shaklda olib boradilar.

## Ўz - o`zini sinash uchun testlar

1.**Buxgalteriya qisobi tamoyillarini kim belgilaydi?**

a) Raqbar

b) Davlat

v) Kuzatish kengashi

g) Ta`sischilar

**2.Qisoblash tamoyili–bu**

a) Daromad va xarajatlarni pul tўlash vaқtidan boshlab qisobga olish

b) Daromad va xarajatlarni yuz bergan vaқtidan boshlab qisobga olish

v) Daromad va xarajatlarni rejaga asosan qisobga olish

g) Daromad va xarajatlarni raqbar qoqishiga қarab qisobga olish

**3.Buxgalter tuzgan balansda aktiv va passiv summalari teng kelmasa, қaysi tamoyil buzilgan qisoblanadi?**

a) Ikki yoқlama ezuv tamoyili

b) Qisoblash tamoyili

v) Taққoslamalik tamoyili

g) Daromad va xarajatlarning moslik tamoyili

**4.Buxgalteriya xisobotni belgilangan muddatdan 10 kun kechikib topshirdi, қaysi tamoyilni u buzgan qisoblanadi ?**

a) Davriylik

b) Taққoslamalik

v) Mazmunni shakldan ustunligi

g) Ўz vaқtidalik

**5. Buxgalter kelgusi davr uchun ijara qaқini qisobot davr xarajatlariga olib bordi. Қaysi tamoyilni u buzgan qisoblanadi ?**

a) Davriylik

b) Taққoslamalik

v) Mazmunni shakldan ustunligi

g) Daromad va xarajatlarning mosligi

**6. Buxgalter kelib tushgan oldindan to`lov summasini sotish xajmiga oldi. Қaysi tamoyilni u buzdi.**

a) Davriylik

b) Qisoblash

v) Mazmunni shakldan ustunligi

g) Daromad va xarajatlarning mosligi

**7. Auditorga buxgalter soliқ qisob-kitoblarining birlamchi variantini tekshirishga berdi, tuzatilgan soliқ qisob-kitobi borligini auditor qisob registrlari yozuvlarini taққoslashda topib oldi. Қaysi tamoyilni buxgalter buzdi.**

a) Tejamkorlik

b) Qisoblash

v) Aniқlililik

g) Muqimlilik

**8.Qisob siyosati-bu**

a) Davlatning kўrsatmalari
b) Korxona raxbari tomonidan qisobni yuritish bўyicha tanlagan tartib-қoidalar majmuasi
v) Bosh buxgalter tomonidan qisobni yuritish bўyicha tanlagan tartib-қoidalar majmuasi
g) YUқori tashkilot tomonidan qisobni yuritish bўyicha tanlagan tartib-қoidalar majmuasi

**9.Qisob siyosatini ishlab chiқishga asos bўluvchi me`yoriy qujjatlar**

a) Korxona raqbari buyruқlari
b) Қonunlar, standartlar, yo`riқnomalar
v) Kuzatish kengashi қarori
g) YUқori tashkilot kўrsatmasi

**10.Kўyidagilarning қaysi biriga qisob siyosati majburiy tarzda beriladi?**

a) Prokuraturaga
b) Auditorlik firmasiga
v) Soliқ idorasiga
g) Aktsionerlarga

**11.Qisob siyosatiga ўzgartirish kiritiladi, agarda**

a) Qisobni yuritish usullari ўzgargan bўlsa
b) Kassir almashgan bўlsa
v) Ўғirlik sodir etilgan bўlsa
g) Soliқ qisob-kitobida yashirish aniқlanganda

**12.Korxonada buxgalteriya xisobini yuritish shaklini kim belgilaydi ?**

a) Moliya Vazirligi
b) Solik idorasi
v) YUkori tashkilot
g) Korxona raxbari

**13.Xususiy tadbirkor buxgalteriya xisobini tashkil etadi**

a) Buxgalter olish yo`li bilan
b) Auditorlik firmasi bilan shartnoma asosida
v) Mustaқil o`zi
g) Maxsus buxgalteriya bo`limini tuzish yo`li bilan

**14.Auditorlik firmasi korxonaning buxgalteriya xisobini yuritish vakolotini shartnoma asosida olgan. Bunda qisob ma`lumotlarining norealligiga javob beradi:**

a) Auditor
b) Auditorlik firmasi direktori
v) Korxona raxbari
g) Ta`sischilar

**15. .Bosh buxgalter buysinadi**

a) Korxona raxbariga
b) Ta`sischilarga
v) Aktsionerlarga
g) YUkori tashkilotga

**16.Kichik biznes korxonalarida buxgalteriya xisobini yuritish uchun**

a) Buxgalteriya tashkil etiladi
b) Xisob bo`limi ochiladi
v) Buxgalter shartnomaga asosan ishga olinadi
g) Qech qam buxgalter shart bo`lmaydi

**17.Buxgalteriya qisobida qisob shakli registrlarni belgilaydimi yoki registrlar qisob shaklini belgilaydimi?**

a) Registrlar qisob shaklini belgilaydi
b) Qisob shakli registrlarni belgilaydi
v) Bir –birini belgilamaydi
g) To`ғri javob yo`қ.

**Mavzuini o`rganish uchun tavsiya etiladigan me`yoriy xujjatlar va davriy adabiyotlar**


1. *Ўzbekiston Respublikasining buxgalteriya qisobi тўғrisida қonuni. 1996 yil 30 avgustda қabul қilingan.*
2. *Moliyaviy qisobotni tayyorlash va taқdim etish uchun Kontseptual asos. Ўz.R. Adliya Vazirligidan 1998 yil 14 avgustda ro`yxatdan o`tgan, № 475.*
3. *BQMS № 1 «Qisob siyosati va moliyaviy qisobot. Ўz.R. Adliya Vazirligidan 1998 yil 14 avgustda ro`yxatdan o`tgan, № 474.*
4. *BQMS № 20 «Kichik tadbirkorlik sub`ektlarida qisobni ixchamlashtirilgan tarzda yuritish va moliyaviy qisobotni tuzish tartibi to`ғrisida». Ўz.R. Adliya Vazirligidan 2000 yil 24 yanvarda ro`yxatdan o`tgan, № 879.*
5. *Abdullaev A. Қayumov I. Buxgalteriya qisobi. T, «Minqoj» nashriyoti, 2002.*
6. *Umarova M., eshboev Ў., Axmadjonov Қ. Buxgalteriya qisobi, T., Meqnat, 1999*
7. *Fulomova F.F. Buxgalteriya qisobi bo`yicha mustaқil o`rganish uchun қo`llanma.T., Iқtisodiyot va quқuқ dunyosi» nashriyot uyi, 2000.*


**Ma`ruza 5. ASOSIY VOSITALARNING QISOBI**

**(2 soat)**

## Ma`ruza rejasi

*1.Asosiy vositalarning moqiyati, tasnifi, baqolanishi va ular qisobining vazifalari*
*2.Asosiy vositalar qarakatining qisobi*
*3.Asosiy vositalarni eskirishi va ta`mirlanishining qisobi*
*4.Asosiy vositalar bo`yicha lizing (ijarar) operatsiyalarining qisobi*
*5.Asosiy vositalarni inventarizatsiya қilish va uni natijalarining qisobi*

## 1. Asosiy vositalarning moqiyati, tasnifi, baqolanishi va ular qisobining vazifalari

**Asosiy vositalar -** *bu korxonalar tomonidan xўjalik faoliyatini yuritishda uzoқ muddat davomida maqsulotlarni ishlab chiқarish, ishlarni bajarish yoki xizmatlarni kўrsatish, shuningdek ma`muriy va ijtimoiy –madaniy funktsiyalarni bajarish uchun ishlatiladigan moddiy aktivlar (*BQMS № 5, 3a-band).

BQMS № 5 ga muvofik (6-band) moddiy aktivlarni asosiy vositalar sifatida tan olish uchun ular yuқoridagi ta`rifda keltirilgan mezonlardan tashқari yana қўyidagi shartlarga qam javob berishi lozim:

- Xizmat muddati davrida korxonaga daromad keltirish kafilligini mavjudligi.
- Қiymatini aniқ belgilashni mumkinligi.

Moddiy aktivlarni asosiy vositalar tarkibiga kiritishda ularni foydali xizmat muddatini belgilash muqim rol ўynaydi.

**Foydali xizmat muddati** - deganda asosiy vositaning korxona tomonidan belgilangan foydalanish muddati tushuniladi. Bu muddat yillarda yoki oylarda ifodalanib, uning foydaliligi ishlab chiқilgan maqsulot (bajarilgan ish, xizmat) qajmi bilan ўlchanadi. Foydali xizmat muddati davomida asosiy vositalar ўzlarining қiymatini tўliқ қoplashlari va korxonaga қўshimcha daromad keltirishlari lozim. Foydali xizmat muddati, odatda, asosiy vositaning texnik qujjatlarida kўrsatilgan bўladi. Bunday qujjatlar mavjud bўlmaganda asosiy vositalarning foydali xizmat muddati қabul қilish komissiyasi tomonidan yoki korxona raqbari buyruғi bilan tasdiқlangan qisob siyosatida aniқ belgilanishi kerak.

Asosiy vositalar korxonalarning moddiy texnika bazasini tashkil etuvchi meqnat қurollari va vositalarini o`z ichiga oladi. Ularga қuyidagilar kiradi:

**1.Binolar** – tsex, ombor, laboratoriya, idora, garaj, o`t o`chirish deposi va shu kabi meqnat sharoitini yaratib beruvchi, tovar-moddiy boyliklar butligini ta`minlovchi ob`ektlar. Binolar tarkibiga ularni normal ekspluatatsiya қilish uchun zarur bo`lgan barcha kommunikatsiyalar, ya`ni isitish, ventilyatsiya, suv va gaz ta`minoti, lift, yonғinga қarshi va signalizatsiya қurilmalari, telefon aloқasi simlari tizimlari qam kiritiladi.

**2.Inshoatlar** – ochiқ ayvonlar, devorlar, suv minoralari, temir yo`l shaqobchalari, nasos stantsiyalar, kanallar, suv qavzalari, asfal'tlangan yo`llar va yo`lkalar.

**3.Uzatish қurilmalari** – elektr liniyalar, gaz, suv, buғ o`tқazuvchi қuvurlar va boshқalar.

**4.Mashina va uskunalar** – issiқlik va elektr energiyasini ishlab chiқaruvchi generatorlar, dvigatel va transformatorlar, stanoklar, issiқlik pechlari, tikuv, yiғuv, dazmollash, saralash mashinalari, kranlar, kompressorlar, o`lchov tarozilari.

**5.Qisoblash texnikasi** – komp'yuterlar va ularga o`rnatiladigan periferiya қurilmalari ( printer, skaner , modem va boshқalar ).

**6.Transport vositalari** – yuk va odam tashuvchi avtomashinalar, vagonlar, parovozlar, teplovozlar, paroxodlar, tramvaylar, trolleybuslar, avtobuslar, pritseplar, samolet va vertoletlar, shuningdek magistral truboprovodlar.

**7.Uskunalar** – presslovchi, қisuvchi va boshka texnologik funktsiyalarni bajaruvchi asbob- uskunalar.

**8.Ishlab chiқarish va xo`jalik inventarlari**- ish stollari, dastgoqlar, baklar, sandiқlar va boshқalar.

**9.Ofis mebeli va jiqozlari** – shkaflar, stol va stullar komplekti, doskalar, seyflar, yozuv mashinkalari, faks, nusxa ko`chirish apparatlari, uyali aloқa vositalari va boshқalar

**10.Ishchi va nasldor qayvonlar** – otlar, tuyalar, qo`kizlar, sigirlar, bo`қalar, қo`ylar, echkilar, cho`chқalar va boshқa ishchi sifatida ishlatiladigan va nasl beradigan qayvonlar.

**11.Ko`p yillik o`simliklar** – boғlar, o`rmonlar va boshқalar

**12.Kutubxona fondi** – badiiy-adabiy, texnik , iқtisodiy va boshқa turdagi adabiyotlar ( kitoblar).

**13.Erni va boshқa asosiy vositalarni obodonlashtirishga sarflangan mablaғlar** – er uchastkalarini kadastrini tuzish, shudgorlash, erni yuvish, ko`kalamzorlashtirish, reshyotkalar o`rnatish, suv qavza va omborlarini tozalash va boshka ishlarga sarflangan kapital қuyilmalar

**14.Boshқalar** - yuқoridagi guruxlarga kirmay қolgan asosiy vositalar – muzey va zoopark eksponatlari, lizingga olingan asosiy vositalarga қilingan kapital sarflar, turli namunalar va boshқalar.

Қabul қilingan tartibga muvofiқ ayrim meqnat қurollari va vositalari asosiy vositalarga kiritilmaydi, jumladan :

- Xizmat muddati 1 yildan kam bo`lgan meqnat қurollari va vositalari ularning қiymatidan қat`iy nazar;
- YOsh mollar, asalari uyalari, tajribadagi mollar;
- Maqsus kiyimlar, poyafzal, ko`rpa– yostiқlar қiymatidan қat`iy nazar

( meqmonxonalar bundan mustasno );

- Munshiyxona buyumlari (kal'kulyatorlar, stol usti priborlari va boshқalar)
- Ko`chatxonalarda ekish uchun o`stirilayotgan ko`chatlar;
- Baliқ ovlash қurollari xizmat muddati va қiymatidan қat`iy nazar.

**Asosiy vositalarni tasniflash.** Korxona va tashkilotlarning asosiy vositalarini turli belgilari bўyicha tasniflash mumkin

*Ishlab chiқarishda қatnashishiga kўra* korxonalarning asosiy vositalari ishlab chiқarish va noishlab chiқarish soqasidagi asosiy vositalarga bўlinadi.

Ishlab chiқarish soqasidagi asosiy vositalarga bevosita ishlab chiқarishga doir bўlgan moddiy aktivlar, masalan tsexlarning binolari, inshootlar, stanoklar, jiqozlar, transport vositalari, ishchi qayvonlar va boshқalar kiradi.

Noishlab chiқarish soqasidagi asosiy vositalarga boshқaruv apparatiga doir, shuningdek korxonaning ijtimoiy-madaniy, maishiy, soғliқni saқlash, kommunal maқsadlarda foydalaniladigan moddiy aktivlari kiradi.

*Amortizatsiya қilinishiga қarab* korxonalarning asosiy vositalari amartizatsiya qisoblanadigan va amartizatsiya qisoblanmaydigan turlarga bўlinadi.

Қўyidagi asosiy vositalarga amortizatsiya qisoblanmaydi:

- Kutubxona fondiga.
- Kўp yillik ўsimliklarga.
- Ishchi va nasldor qayvonlarga.
- Konservatsiya қilingan asosiy vositalarga.

Қolgan asosiy vositalarga amortizatsiya qisoblanadi. Soliқ Kodeksiga muvofiқ (23-modda) asosiy vositalar amortizatsiya me`yorlari bўyicha қўyidagi beshta guruqga bўlinadi.

**Ўzbekiston Respublikasida asosiy fondlar bўyicha amortizatsiya me`yorlari**

| № | Asosiy vositalarning turlari | Amortizatsiya |
|---|---|---|

| | | me`yori, % |
|---|---|---|
| 1. | Engil avtomobillar, taksi, yўlda ishlatish uchun avtotraktor texnikasi, maxsus instrumentlar, inventarlar. Komp'yuterlar, periferiya қurilmalari va ma`lumotlarni ishlovi bўyicha jiqozlar. | 20 |
| 2. | YUk tashish avtomobillari, avtobuslar, maxsus avtomobil va pritseplar. Sanoatning barcha tarmoқlari uchun mashina va jiqozlar, қurilish jiqozlari, қishloқ xўjaligi texnika va jiqozlari. Ofis uchun mebel. | 15 |
| 3. | Temir yўl, dengiz, daryo va qavo transport vositalari. Issiқlik texnikasi jiqozlari, truba jiqozlar, elektrodvigatellar va dizel'-generatorlar. elektr қuvvati va aloқa қurilmalari. Truboprovodlar. | 8 |
| 4. | Binolar, inshoatlar va қurilmalar. | 5 |
| 5. | YUқoridagi guruqlarga kirmaydigan amortizatsiyalanadigan aktivlar. | 10 |

**Soliқga munosabatiga kўra** asosiy vositalar mol-mulk soliғiga tortiladigan va tortilmaydigan guruqlarga bўlinadi. Soliқ Kodeksining 92-moddasiga muvofiқ қўyidagi turdagi korxona va tashkilotlarning asosiy vositalar mol-mulk soliғiga tortilmaydi.

**Mol- mulk soliғidan ozod қilingan korxona va tashkilotlar**

| № | ***Korxonalarning turlari*** |
|---|---|
| 1 | Notijorat tashkilotlar (tadbirkorlik faoliyati uchun foydalaniladigan mol-mulk bundan mustasno). |
| 2 | Qalk ta`limi va madaniyat muassasalari. |
| 3 | Uy-joy kommunal xўjaligi va boshқa umumfuқaroviy aqamiyatga molik shaqar xўjaligi. |
| 4 | Қishloқ xўjalik va chorvachilik maqsulotlari etishtiruvchi, ularning selektsiyasi va saқlashi, baliқ etishtiruvchi, ovlash va uni қayta ishlash korxonalari. |
| 5 | Ustav kapitalida chet el sarmoyasining ulushi kamida 500 ming AҚSH dollarini tashkil etadigan yuridik shaxslar. |
| 6 | Samarқand, Buxoro, Xiva, Toshkent shaxarlarida yangi tashkil etilgan turizm faoliyati bilan shuғullanuvchi yuridik shaxslar tashkil etilgan sanadan boshlab dastlabki foyda olguniga қadar, lekinda rўyxatdan ўtgan sanadan boshlab uch yildan ortiқ bўlmagan muddatga (imtiyozli davrdan keyin bir yil ўtguniga қadar |

| | |
|---|---|
| | bu korxonalar yopilsa, u qolda ular solиқ summasini butun faoliyati davri uchun tўliқ miқdorda tўlaydilar). |
| 7 | «Soғlom avlod uchun» Xalқaro qayriya jamғarmasi, Қizil YArim Oy jamiyati, «Nuroniy» jamғarmasi tasarrufidagi korxonalar (agar solиқ summasi ushbu fondlarning ustav maқsad va vazifalarini bajarishga yўnaltirilgan bўlsa). |
| 8 | YAngi tashkil etilgan yuridik shaxslar rўyxatdan ўtgan sanadan sўng 2 yil mobaynida. |

Kodeksning shu moddasiga muvofiқ қўyidagi asosiy vositalar solиқ solish bazasidan chegirib tashlanadi.

**Solиқ solish bazasidan қiymati chegirib tashlanadigan asosiy vositalar**

| № | **Asosiy vositalarning turlari** |
|---|---|
| 1 | Solиқ tўlovchining balansida turgan uy-joy-kommunal va ijtimoiy-madaniy soqa ob`ektlari. |
| 2 | Tabiatni muqofaza қilish, sanitariya-tozalash maқsadlarida va yonғinga қarshi xavfsizlik uchun foydalaniladigan ob`ektlar. |
| 3 | Қishloқ xўjalik maqsulotlarini etishtirish, saқlash va ularning selektsiyasi, balиқ etishtirish, ovlash va uni қayta ishlash uchun foydalaniladigan ob`ektlar. |
| 4 | Maqsulot ўtkazgichlar, aloқa yўllari (shu jumladan avtomobil' yўllari), aloқa va energiya uzatish liniyalarining, shuningdek ularni foydalanishga yaroқli qolda saқlab turish maқsadida қurilgan inshootlar. |
| 5 | Aloқa yўldoshlari. |
| 6 | Vazirlar Maqkamasi қaroriga asosan konservatsiya қilingan asosiy vositalar. |
| 7 | SHaxar yўlovchilar transporti (taksidan, shu jumladan yўnalishli taksidan tashkari), shaqar atrofidagi yўnalishlarda yўlovchilarni tashiydigan umumiy foydalanishdagi avtomobil' transportlari (taksi, yўnalishli taksidan tashқari). |
| 8 | Yўl xўjaligi korxonalari va tashkilotlarining yўllarni ta`mirlash va saқlash ishlarida band bўlgan transport vositalari. |
| 9 | Davlat dasturlari bўyicha Ў.R. Қurolli Kuchlari uchun kadrlar tayyorlashda foydalaniladigan transport vositalari. |

*Egalik қilish quқuқiga kўra* asosiy vositalar xususiy va joriy ijaraga olingan asosiy vositalarga bўlinadi.

**Xususiy asosiy vositalar** – bu korxona balansiga kiritilgan ўz asosiy vositalari va uzoқ muddatga ijaraga olingan (lizingga olingan) asosiy vositalar.

**Joriy ijaraga olingan asosiy vositalar** – bu ўzga korxonalardan vaқtinchalik (bir yilgacha) pul tўlash sharti bilan ijaraga foydalanib turish uchun olingan asosiy vositalar.

**Uzoқ muddatga ijaraga olingan asosiy vositalar** – bu bir yildan kўp muddatga shartnoma asosida boshқa korxonalardan ijaraga olingan asosiy vositalar.

**Asosiy vositalarni baqolash.** BQMS № 5 asosiy vositalarni baqolashda қўyidagi қiymat turlaridan foydalanishni kuzda tutadi.

***Boshlanғich қiymat*** **–** bu asosiy vositalarning qisob қiymati bўlib, ўz ichiga sotib olish baqosi, shuningdek tashib keltirish, ўrnatish, montaj, ўrgatish, safar, bojxona xarajatlarini va қўshilgan қiymat soliғini oladi. Asosiy vositalar ushbu қiymati bўyicha korxonada butun xizmat muddati davrida qisobda turadi.

***Tiklangan қiymat*** **–** bu asosiy vositalarning қayta baqolash, kengaytirish, rekonstruktsiya va modernizatsiya қilingandan keyingi қiymati. Bu қiymat vaқtinchalik bўlib, қўshimcha қilingan xarajatlar va қayta baqolash natijasi asosiy vositalar қiymatiga kiritilgach boshlanғich қiymat bўlib қolaveradi.

***Қoldik қiymat*** **–** bu asosiy vositalarning boshlanғich қiymati va jamlangan eskirish summasi ўrtasidagi farқi. Bu қiymatni **balans қiymati** qam deb ataydilar, chunki aynan shu қiymatda asosiy vositalar korxonaning balansida aks ettiriladi.

***Sotish қiymati*** – bu asosiy vositalarning sotish vaқtida sotuvchi va sotib oluvchi ўrtasida kelishilgan shartnomaviy қiymat.

***Asosiy vositalar bo`yicha buxgalteriya qisobining asosiy vazifalari*** bo`lib қuyidagilar qisoblanadi:

- Asosiy vositalar qolati va qarakatini to`ғri, o`z vaқtida tegishli boshlanғich xujjatlar bilan rasmiylashtirish va qisobga olish;
- Asosiy vositalar amortizatsiyasi (eskirishi) ni belgilangan usul va me`yorlar bo`yicha to`ғri qisoblash;
- Asosiy vositalarni Soliқ Kodeksiga muvofiқ soliқga tortilishini ta`minlash;
- Asosiy vositalarning butligini ta`minlash, buning uchun ularni belgilangan muddatlarda қayta ro`yxatdan o`tқazish (inventarizatsiya қilish), uning natijalarini to`ғri aniқlash va qisobga olish;
- Mavjud asosiy vositalardan unumli foydalanish, buning uchun ularni ishsiz turib қolishlariga yo`l қo`ymaslik, keraksiz asosiy vositalarni ijaraga berish, likvidatsiya kilish, bepul berish yoki sotish natijalarini to`ғri qisobga olish;
- Asosiy vositalarga қilingan қo`shimcha xarajatlarni (kapital қuyilmalarni, joriy va kapital ta`mirlash xarajatlarini) to`ғri qisobga olish, ularni o`z vaқtida maқsadiga қarab asosiy vositalarning қiymatiga yoki korxona xarajatlariga kiritish;
- Asosiy vositalar bo`yicha lizing operatsiyalarini to`ғri rasmiylashtirish va qisobga olish;

• Asosiy vositalar qolati va qarakati to`ғrisidagi qisobotni to`ғri tuzish va tegishli organlarga o`z vaқtida taқdim etish.

**Asosiy vositalar qisobini yuritishga mўljallangan schyotlar tizimi.** 2002 yil 1 yanvardan joriy etilayotgan schyotlar rejasida asosiy vositalar qisobini yuritish uchun aktiv bўlgan № 0100 «Asosiy vositalar qisobi schyotlari» va kontraktiv bўlgan № 0200 «Asosiy vositalarning eskirishi qisobi schyotlari» tizimlari kўzda tutilgan.

Asosiy vositalarning summoviy analitik qisobi korrespondentsiyalanadigan schyotlar bo`yicha 13-jurnal-orderda , soniy- summoviy analitik qisobi esa moddiy javobgar shaxslar bo`yicha qar bir inventar ob`ektning kodi (tartib nomeri) bўyicha kartochkalarda yoki kitobda ( OS-7 shakl «Asosiy vositalarni qisobga olish inventar kartochkasi», OS-9 «Asosiy vositalarning inventar ro`yxati») yuritiladi. Ushbu kartochka va kitoblar asosiy vosita kelib tushganda ochiladi va ularning butun foydali xizmat muddati davri davomida saқlanadi.

## 2. Asosiy vositalar qarakatining qisobi.

**Asosiy vositalarni ko`payishi**. Asosiy vositalar yangi kapital investitsiyalarni kiritish, ularni bepul kelib tushishi, ta`sis badali sifatida kirim қilinishi evaziga kўpayishi, shuningdek ularning boshlanғich қiymati қayta baqolash evaziga oshishi mumkin. Asosiy vositalarga doir kapital investitsiyalarning qisobiga keyingi ma`ruzada aloqida to`xtalamiz.

**Asosiy vositalarni bepul olinishi.** Asosiy vositalar yuқori tashkilotdan, boshқa yuridik va jismoniy shaxslardan bepul kelib tushishi qam mumkin. Bunday asosiy vositalar shartnomalar, schyot-fakturalar, қabul қilish-topshirish dalolatnomalari asosida қabul қilinadi. Ushbu qujjatlar asosida bepul olingan asosiy vositalarga қўyidagi buxgalteriya yozuvi қilinadi:

**Debet** 0111-0190 «Asosiy vositalar qisobi schyotlari»

**Kredit** 8530 «Қaytarib bermaslik sharti bilan olingan mol-mulk»

Bepul berilgan asosiy vositalarni tashib keltirish xarajatlari ularning boshlanғich қiymatiga kiritiladi va bu qisobda қўyidagi yozuvlar bilan aks ettiriladi:

**Debet** 0890 «Boshқa kapital қўyilmalar»

**Kredit** 6990 «Boshқa majburiyatlar»

**Debet** 0111-0190 «Asosiy vositalar qisobi schetlari»

**Kredit** 0890 «Boshқa kapital қўyilmalar»

**Asosiy vositalarni ta`sis badali sifatida kirim қilinishi.** Ta`sis qujjatlari (ustav, ta`sis shartnomasi) ga asosan ta`sischilardan қabul қilingan asosiy vositalar schet-faktura va қabul қilish-topshirish dalolatnomasi bilan rasmiylashtiriladi. Ushbu qujjatlar asosida қўyidagi buxgalteriya yozuvi қilinadi:

**Debet** 0111-0190 «Asosiy vositalar qisobi schetlari»

**Kredit** 4610 «Ustav kapitaliga ulushlar bўyicha ta`sischilarning қarzlari»

CHet el investorlaridan ta`sis badali sifatida korxona ruyxatdan utgandan keyingi sanalarda kelib tushgan asosiy vositalar bo`yicha valyuta kursini o`zgarishi sababli қo`shilgan kapital vujudga keladi. Bunday qolda korxona ro`yxatdan o`tgan sanadagi kurs bo`yicha ta`sischidan қabul қilib olingan asosiy vosita қiymatiga yuқorida keltirilgan provodka beriladi. Xaқiқatda kelib tushgan sana va korxona ro`yxatga olingan sanadagi kurslar o`rtasidagi farқ summasi korxonaning қo`shilgan kapitaliga olib boriladi va unga қuyidagi ezuv қilinadi:

**Debet** 0111-0190 «Asosiy vositalar qisobi schetlari»

**Kredit** 8420 «Ustav kapitalini shakllantirishda kursdagi farқlar»

**Asosiy vositalarni қayta baqolanishi.** Asosiy vositalarni қayta baqolash deganda ularning қiymatini oshirish yoki pasaytirish tushuniladi.

Қayta baqolash ikki usulda, ya`ni bozor baqolaridan kelib chiқgan qolda tўғridan tўғri eski қiymatni bozor қiymatigacha etkazish yoki eski қiymatni belgilangan koeffitsientlarga kўpaytirish yўli bilan yangi қiymatga chiқish usullarida korxonaning ўzi yoki mol-mulkni қayta baqolash bўyicha maxsus litsenziyaga ega bulgan korxonalar (qokimiyatning kadastr bўlimi yoki boshқa firmalar) tomonidan olib borilishi mumkin. YAngi va eski қiymatlar ўrtasidagi farқ қayta baqolash қiymatini tashkil etadi. Ushbu summa ijobiy son bilan chiқsa, u asosiy vositalarning қiymatini oshirilganligini, manfiy son bilan chiқsa, u asosiy vositalar қiymatini pasaytirilganligini bildiradi. Қayta baqolash natijasi inventarizatsiya қaydnomasi asosida qisobda aks ettiriladi.

Asosiy vositalarning қiymati oshirilganda, yangi va eski boshlanғich қiymatlar ўrtasidagi ijobiy farқ buxgalteriya qisobida қўyidagicha aks ettiriladi:

**Debet** 0111-0190 «Asosiy vositalar qisobi schetlari»

**Kredit** 8510 « Mulkni қayta baqolash bўyicha tuzatishlar»

Қayta baqolashda mos ravishda asosiy vositaning jamlangan eskirish summasi qam yuқorida keltirilgan ikki usulning biri bўyicha қayta qisoblanadi. eskirish summasi oshirilganda unga қўyidagi yozuv қilinadi:

**Debet** 8510 «Aktivlarni қayta baqolash bўyicha tuzatishlar»

**Kredit** 0211-0290 «Asosiy vositalarning eskirishi qisobi schetlari»

Asosiy vositalarning boshlanғich қiymati қayta baqolashda pasaytirilganda yangi va eski қiymatlar ўrtasidagi salbiy farқ summasi ikki usulda qisobdan chiқariladi.

**1-usul**. Korxonada oldindan asosiy vositalarni қayta baqolash natijasida rezerv kapitali shakllantirilgan bўlsa, u qolda pasaytirilgan қiymat shu rezerv kapitali evaziga qisobdan chiқariladi. Bunda, mos ravishda, қўyidagi yozuvlar kilinadi:

a) boshlanғich қiymatlar ўrtasidagi salbiy farқga:
**Debet** 8510 «Aktivlarni қayta baqolash bўyicha tuzatishlar»
**Kredit** 0111-0190 «Asosiy vositalar qisobi schetlari»

b) eskirish summalari ўrtasidagi salbiy farқga:
**Debet** 0211-0290 «Asosiy vositalarning eskirishi qisobi schetlari»
**Kredit** 8510 «Aktivlarni қayta baqolash bўyicha tuzatishlar»

**2-usul**. Rezerv kapitali mavjud bўlmagan qolda қўllaniladi. Bu qolda қayta baqolash natijasida asosiy vositalarning қiymatlari ўrtasidagi salbiy farқ summasi korxona xarajatiga olib boriladi va qisobda қўyidagicha aks ettiriladi:
a) boshlanғich қiymatlar ўrtasidagi salbiy farқga:
**Debet** 9430 «Boshқa operatsion xarajatlar»
**Kredit** 0111-0190 «Asosiy vositalar qisobi schetlari»
b) eskirish summalari ўrtasidagi salbiy farқga (storno yozuvi )
**Debet** 9430 «Boshқa operatsion xarajatlar»
**Kredit** 0211-0290 «Asosiy vositalarning eskirishi qisobi schetlari»

**Asosiy vositalarni sotilishi**. Korxonalar zarur qollarda ўzlarining tўliқ amortizatsiya қilingan yoki қilinmagan asosiy vositalarini sotishlari mumkin. Sotishga asos bўlib sotuvchi va sotib oluvchi ўrtasida tuzilgan shartnoma qisoblanadi. Asosiy vositani sotish schet-faktura bilan rasmiylashtiriladi. Ushbu qujjat sotish operatsiyalarini qisobda aks ettirishga asos bўladi. Schet-faktura asosida sotish operatsiyalari qisobda қўyidagi buxgalteriya ўtқazmalari bilan aks ettiriladi.

| № | Operatsiyaning mazmuni | Summa | Debet schet | Kredit schet | Asos bўluvchi qujjat |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Asosiy vositani jўnatish қiymatiga | 700000 | 4010 | 9210 | SHartnoma, schet-faktura |
| 2 | Sotishdan olingan ҚҚS | 100000 | 9210 | 6410 | SHartnoma, |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | summasiga (agar korxona ҚҚS tўlovchi va solиқ solish ob`ekti mavjud bo`lsa) | | | | schet-faktura |
| 3 | Asosiy vositaning boshlan-ғich қiymatiga | 600000 | 9210 | 0111-0190 | SHartnoma, schet-faktura |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 4 | Jamlangan eskirishni qisobdan chiқarish | 500000 | 0211-0290 | 9210 | SHartnoma, schet-faktura |
| 5 | Sotishdan olingan foyda | 500000 | 9210 | 9310 | SHartnoma, schet-faktura |

Asosiy vositalarni sotish natijasida korxona foyda yoki zarar kўrishi mumkin. Bu natija jўnatish қiymati (Jқ) va қoldiқ қiymati (Kқ) ўrtasidagi farқdan iborat bўladi. Agar jўnatish қiymati (Jқ) қoldiқ қiymat (Kқ) dan katta bўlsa (Jқ > Kқ) korxona asosiy vositalarni sotishdan foyda olgan bўladi va ҚҚS tўlovchi qisoblanadi, agar jўnatish қiymati (Jқ) қoldiқ қiymat (Kқ) dan kichik bўlsa (Jқ < Kқ), korxona asosiy vositalarni sotishdan zarar kўrgan bўladi va ҚҚS tўlovchi qisoblanmaydi, ya`ni:

$$Fs\ (Zs) = Jқ – Kқ$$

YUқoridagi misolda korxona sotishdan foyda kўrgan. Agar korxona asosiy vositani 50000 sўmga sotganda edi, u Solиқ Kodeksiga muvofiқ ҚҚS tўlamaydi, shuningdek ushbu korxona sotishdan 50000 sўm zarar kўrgan bўlar edi va bu zarar qisobda қўyidagicha aks ettiriladi:

**Debet** 9430 «Boshқa operatsion xarajatlar» - 50000

**Kredit** 9210 «Asosiy vositalarning chiқimi» - 50000

Asosiy vositalarni sotishdan kўrilgan zararlar, agar bu asosiy vositalar 3 yildan kam ishlatilgan bo`lsa, Solиқ Kodeksiga muvofiқ (22–modda) foyda soliғi bўyicha solиқ bazasiga қayta қўshiladi.

Agar asosiy vositalar қoldiқ қiymat bўyicha sotilsa, u qolda qam korxona ҚҚS tўlovchi qisoblanmaydi, sotishdan na foyda olingan, na zarar kўrilgan bўladi.

**Asosiy vositalarni likvidatsiya қilinishi.** Asosiy vositalar tўliқ amortizatsiya қilinganligi yoki қilinmaganligidan қat`iy nazar ekspluatatsiya қilish qolatini yўқotgan bўlsa korxona tomonidan likvidatsiya қilinishi mumkin. Buning uchun korxona raqbari buyruғi bilan likvidatsiya komissiyasi tuziladi. Likvidatsiya komissiyasi tarkibiga korxona xodimlaridan tashқari қiziқuvchi organlar (qokimiyat va boshқalar) vakillari qam kiritilishi mumkin. Komissiya likvidatsiya natijalarini maxsus likvidatsiya dalolatnomasi

(OS-4 shakl) bilan rasmiylashtiradi. Ushbu dalolatnoma likvidatsiya natijalarini buxgalteriya qisobi schetlarida aks ettirishga asos bўladi.

Asosiy vositalarni likvidatsiya қilishdan korxona zarar yoki foyda kўrishi mumkin.

Asosiy vositalarni likvidatsiya қilishdan kўrilgan zararlar ikki turga bўlinadi:

*1.Asosiy vositalarni amortizatsiyalanmay қolgan қismini қoplashdan kўrilgan zararlar.*

*2.Likvidatsiya қilishga ketgan қўshimcha xarajatlardan kўrilgan zararlar.*

Birinchi tur zararlar amortizatsiyasi tўliқ qisoblanmagan asosiy vositalarni likvidatsiya қilish natijasida vujudga keladi. Kўrilgan zarar amortizatsiyalanmay қolgan (Aқ) summadan iborat bўlib, u asosiy vositalarning boshlanғich қiymatidan (Bқ) jamlangan amortizatsiyani (Aj) chegirish yўli bilan topiladi, ya`ni:

$$Aқ = Bқ – Aj \quad (1)$$

Ikkinchi tur zararlarga likvidatsiyani amalga oshirishda sarflangan moddiy xarajatlar, meqnatga qaқ tўlash, ijtimoiy suғartaga ajratmalar, turli transport va boshқa xizmatlar uchun ketgan xarajatlar kiradi. Bu turdagi xarajatlar likvidatsiya xarajatlari (Lx) qisoblanib, ular BXMS № 5 ga muvofiқ likvidatsiya қilingan asosiy vositaning likvidatsion қiymatini (Lқ) topishda qisobga olinadi. Likvidatsion қiymat (Lқ) likvidatsiyalan olingan aktivlar (La) қiymatidan likvidatsiya xarajatlarini (Lx) chegirib tashlangandan keyin қolgan қiymatidir, ya`ni:

$$Lқ = La – Lx \quad (2)$$

Likvidatsiya natijasida kўrilgan umumiy zararlar yoki xarajatlar (Xl) birinchi tur zararlardan (Aқ) tugatilgan asosiy vositalarning likvidatsion қiymatini (Lқ) chegirish yўli bilan topiladi, ya`ni:

$$Xl = Aқ – Lқ \quad (3)$$

Asosiy vositalarni likvidatsiya қilish natijasida kўrilgan zarar yoki xarajatlar korxonaning asosiy faoliyatiga bevosita aloқador qisoblanmaydi. SHuning uchun likvidatsiya bilan boғliқ xarajatlarni va likvidatsiya natijasida kўrilgan zararlarni tўғridan-tўғri ishlab chiқarish yoki sotish xarajatlariga қўshib bўlmaydi. SHuning uchun likvidatsiya natijalarini aniқlash va qisobga olish uchun schetlar rejasidagi maxsus 9210 «Asosiy vositalarning chiқimlari» scheti kўzda tutilgan. Ushbu schetning debetida likvidatsiya қilingan asosiy vositalarning boshlanғich қiymati (Bқ), likvidatsiya қilish uchun қilingan xarajatlar (Lx) jamlanadi. Bu schetning kreditida jamlangan amortizatsiya (Aj), likvidatsiya natijasida olingan moddiy aktivlarning қiymati (Lқ) va likvidatsiya natijasida kўrilgan umumiy zararni (xarajatlarni) qisobdan chiқarish aks ettiriladi.

**Gudvil -** bu korxonaning sof aktivlarini sotib olish қiymati va bozor қiymati (yoki qaққoniy qisob қiymati) ўrtasidagi farқ bўlib, u faқat birinchi қiymat ikkinchisidan ortiқ bўlganda vujudga keladi. Masalan, sotib olingan korxonaning қiymati 40 mln. sўm, uning aktivlarining bozor қiymati yoki qaққoniy qisob қiymati –45 mln. sўm, korxonaning majburiyatlari –8 mln. sўm. Bu qolda, sotib olinayotgan korxonaning sof aktivlarining qaққoniy (bozor) қiymati –37 mln sўm (45-8) bўladi. Ўrtadagi 3 mln. sўmlik (40 –37) farқ sotib oluvchi korxona uchun gudvil qisoblanadi. Gudvil yuқori narxlarda sotib olingan aktivlarni kelgusida katta daromad keltirishi mumkinligi aniқ bўlgan qollarda samarali qisoblanadi.

**Tashkiliy xarajatlar** – bu korxona ta`sischilarining uni tashkil etish bўyicha sarflagan xarajatlari, masalan korxonani ta`sis xujjatlarini ishlab chiқish, davlat rўyxatidan ўtқazish, muqr va shtampni tayerlash, bankdagi qisob raқamini ochish va boshka shu kabi tashkiliy ishlarga sarflangan xarajatlar. Bu xarajatlar, odatda, ta`sischi (lar ) ning shaxsiy mablaғlari evaziga korxona ish faoliyatini boshlagunga қadar қilinadi. Қonun xujjatlariga muvofiқ tashkiliy xarajatlar ta`sischilarning ustav kapitaliga qissasi sifatida tan olinishi va қabul қilinishi mumkin.

YUқorida nomlari va tavsifi keltirilgan nomoddiy aktivlarning barchasi (gudvil va tashkiliy xarajatlardan tashқari) sotish, almashtirish, berish ob`ekti bўlib qisoblananishi mumkin.

**Nomoddiy aktivlar qisobining vazifalari**. Nomoddiy aktivlar bўyicha buxgalteriya qisobining asosiy vazifalari bўlib қuyidagilar qisoblanadi:

- Nomoddiy aktivlarni ularning moqiyatini ochib beruvchi mezonlariga mos ravishda qisobga olish;
- Nomoddiy aktivlarni to`ғri turkumlash va guruqlarga ajratish;
- Nomoddiy aktivlarni to`ғri baqolash;
- Nomoddiy aktivlar qolati va qarakatini to`ғri, o`z vaқtida tegishli boshlanғich xujjatlar bilan rasmiylashtirish va qisob registrlarida aks ettirish;
- Nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi (eskirishi) ni belgilangan usul va me`yorlar bo`yicha to`ғri qisoblash;
- Nomoddiy aktivlarni Soliқ Kodeksiga muvofiқ soliқga tortilishini ta`minlash;
- Nomoddiy aktivlar butligini ta`minlash, buning uchun ularni belgilangan muddatlarda қayta ro`yxatdan o`tқazish (inventarizatsiya қilish), uning natijalarini to`ғri aniқlash va qisobga olish;
- Mavjud nomoddiy aktivlardan unumli foydalanish, keraksiz nomoddiy aktivlarni likvidatsiya kilish, bepul berish yoki sotish natijalarini to`ғri qisobga olish;
- Nomoddiy aktivlarga қilingan қo`shimcha xarajatlarni (kapital қuyilmalarni) to`ғri qisobga olish.

**Nomoddiy aktivlarni baqolash .** Nomoddiy aktivlarni baqolashda boshlanғich қiymat, tiklangan қiymat, қoldiқ қiymat, amortizatsiyalanadigan қiymat, sotish қiymati turlari ishlatilishi mumkin (BXMS № 7, p. 9-15). Ushbu қiymat turlarining moqiyati asosiy vositalarni baqolashda қullaniladigan қiymat turlarining moqiyatiga tўliқ ўxshashdir.

Nomoddiy aktivlarni qisobga olish қiymati bўlib boshlanғich қiymat qisoblanadi. Ushbu қiymat nomoddiy aktivlarni kelib tushish manbalariga қarab қuyidagicha aniқlanadi:

- Ta`sischilardan ustav kapitaliga ta`sis badali sifatida қabul қilinganda – *ta`sischilarni kelishuv shartnomasi bўyicha;*
- Sotib olinganda – *sotib olish baqosi plyus barcha ishlashga tayyor qolatga keltirishga ketgan xarajatlarni ўz ichiga olgan қiymat bўyicha;*
- Bepul olinganda – e*kspert yўli bilan aniқlangan қiymat bўyicha;*
- Ilmiy tadқiқot va izlanishlarning natijasi sifatida қabul қilinganda – *qaқiқiy tannarxi bўyicha.*

Tiklangan қiymat nomoddiy aktivlarni қayta baqolashdan keyingi yoki қўshimcha kapital қuyilmalardan keyingi vaқtinchalik қiymati bўlib, u shu sanadan boshlab boshlanғich қiymat qisoblanadi.

Қoldиқ қiymat nomoddiy aktivlarni jamlangan eskirish summasi chegirib tashlangandan keyingi boshlanғich қiymati bўlib, asosan ularni balans қiymatini topishda ishlatiladi.

Sotish қiymati nomoddiy aktivlarni oluvchi va sotuvchi ўrtasidagi kelishuv қiymati bўlib, u faқat sotish natijalarin qisobga olishda қўllaniladi.

Amortizatsiyalanadigan қiymat boshlanғich va likvidatsion қiymat ўrtasidagi farқ bўlib, u amortizatsiya (eskirish ) summasini qisoblashda қўllaniladi.

**Nomoddiy aktivlarning sintetik va analitik qisobi.** 21- son BQMS da nomoddiy aktivlar qisobini yuritish uchun aktiv bўlgan № 0400 «Nomoddiy aktivlar qisobi schyotlari» va kontraktiv bўlgan № 0500 «Nomoddiy aktivlarning eskirishi qisobi schyotlari» tizimlari kўzda tutilgan.

0410-0490 «Nomoddiy aktivlar qisobi schetlari»ning debetida ularning boshlanғich қiymatini oshishiga olib keluvchi operatsiyalar (masalan, yangi nomoddiy aktivlarni sotib olinishi, ularni bepul kelib tushushi, қayta baqolanishi, inventarizatsiyada aniқlangan ortiқchalar), kreditida esa nomoddiy aktvlarning boshlanғich қiymatini kamayishiga olib keluvchi operatsiyalar (masalan, ularni sotilishi, bepul berilishi, qisobdan chiқarilishi, aniқlangan kamomadlar) қuyidagi buxgalteriya yozuvlari bilan aks ettiriladi.

| № | Operatsiyaning mazmuni | Debet schet | Kredit schet | YOzuvga asos bўluvchi qujjat |
|---|---|---|---|---|
| 1. | Nomoddiy aktivlar sotib olinganda | 0410-0490 | 0830 | SHartnomalar, schet-fakturalar |
| 2. | Ilmiy tadқiқot va tajriba konstruktorlik ishlanmalari natijasida қabul қilingan nomoddiy aktivlarning xaқiқiy tannarxiga | 0410-0490 | 3190 | Loyiqa-smeta xujjatlari, dalolat-nomalar |
| 3. | Bepul kelib tushgan nomoddiy aktivlarning ekspert yuli bilan belgilangan қiymatiga | 0410-0490 | 8530 | SHartnoma, dalolatnoma, schet-faktura |
| 4. | Ta`sis badali sifatida kirim қilingan nomoddiy aktivlarning kelishuv baqosidagi қiymatiga | 0410-0490 | 4610 | Ta`sis shartnomasi, dalolatnoma, schet- faktura |
| 5. | Inventarizatsiyada aniқlangan ortiқcha nomoddiy aktivlarning қiymatiga | 0410-0490 | 9390 | Қaror, dalolatnoma |
| 6. | Nomoddiy aktivlarni sotilishi va bepul | | | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | berilishida :<br>-sotish қiymatiga<br>-ҚҚS summasiga<br>-boshlanғich қiymatga<br><br>-eskirish summasiga<br><br>-olingan foydaga<br>-kўrilgan zararga | <br>4010<br>9220<br>9220<br><br>0510-0590<br><br>9220<br>9430 | <br>9220<br>6410<br>0410-0490<br><br>9220<br><br>9320<br>9220 | <br>SHartnoma,<br>Schet-faktura,<br>dalolatnoma |
| 7. | Nomoddiy aktivlar moliyaviy investitsiyalar sifatida kiritilganda:<br>-kelishuv қiymatiga<br><br>-boshlanғich қiymatiga<br><br>-eskirish summasiga<br><br>-ҚҚS summasiga<br>-olingan foyda summasiga | <br><br>0610-0690<br>9220<br><br>0510-0590<br>9220<br>9220 | <br><br>9220<br><br>0410-0490<br>9220<br><br>6410<br>9320 | <br><br>SHartnoma,<br>Schet-faktura,<br>dalolatnoma |
| 8 | Gudvil korxona xarajatlari evaziga qisobdan chiқarilganda | Xara-jat schyot-lari | 0480 | Raschet |
| 9. | Inventarizatsiyada kamomad aniқlanganda<br>-boshlanғich қiymatga<br><br>-eskirish summasiga<br><br>-kamomad summasiga | <br>9220<br><br>0510-0590<br>470 | <br>0410-0490<br>9220<br><br>9220 | <br>Dalolatnoma, қaror |

BXMS № 7 «Nomoddiy aktivlar» ga muvofiқ ( p.46 ) nomoddiy aktivlar qar yilning oxirida yakuniy qisobot tuzish oldidan inventarizatsiyadan ўtқazilishi lozim. Bundan tashқari ular қayta baqolashda, korxonada reorganizatsiya (birlashish, bўlinish) yuz berganda, korxona tugatilganda inventarizatsiya қilinadi. Nomoddiy aktivlarni

inventarizatsiyasini ўтқazish BXMS № 19 «Invetarizatsiyani tashkil қilish va ўтқazish»da belgilangan tartib bўyicha amalga oshiriladi.

Nomoddiy aktivlarning қiymati oshirilganda inventarizatsiya қaydnomasi ma`lumotlari asosda қuyidagi buxgalteriya yozuvlari қilinadi:

- *Boshlanғich қiymat oshirilganda*

**Debet** 0410-0490 «Nomoddiy aktvlar qisobi schetlari»

**Kredit** 8510 «Aktivlarni қayta baqolash bўyicha tuzatishlar»

- *Boshlanғich қiymat kamaytirilganda*

**Debet** 8510 «Aktivlarni қayta baqolash bўyicha tuzatishlar»

**Kredit** 0410-0490 «Nomoddiy aktvlar qisobi schetlari»

Nomoddiy aktivlarning analitik qisobi moddiy javobgar shaxslar bўyicha qar bir inventar ob`ektning kodi (tartib nomeri) bўyicha kartochkalarda yoki kitobda yuritiladi. Ushbu kartochka va kitoblar nomoddiy aktivlar kelib tushganda ochiladi va ularning butun foydali xizmat muddati davri davomida saқlanadi.

**Nomoddiy aktivlarni eskirishining qisobi.** Nomoddiy aktivlarga eskirish qisoblashda қuyidagi omillar asos қilib olinadi:

- Foydali xizmat muddati;
- Korxonaning ustav faoliyatining muddati;
- Nomoddiy aktivning jismoniy va ma`naviy eskirish xarakteri;

Foydali xizmat muddatini qisoblash mumkin bўlgan nomoddiy aktivlar uchun yillik eskirish summasi ularning amortizatsiyalanadigan қiymatini foydali xizmat yillar soniga bulish yўli bilan topiladi. Topilgan summani 12 ga bўlib, qar oylik eskirish summasi xarajatlar schyotlariga olib boriladi.

Foydali xizmat muddatini aniқlash қiyin bўlgan nomoddiy aktivlar bўyicha xizmat muddati eng kўpi bilan 5 yil қilib, lekinda korxona ustav faoliyati muddatidan kўp bўlmagan mudddatga, belgilanadi (BXMS № 7, p. 39.2).

BXMS № 7 ga muvofiқ (p.42-44), nomoddiy aktivlarga amortizatsiya (eskirish) qisoblash xuddi asosiy vositalar singari bir maromli, bajarilgan ish qajmiga proportsional, xizmat yillari sonlari yiғindisiga proportsional (kumulyativ) va kamayib boruvchi қoldiқ қiymatdan qisoblab topish usullari bўyicha amalga oshiriladi. Tanlangan usul (usullar) korxonaning qisob siyosatida kўrsatilgan bўlishi lozim. Asosiy vositalar kabi nomoddiy aktivlar amortizatsiyasini qisoblashda Soliқ Kodeksi negiziga bir maromda qisoblash usuli olingan, қolgan usullar bўyicha qisob-kitoblarda aniқlangan me`yordan ortiқcha summalar foyda soliғi bazasiga қayta қўshiladi va shu yўl bilan soliқga tortiladi.

Qar qisobot yili oxirida nomoddiy aktivlarning foydali xizmat muddati қayta kўrib chiқilishi va shunga mos ravishda amortizatsiya (eskirish) me`yori ўzgartirilishi mumkin ( BXMS № 7, p. 46 ).

Nomoddiy aktivlar bўyicha amortizatsiya (eskirish) ni qisoblanishi ularning ishlatish maқsadiga kўra 0510-0590-schetlarning kreditida va xarajatlar schetlarining ( 2010, 2310, 2510, 2710, 3110,9410,9420 ) debetida aks ettiriladi. 0510-0590 schetlarning debetida nomoddiy aktivlarni sotilishi, bepul berilishi, qisobdan chiқarilishi, kamomadlari va ta`sis badali sifatida kiritilishi munosabati bilan ularga tўғri keladigan jamlangan eskirish summasini kamaytirish aks ettiriladi. Bunda 9220 «Boshka aktivlarni sotilishi va turli chiқimlari», 0480 «Gudvil», 8510 «Aktivlarni қayta baqolash bўyicha tuzatishlar» schyotlari kreditlanadi.

Nomoddiy aktivlar amortizatsiyasining analitik qisobi qar bir nomoddiy aktiv bўyicha kartochkalarda yoki kitobda olib boriladi.

## 2. Moliyaviy investitsiyalarning qisobi

**Moliyaviy investitsiyalarning moqiyati**. *Moliyaviy investitsiyalar* – bu korxonaning boshka korxonalarga ularning kuvvatini oshirish va buning evaziga kelgusida uzi xam moddiy naf kurish , kushimcha daromad olish maksadida kiritgan mablaglari majmuasi.

Moliyaviy investitsiyalarni turlicha belgilariga қarab tasniflash mumkin bўladi.

*Muddatiga kўra* moliyaviy investitsiyalar uzoқ muddatli va қisқa muddatli investitsiyalarga bўlinadi. **Uzoқ muddatli moliyaviy investitsiyalar** deganda, BXMS № 12 «Moliyaviy investitsiyalarning qisobi» ga muvofiқ, 12 oydan kўp muddatga kiritilgan mablaғlar tushuniladi. Ushbu muddatdan kam vaқtga kiritilgan mablaғlar **қisқa muddatli moliyaviy investitsiyalar** deb ataladi.

*Kiritilish yўnalishiga* kўra moliyaviy investitsiyalar xўjalik yurituvchi sub`ektlarning turlari bўyicha aloqida guruqlarga ajratiladi. Jumladan, uzoқ va қisқa muddatli moliyaviy investitsiyalar ushbu belgisiga kўra қўyidagi guruqlarga ajratiladi:

- Aktsionerlik jamiyatlariga kiritilgan moliyaviy investitsiyalar;
- Banklarga kiritilgan moliyaviy investitsiyalar;
- SHo``ba korxonalarga kiritilgan moliyaviy investitsiyalar;
- Қўshma korxonalarga kiritilgan moliyaviy investitsiyalar;
- Қaram jamiyatlarga kiritilgan moliyaviy investitsiyalar;
- Boshқa turdagi korxonalarga kiritilgan moliyaviy investitsiyalar.

*Kўrinishi* bўyicha barcha moliyaviy investitsiyalarni қўyidagi guruxlarga ajratish mumkin:

- Қimmatli қoғozlarga kiritilgan investitsiyalar;
- Қarz sifatida kiritilgan investitsiyalar;
- Kredit sifatida kiritilgan moliyaviy investitsiyalar;
- Ta`sis badali sifatida kiritilgan investitsiyalar;

**Қimmatli қoғozlarga kiritilgan investitsiyalar** deganda ochiқ aktsionerlik jamiyatlari va aktsionerlik tijorat banklarini chiқargan aktsiyalarini va boshқa қimmatli қoғozlarga tenglashtirilgan ekvivalentlarni sotib olishga sarflangan mablaғlar tushuniladi. Sotib olingan aktsiyalar korxonaga dividend kўrinishida daromad keltiradi, shuningdek ular korxonaga aktsionerlik jamiyati yiғilishlarida ovoz berish quқuқini qam beradi. Қimmatli қoғozlarga tenglashtirilgan ekvivalentlarga obligatsiyalar, veksellar, depozit sertifikatlari kiradi. Bu turdagi moliyaviy investitsiyalar, asosan, қisқa muddatli bўlib, ular korxonaga foiz kўrinishida daromad keltiradi.

Korxona ixtiyoridagi barcha қimmatli қoғozlar birgalikda korxonaning **investitsion portfelini** tashkil etadi.

**Қarz va kredit sifatida kiritilgan investitsiyalar** deganda, korxonalarga moliyaviy yordam berish maқsadida berilgan mablaғlar tushiniladi. Bu guruq investitsiyalar imtiyozli va imtiyozsiz bўlishi mumkin. Imtiyozli investitsiyalar deganda, ustama foizsiz yoki imtiyozli (kichik miқdorli) foizlar asosida berilgan қarz va kreditlar tushuniladi. Imtiyozsiz investitsiyalar deganda ma`lum muddatga kelishilgan foizlar asosida berilgan қarz va kreditlar tushuniladi. SHunday қilib, қarz va kredit sifatida kiritilgan investitsiyalar korxonalarga foizlar kўrinishida daromad keltiradi yoki daromad keltirmaydi.

**Ta`sis badali sifatida kiritilgan investitsiyalar** deganda, korxonaning yangi tashkil etilgan boshқa korxonalarning ustav kapitaliga mablaғ kiritishi tushuniladi. Korxonalar ta`sis badali sifatida mablaғlarni қizaloқ korxonalarga, қўshma korxonalarga, uyushgan korxonalarga, қaram jamiyatlarga va boshқa turdagi korxonalarga kiritishlari mumkin. Bu guruq investitsiyalar korxonalarga ta`sis etilgan boshқa korxonalar foydasidan ulush olish kўrinishida daromad keltiradi.

*Kiritilgan mablaғlarning turiga* kўra moliyaviy investitsiyalarni қўyidagi guruqlarga ajratish mumkin:

- Uzoқ muddatli aktivlar bilan kiritilgan moliyaviy investitsiyalar ;
- Қiska muddatli aktivlar bilan kiritilgan moliyaviy investitsiyalar.

Uzoқ muddatli aktivlar qisoblangan asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, tugallanmagan kapital қўyilmalar, қimmatli қoғozlar қarz va kredit sifatida, ta`sis badali sifatida turli mulk va shakldagi boshқa korxonalarga investitsiya tarzida kiritilishi mumkin. Қisқa muddatli aktivlardan қimmatli қoғozlarga asosan pul mablaғlari kiritiladi.

Қarz va kredit, shuningdek ta`sis badali sifatida қisқa muddatli aktivlarning debitorlik қarzlaridan tashқari barcha turlari kiritilishi mumkin.

Moliviy investitsiyalarning barchasiga taalluқli umumiy xususiyatlar mavjud. Ularning asosiylariga қўyidagilarni kiritish mumkin.

**1. Maқsadlilik** – barcha moliyaviy investitsiyalar aniқ maқsad bilan kiritiladi.

**2. Қaytarishlik** – barcha moliyaviy investitsiyalar shartnoma muddati tugagach korxonaga қaytariladi.

**3. Tўlovlilik** – barcha moliyaviy investitsiyalar uchun shartnomaga muvofiқ ularni olgan xўjalik sub`ekti tўlov majburiyatini oladi. Tўlov majburiyati faқat ayrim qollarda shartnoma asosida bўlmasligi mumkin va bu, odatda, nochor korxonaga moliyaviy yordam bergandagina vujudga keladi.

**4. Samarali foydalanish** – investor bergan mablaғlarini olgan xўjalik sub`ekti tomonidan samarali foydalanilayotganligini shartnoma asosida nazorat қilish quқuқiga ega bўlishi mumkin.

**5. Sotish ob`ekti –** қisқa muddatli moliyaviy investitsiyalar 1 yil ichida tez va erkin sotiladigan aktivlar qisoblanadi, uzoқ muddatli investitsiyalar esa erkin sotilmaydigan aktivlar qisoblanadi.

**Moliyaviy investitsiyalar qisobining vazifalari**. Moliyaviy investitsiyalar bўyicha buxgalteriya qisobining asosiy vazifalariga қuyidagilar kiradi:

- Moliyaviy қuyilmalarni ularning moxiyatini ochib beruvchi mezonlariga mos ravishda xisobga olish;
- Moliyaviy қuyilmalarni to`ғri baqolash va қayta baqolash;
- Moliyaviy қuyilmalar qolati va qarakatini to`ғri, o`z vaқtida tegishli boshlanғich xujjatlar bilan rasmiylashtirish va qisob registrlarida aks ettirish;
- Moliyaviy қuyilmalar bўyicha daromadlarni qisoblash tamoyiliga muvofiқ schetlarda aks ettirish;
- Moliyaviy қuyilmalardan olingan daromadlarni Soliқ Kodeksiga muvofiқ soliқga tortilishini ta`minlash;

**.Moliyaviy investitsiyalarni baqolash.** Moliyaviy investitsiyalarning qar bir turini baqolash va қayta baqolash ўziga xos xususiyatlarga ega.

***Қimmatli қoғozlarga yўnaltirilgan moliyaviy investitsiyalarni*** baqolashda ikkita sana muqim rol ўynaydi:

- *Sotib olish sanasi*
- *Keyingi sanalar*

**Sotib olish sanasi** deganda, қimmatli қoғozlarga yўnaltirilgan moliyaviy investitsiyalarni sotib olish, ya`ni ularni қabul қilib olish sanasi tushuniladi.

**BXMS № 12 «Moliyaviy investitsiyalarning qisobi»** ga muvofiқ sotib olish sanasida қimmatli қoғozlarga yўnaltirilgan moliyaviy investitsiyalar **sotib olish қiymatida** tan olinishi va qisobotda aks ettirilishi lozim.

Қimmatli қoғozlarga yўnaltirilgan moliyaviy investitsiyalarning **sotib olish қiymati** deganda, ularni sotib olish baqosi sotib olishga ketgan xarajatlar bilan birgalikda olingan қiymati tushuniladi. Sotib olishga ketgan xarajatlarga brokerlik kantoralariga tўlangan qaқlar, boj tўlovi, bank xizmati qaқlari va boshқa sotib olishga doir xarajatlar kiradi. Sotib olish қiymati қimmatli қoғozlarga yўnaltirilgan moliyaviy investitsiyalarning **boshlanғich қiymatini** yoki **balans қiymatini** tashkil қiladi.

Agar sotib olish sanasida sotib olish қiymatiga ma`lum sanagacha bўlgan davr uchun qisoblangan dividendlar va foizlar qissasi kiritilgan bўlsa, қimmatli қoғozlarga yўnaltirilgan investitsiyaning balans қiymati ўtkazib berilgan summadan sotuvchi tomonidan bўnak sifatida tўlangan foiz va dividendlar summasini chegirishdan keyin қolgan қiymatda aks ettirilishi lozim. CHunki sotib olish vaқtida olingan summa va sotib olish қiymati ўrtasidagi farқ investorning investitsiyaga kiritgan mablaғlari uchun avans tariқasida olgan daromadi qisoblanadi. Bu avans summa investitsiyani sotib olishdan to қaytarilganicha bўlgan davrda investor tomonidan doimiy daromad sifatida bir maromda qisobdan chiқarilib borishi kerak.

**Keyingi sanalar** deganda, sotib olingandan keyingi balans sanalari tushuniladi. Ushbu sanalarda қimmatli қoғozlarga yўnaltirilgan moliviy investitsiyalar balansda turli қiymatda baqolanishi mumkin. Jumladan, BXMS № 12 ning 15- punktiga muvofiқ қimmatli қoғozlarga yўnaltirilgan uzoқ muddatli moliviy investitsiyalar қўyidagi baqolardan biri bўyicha aks ettirilishi kerak:

- **Bozor қiymatida ;**
- **Sotib olish қiymatida;**
- **Bozor va sotib olish қiymatlaridan eng kichigida;**
- **Қayta baqolangan қiymatda**

BQMS № 12 ning 13-moddasiga muvofiқ қimmatli қoғozlarga yўnaltirilgan қisқa muddatli moliyaviy investitsiyalar balansda **bozor қiymatida** yoki **bozor va sotib olish қiymatlarining eng kichik қiymatida** aks ettirilishi kerak. Agar ular bozor va sotib olish қiymatlarining eng kichik қiymatida qisobga olingan bўlsa, ularning balans қiymati қimmatli қoғozlar portfelining jami investitsiya қiymati, yoki қimmatli қoғozlarning guruqlari bўyicha қiymati, yoki қimmatli қoғozlarning aloqida nomlari bўyicha қiymatiga asoslanib topiladi.

Қimmatli kogozlarga yunaltirilgan moliyaviy investitsiyalarning **bozor қiymati** deganda ularning moliya bozorida sotish vaқtida namoyon bўlgan **sotish қiymati** tushuniladi. Bozor қiymatini, boshқachasiga, q**aққoniy қiymat** deb qam ataydilar. Bu қiymat kўp omillarga boғliқ, jumladan, aktsionerlik jamiyati yoki tijorat bankining foydalilik darajasiga, tўlanayotgan dividendlarning miқdoriga, ularning kelajakdagi obru-e`tiboriga va boshka omillarga.

**Қiymat tamoyiliga** muvofiқ қimmatli қoғozlarga yўnaltirilgan moliyaviy investitsiyalar boshқa aktivlar singari keyingi sanalarda yuқorida keltirilgan қiymatlarning eng kichik miқdorida balansda aks ettirilishi lozim. Ushbu қiymatda uzoқ muddatli қimmatli қoғozlar balansda investitsiya portfeli metodiga asoslanib aks ettiriladi. Қisқa muddatli қimmatli қoғozlar ularning bozor va sotib olish қiymatlarining eng kichik қiymatida qisobga olingan bўlsa, balansda қimmatli қoғozlar portfelining jami investitsiya қiymatiga, yoki қimmatli қoғozlar guruqlari bўyicha қiymatiga, yoki қimmatli қoғozlarning aloqida nomlari bўyicha қiymatiga asoslanib aks ettiriladi.

Keyingi sanalarda bozor қiymati sotib olish қiymatidan past bўlsa қimmatli қoғozlarga yўnaltirilgan moliyaviy investitsiyalarning sotib olish қiymati bozor қiymati darajasigacha etkazilishi va balansda shu қiymat bilan aks ettilishi kerak. Agar sotib olish қiymati bozor қiymatidan past bўlsa , u qolda қimmatli қoғozlarga yўnaltirilgan moliyaviy investitsiyalarning қiymati balansda ўzgarishsiz қoldirilishi lozim. Qozirgi vaқtda amaliyotda bu tamoyilga tўliқ amal қilinayotgan emas. Korxonalar balansida sotib olingan қimmatli қoғozlar, jumladan aktsiyalar, asosan sotib olish қiymatida ( nominal қiymatda ) aks ettirilmokda. Bozor қiymatini ўzgarishi, ya`ni uni sotib olish қiymatidan past yoki yuқori bўlishi, ularning ichidan eng қuyi miқdorini ifodalovchi қiymati balansda aks ettirilmasdan қolmoқda. Bu qolning mavjudligiga sabablardan biri bulib, korxonalarning qisob siyosatida қimmatli қoғozlarga yўnaltirilgan investitsiyalarning keyingi sanalarda қiymatini kўrib chiқilishi tartibini aniқ belgilanmaganligi qisoblanadi.

**BQMS № 1 «Qisob siyosati va moliviy qisobot»** ga muvofiқ korxonalar ўzlarining qisob siyosatlarida қimmatli қoғozlarga yўnaltirilgan moliyaviy investitsiyalari bўyicha қuyidagilarni aniқ belgilab olishlari darkor.

1.Қimmatli қoғozlarga yўnaltirilgan moliyaviy investitsiyalarni keyingi sanalarda baqolash turini

2.Қayta baqolashga asos bўlgan qisob usulini

3.Қayta baqolashni қimmatli қoғozlarning nomlari, guruqlari yoki investitsiya portfeli bўyicha davriyligini

Қimmatli қoғozlarga yўnaltirilgan moliyaviy investitsiyalarni keyingi sanalarda baqolash ular қiymatini qaққoniyligini ta`minlash uchun zarur qisoblanadi, shuning uchun xam ularning қiymatini қayta baqolash zaruriyati tuғiladi.

**BQMS № 12 «Moliyaviy investitsiyalarning qisobi»** қimmatli қoғozlar қiymatini қayta baqolashni қuyidagi uchta usullardan biri bўyicha amalga oshirishni taқoza etadi:

- Қimmatli қoғozlar nomlari bўyicha;
- Қimmatli қoғozlar guruqlari bўyicha;
- Tўliқ investitsiya portfeli bўyicha

**Birinchi usulda** қayta baqolash qar bir қimmatli қoғoz bўyicha individual tarzda amalga oshiriladi, ya`ni uning sotib olish va bozor (qaққoniy) қiymatlaridan қaysi biri kichik bўlsa, ўsha қiymat қayta baqolash қiymati sifatida tanlab olinadi va shu қiymatda u қayta baqolangan sanaga tuzilgan balansda aks ettiriladi. Қayta baqolash natijasida qar bir aktsiya bўyicha oshirilgan yoki kamaytirilgan қiymat summasi topiladi. Ўrtadagi farқ қimmatli қoғozlarning balans қiymatini oshishiga yoki kamayishiga olib keladi. Oshirilgan қiymat қayta baqolashdan olingan daromad sifatida xususiy kapitalni қўpayishiga olib boriladi. Pasaytirilgan қiymat esa korxonaning xarajati sifatida tan olinadi va u moliyaviy natijalar tўғrisida qisobotga kiritiladi.

**Ikkinchi usulda** қayta baqolash қimmatli қoғozlarning guruqlari bўyicha amalga oshiriladi. Guruq sifatida, odatda, ma`lum bir korxona (masalan, aktsionerlik jamiyati, aktsionerlik tijorat banki ) qisoblanadi. Ushbu usulda guruqga kirgan қimmatli қoғozlarning sotib olish va bozor қiymatlari ichidan eng kichigi tanlab olinib, shu қiymatda guruqga kirgan barcha қimmatli қoғozlarning қayta baqolangan қiymatdagi summasi topiladi. Қayta baqolash natijasida qar bir guruq bўyicha қimmatli қoғozlarning oshirilgan va kamaytirilgan қiymat summalari topiladi. Barcha guruqlar bўyicha birgalikda topilgan summalar ўrtasidagi farқ jami қimmatli қoғozlarning balans қiymatini oshishiga yoki kamayishiga olib keladi. Oshirilgan қiymat, xuddi birinchi usuldagidek, қayta baqolashdan olingan daromad sifatida xususiy kapitalga kiritiladi, pasaytirilgan қiymat esa- korxona xarajati sifatida tan olinadi va qisobotda aks ettiriladi.

**Uchinchi usulda** қayta baqolash jami investitsiya portfeli bўyicha amalga oshiriladi. Ushbu usulda guruqlar bўyicha қayta baqolash natijasida oshirilgan қiymat summasi xususiy kapital summasiga kiritiladi, pasaytirilgan қiymat summasi xarajatlarga olib boriladi, ўrtadagi farқ, agar ijobiy bўlsa investitsiyalarni kupayishiga, agar salbiy bўlsa investitsiyalarni kamayishiga olib boriladi.

Қimmatli қoғozlarga yўnaltirilgan moliyaviy investitsiyalarni қayta baqolash usullarini farқini tўlaroқ tushunish maқsadida қuyidagi misolni қўrib chiқamiz.

Aytaylik, aktsionerlik jamiyati quyidagi qimmatli qoғozlarga ega:

| Korxona | Aktsiya soni | Aktsiyaning sotib olish qiymati | Aktsiya-ning bozor qiymati | Sotib olish qiymati summasi | Bozor qiymati summasi | Bozor qiymatini oshishi va pasayishi |
|---|---|---|---|---|---|---|
| Savdogarbank | 10 | 5000 | 5200 | 50000 | 52000 | 2000 |
| Savdogarbank | 20 | 6000 | 5200 | 120000 | 104000 | -16000 |
| «Suxrob» AJ | 100 | 1000 | 800 | 100000 | 80000 | -20000 |
| «Suxrob» A J | 50 | 1200 | 800 | 60000 | 40000 | -20000 |
| **Jami** | | | | **330000** | **276000** | **-54000** |

Ushbu shartli ma`lumotlar asosida qayta baxolangan moliyaviy investitsiyalarning balans qiymati yuqoridagi uchta usullarda quyidagicha bўladi:

| Usul | Sotib olish qiymati bўyicha | Bozor qiymati bўyicha | Sotib olish va bozor qiymatidan eng kichigi bўyicha | Farқ (=,- ) |
|---|---|---|---|---|
| 1- usul | 330000 | 276000 | 274000 | -56000 |
| 2-usul | 330000 | 276000 | 270000 | -60000 |
| 3-usul | 330000 | 276000 | 276000 | -54000 |

*Kўrinib turibdiki, 1-usulda aktsionerlik jamiyatining qimmatli qoғozlarga yўnaltirilgan moliyaviy investitsiyalarining sotib olish va bozor qiymatlaridan eng kichigi bўyicha qayta baqolangan qiymati 274000 sўmni tashkil etadi, ya`ni sotib olish qiymatiga nisbatan ularning qadri 56000 sўmga tushib ketgan. Qisobot yili oxirida ushbu usul bўyicha qimmatli qoғozlar qayta baqolanganda, ularning qiymati balansda 274000 sўm etib belgilanadi va ўrtadagi farқ , ya`ni 56000 sўmlik zarar, rezerv kapitali qisobidan qoplanadi. Agar rezerv kapitali ushbu maqsad uchun shakllanmagan bўlsa, u qolda ushbu summa korxona zarariga olib boriladi.*

Agar korxona qimmatli qoғozlarni qayta baqolashning ikkinchi usulini tanlagan bўlsa, u qolda qimmatli qoғozlar qadrini pasayishi natijasida 60000 sўmlik zarar kўrilgan bўladi va qisobot yili oxirida ularning balans qiymati 270000 sum miқdorida balansda

aks ettiriladi. Kўrilgan zarar, xuddi 1-usuldagidek, rezerv kapitali qisobidan қoplanadi yoki korxona zarariga olib boriladi.

Agar korxona қimmatli қoғozlarni қayta baqolashning 3- usulini қўllayotgan bўlsa, u qolda qisobot yili oxiriga қimmatli қoғozlarning қiymati 330000 sўmdan 276000 sўmga tushiriladi, ўrtadagi farқ , ya`ni 54000 sўm, rezerv kapitali qisobidan қoplanadi yoki bunday rezerv kapitali bўlmasa korxona zarariga olib boriladi.

**Қarz va kredit sifatida kiritilgan investitsiyalarni baqolash. Қ**arz va kredit sifatida kiritilgan investitsiyalarni baqolash ularning berish sanasidagi qisob қiymati bўyicha amalga oshiriladi. Qisob қiymati investitsiyaga kiritilgan aktivning turiga boғliқ bo`ladi.

Jumladan, қisқa va uzoқ muddatga investitsiyaga kiritilgan asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar balansda ularning boshlanғich қiymati bo`yicha baqolanadi. Bu aktivlarni boshlanғich қiymatdan yuқori baqolanib investitsiyaga kiritilishi korxonaga қo`shimcha daromad keltirishi mumkin va aksincha, past қilib kiritilishi korxonaga zarar keltirishi mumkin. Lekinda xar ikkala qolda qam investitsiyaning balans қiymati ushbu aktivlar bo`yicha boshlanғich қiymatga teng bo`lishi zarur. Investitsiya muddati tugagach bu turdagi aktivlar boshlanғich қiymatida mos schyotlar tarkibiga tiklanadi.

Қarz va kredit sifatida investitsiyaga kiritilgan tovar-moddiy zaqiralar ularning balans қiymatida, ya`ni tannarxi bo`yicha balansda aks etishi lozim. Ushbu қiymatdan chetlanish ( past yoki yuқori) korxonaga , xuddi uzoқ muddatli aktivlar singari, mos ravishda zarar eki қo`shimcha daromad keltiradi. Moddiy zaqiralarni қaytarilishi qam mos schetlarga balans қiymatida, ya`ni tannarxi bo`yicha tiklanadi.

Pul mablaғlarini қarz va kredit sifatida investitsiyaga kiritilishi ularning berilgan summadagi miқdorida baqolanadi va o`sha miқdorda қaytarilgach mos schetlarga tiklanadi.

Қarz va kredit shartnomasiga muvofiқ қarz va kredit sifatida kiritilgan investitsiyalar қayta baqolanishi qam mumkin. Қayta baqolash investitsiyaga kiritilgan asosiy vositalar va moddiy aktivlarning boshlanғich қiymatlari qukumat қarorlari yoki korxonaning mulkini boshқa mulk shakliga aylanishi munosabati bilan mutassadi tashkilot қarori bilan o`zgartirilganda amalga oshiriladi. Bunday qolda investor investitsiyaga kiritgan uzoқ muddatli aktivlarining balans қiymatini o`zgartiradi va o`sha қiymatda keyingi sanalarda ularni balansda aks ettiradi. Қayta baqolash tovar-moddiy zaqiralarga qam taalluқli bo`lib, ularning balans қiymatini o`zgarishi investitsiya қiymatini qam o`zgarishiga olib keladi. Қarz va kredit sifatida investitsiyaga kiritilgan aktivlarning қayta baqolanishi shartnoma shartlariga muvofiқ investorning oladigan daromadiga ta`sir қilishi qam, ta`sir қilmasligi qam mumkin.

Aktivlarni қarz va kredit sifatida investitsiyaga kirituvchi korxonalar o`zlarining qisob siyosatlarida baqolash va қayta baqolash tartiblarini , ularni korxona daromad va xarajatlariga ta`sirini , shuningdek қayta baqolash natijalarini schetlarda aks ettirish usullarini ochib berishlari lozim.

**Ta`sis badali sifatida kiritilgan investitsiyalarni baqolash** қarz va kredit sifatida kiritilgan investitsiyalarni yuқorida keltirilgan tartibiga to`liқ o`xshashdir.

Ta`sis badali sifatida kiritilgan investitsiyalarning қayta baqolanishi , ma`lumki ta`sis badali summasini oshishiga va bu o`z navbatida undan olinadigan ta`sischilarning foydasi qissasini o`zgarishiga olib kelishi mumkin. SHuning uchun ta`sis badali sifatida kiritilgan investitsiyalarning қayta baqolangan қiymati davlat registratsiyasidan қayta o`tishi lozim va faқat shu asosda tan olinishi, shuningdek balansda aks ettirilishi lozim.

**.Moliviy investitsiyalarning sintetik va analitik xisobi.** 21-son BQMS ga muvofiқ uzoқ muddatli moliyaviy investitsiyalarning qisobini yuritish uchun maxsus 0600 «Uzoқ muddatli investitsiyalar qisobi schyotlari» tizimida қuyidagi schyotlar ko`zda tutilgan:

- 0610 «Қimmatli kogozlar»
- 0620 «SHў`ba xўjalik jamiyatlariga investitsiyalar»
- 0630 «Қaram xўjalik jamiyatlariga investitsiyalar»
- 0640 «CHet el kapitaliga ega korxonalarga investitsiyalar»
- 0690 «Boshқa uzoқ muddatli investitsiyalar»

**0610 «Қimmatli қoғozlar»** schyoti korxonalarning aktsiya va boshқa қimmatli қoғozlarni sotib olishga yўnaltirgan uzoқ muddatli moliyaviy investitsiyalarini qisobini yuritishga mўljallangan. Ushbu schyotning debetida aktsiya va boshқa қimmatli қoғozlarni sotib olinishi aks ettiriladi, schyotning debet қoldiғi esa sotib olingan қimmatli қoғozlarning қiymatini kўrsatadi. Schyotning kredit tomonida aktsiya va boshқa қimmatli қoғozlarning korxona balansidan chiқib ketishi, ya`ni ularni kamayishi, aks ettiriladi. Aktsiya va boshқa қimmatli қoғozlarning qisobi 0610- schyotda ularning nominal қiymatida yuritiladi.

**0620 «SHў`ba xўjalik jamiyatlariga investitsiyalar»** schyoti **ў**z ixtiyorida shў`ba xўjalik jamiyatlariga ega bўlgan korxonalarda қўllaniladi va ular ushbu schyotda shў`ba xўjalik jamiyatlariga kiritgan moliyaviy investitsiyalarini qisobini olib boradilar.

**SHў`ba xўjalik jamiyati** deb investor tomonidan tўliқ nazorat қilinadigan korxona tushuniladi. Bu turdagi investitsiyalar bўlib shў`ba xўjalik jamiyatlarining chikargan aktsiyalarini sotib olish olishga yunaltirilgan mablaғlar, ularga ta`sis badali sifatida kiritilgan, қarz yoki kredit sifatida berilgan mablaғlar xisoblanadi.

**0630 «Қaram xўjalik jamiyatlariga investitsiyalar»** schyoti korxonalarning қaram xўjalik jamiyatlariga kiritilgan mablaғlarni qisobga olish uchun mўljallangan. Bunda **қaram xўjalik jamiyati** deganda mablaғ kiritgan investor katta ta`sirga ega bўlgan, lekinda uning shў`ba xўjalik jamiyati yoki қўshma korxonasi bўlmagan korxona tushuniladi.

**Katta ta`sir**– bu korxonaning siyosatini nazorat қilmasdan uning moliyaviy va ishlab chiқarish bўyicha faoliyatiga doir қarorlarni қabul қilishda қatnashish quқuқidir. Katta ta`sirni mavjud bўlishi investorning қuyidagi quқuқlari orkali namoyon bўladi :

- Direktorlar kengashida a`zolikni yoki shunga tenglashtirilgan boshқaruv organidagi vakillikni borligi;
- Korxona siyosatini ishlab chiқishda қatnashish;
- Investor va қaram jamiyat ўrtasida foydani kelishib taқsimlash va boshқa moliyaviy munosabatlarni mavjud bўlishi;
- Boshқaruv xodimlarini almashtirishda ishtirok etish;
- Texnik-iқtisodiy axborotlar bilan ta`minlash.

Agar investorning kiritgan mablaғi қaram xўjalik jamiyatining jami kapitalida 20% dan kўp qissani tashkil etsa va shu miқdordan ortiқ ovozga ega bўlsa, u qolda uning қaram xўjalik jamiyatiga ta`siri katta qisoblanadi.

**0640 «CHet el kapitaliga ega korxonalarga investitsiyalar»** schyoti kushma korxonalarga investitsiyalar kiritgan korxonalar tomonidan қўllaniladi. Ushbu schyotda қўshma korxonaga ta`sis badali, қarz yoki kredit sifatida kiritilgan mablaғlar aks ettiriladi.

**0690 «Boshka uzok muddatli investitsiyalar»** schyotida korxonalarning davlat korxonalariga, xayriya yoki ekologik jamiyatlarga kelgusida moddiy manfaat olish maқsadida kiritgan mablaғlari aks ettiriladi.

Uzok muddatli moliyaviy investitsiyalarga doir operatsiyalar 0610-0690 schyotlarning debeti va kreditida қuyidagi buxgalteriya ўtқazmalari bilan aks ettiriladi:

| T-b № | Operatsiyaning mazmuni | Debet schet | Kredit schet | YOzuvga asos bўluvchi xujjat |
|---|---|---|---|---|
| 1. | Uzok muddatli investitsiyalarni pul mablaғlari bilan kiritish ( aktsiya va boshқa қimmatli қoғozlarni sotib olish, ta`sis badali, қarz va kredit berish) | 0610-0690 | Pul mablaғ-lari schetlari | SHartnoma, kassa va bank qujjatlari |
| 2. | Uzoқ muddatli investitsiyalarni bepul (қaytarib bermaslik sharti bilan ) olish | 0610 | 8530 | SHartnoma, kassa va bank qujjatlari |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 3. | Қiska muddatli investitsiyalarni uzoқ muddatli investitsiyalarga ўtkazish | 0610-0690 | 5810-5890 | SHartnoma, dalolatnoma |
| 4. | Uzok muddatli investitsiyalarni қisқa muddatli investitsiyalarga ўtқazish | 5810-5890 | 0610-0690 | SHartnoma, dalolatnoma |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 5. | Asosiy vositalarni uzoқ muddatli investitsiya sifatida kiritish | 0610-0690 (9210 | 9210<br>0110-0190) | SHartnoma Schet-faktura, dalolatnoma, |
| 6. | Boshқa aktivlarni uzoқ muddali investitsiya sifatida kiritish | 0610-0690 (9220 | 9220<br>04,10,12 va boshқa-lar | SHartnoma, schet-faktura, dalolatnoma |
| 7. | Sotib olish va nominal kiymatlar ўrtasidagi farқ ( kamiga)<br>( kўpiga ) | 0610<br>9620 | 9560<br>0610 | SHartnoma, guvoqnoma, schet –faktura |
| 8. | Investitsiya buyicha valyuta kurslari farқiga<br>A) Қiymatga kiritilganda<br>Қiymatdan chegirilganda<br>B) moliyaviy natijaga olib borilganda<br>Ijobiy summaga<br>Salbiy summaga | <br><br>0610<br>9690<br><br><br>0610<br>9690 | <br><br>9560<br>0610<br><br><br>9560<br>0610 | Kursni uzgarishi tugrisidagi mlumotnoma |
| 9. | Investitsiyalarni sotilishi | 9220<br>50,51,52 | 0610-0690<br>9220 | Dalolatnoma, kassa va bank xujjatlari |
| 10. | Қimmatli қoғozlarning kamomadi | 4730 | 0610 | Dalolatnoma, takkoslash kaydnomasi |
| 11. | Investitsiyalarni qisobdan chiқarish | 9430<br>9220 | 9220<br>0610-0690 | Karor, dalolatnoma, shartnoma |
| 12. | Moliyaviy investitsiyalardan qisoblangan | | | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | daromadlarga:<br>- foizlarga<br>-dividendlarga | <br>4830<br>4840 | <br>9530<br>9520 | <br>Avizo-xabar,<br>xat, raschet |

Moliyaviy investitsiyalarning analitik qisobi korxonalar bўyicha investitsiyaning turlariga kўra olib boriladi.

Moliyaviy investitsiyalarni inventarizatsiya қilish 19-son BXMS «Inventarizatsiyani tashkil қilish va ўtқazish» ga muvofiқ ( p.3.32-3.36 ) olib boriladi. Inventarizatsiyada aniқlangan ortiқchalar korxona daromadiga, kamomadlar esa aybdor shaxslar bўyniga olib boriladi.

## 3.Kapital investitsiyalarning qisobi

**Kapital investitsiyalar** – bu yangi ob`ektlarni қurishga, eski ob`ektlarni kengaytirish, rekonstruktsiya va modernizatsiya қilishga, shuningdek yangi asosiy vositalarni sotib olishga sarflangan mablaғlar majmuasi. Ўzbek tili luғatida bu sўzning «kapital қўyilmalar» nomli sinonimi qam mavjud.

Xalқaro standartlarda va Ўzbekiston Respublikasining milliy standartlarida (BQMS № 5, 17) bu xarakterdagi xarajatlar asosiy vositalarning boshlanғich қiymatini kўpaytiradigan xarajatlar deb tan olinadi.

Kapital investitsiyalar xarakteriga kўra ichki investitsiya qisoblanadi, ular bevosita korxonaning қudratini oshirishga yўnaltirilgan mablaғlardir.

Kapital investitsiyalar ikki usulda amalga oshirilishi mumkin: pudrat usulida va xўjalik usulida.

**Pudrat usulidagi kapital investitsiyalar** 17 – son BQMS «Kapital қurilishga doir pudrat shartnomalari» ga muvofiқ pudratchi, ya`ni қurib beruvchi, va buyurtmachi ўrtasida tuziladigan pudrat shartnomasi asosida amalga oshiriladi. Pudratchi shartnomaga muvofiқ yangi ob`ektni қurish, mavjud ob`ektlarni kengaytirish, rekonstruktsiya yoki modernizatsiya қilish kabi ishlarni bajaradi. Buyurtmachi esa shartnomada kўrsatilgan bajarilgan ishlar uchun pudratchiga qaқ tўlaydi. Bajarilgan ishlar bosқichma–bosқich yoki tўliғicha komissiya tomonidan қabul қilinishi mumkin. Bosқichma-bosқich usulda pudratchi ishning tugatilgan қismini қabul қilish-topshirish dalolatnomalariga asosan buyurtmachiga topshiradi. Tўliғicha usulda shartnomada kўrsatilgan ish tўliғicha bajarilgandan sўng қabul қilish-topshirish dalolatnomasi bilan rasmiylashtiriladi. Birinchi

usulda buyurtmachi uchun ishning қabul қilingan bosқichi қiymati, ikkinchi usulda esa tўliғicha қabul қilingan ish қiymati kapital investitsiya summasini tashkil etadi.

**Xўjalik usulidagi kapital investitsiyalar** korxonaning ўz kuchi bilan amalga oshirilgan yangi қurilish, kengaytirish, rekonstruktsiya yoki modernizatsiya ishlarining қiymatidan tashkil topadi. Bu usulda barcha ishlar korxonaning maxsus balansga ajratilmagan қurilish guruqi yoki bўlimi tomonidan tasdiқlangan loyiqa va xarajat smetalariga muvofiқ amalga oshiriladi. Bajarilgan ish xuddi pudrat usulidagidek bosқichma-bosқich yoki tўliғicha komissiya tomonidan қabul қilinadi va tegishli dalolatnomalar bilan rasmiylashtiriladi.

Pudrat yoki xўjalik usulida amalga oshirilgan kapital investitsiyalarning qisobi schyotlar rejasida kўzda tutilgan № 0800 «Kapital қўyilmalar qisobi schyotlari» yordamida qisobga olinadi. 21-son BQMSda asosiy vositalarga doir kapital investitsiyalarni qisobga olish uchun қўyidagi schyotlar kўzda tutilgan:

- 0810 «Tugallanmagan қurilish»
- 0820 «Asosiy vositalarni sotib olish»
- 0840 «Asosiy podani shakllantirish»
- 0890 «Boshқa kapital қўyilmalar»

**0810 «Tugallanmagan қurilish»** schyoti pudrat va xўjalik usullarida olib borilgan yangi қurilishga sarflangan kapital investitsiyalarning qisobi uchun mўljallangan. Uning debetida sarflangan kapital қўyilmalar tўғrisida ma`lumotlar jamlanadi, kreditida esa kapital investitsiya summasini asosiy vositalarning boshlanғich қiymatiga kiritilishi aks ettiriladi. Schyotning қoldiғi faқat debet tomonida bўlib, u tugallanmagan қurilishga tўғri keladigan kapital қўyilmalar summasini kўrsatadi.

**0820 «Asosiy vositalarni sotib olish»** schyoti korxonaning yangi asosiy vositalarni sotib olishga yўnaltirgan kapital investitsiyalarini qisobga olishga mўljallangan. Ushbu schyotning debetida ta`minotchidan қabul қilingan asosiy vositaning қiymati, shuningdek uni tashib keltirish, ўrnatish, montaj қilish va boshқa xarajatlari aks ettiriladi, kreditida esa schyotning debetida tўplangan summani asosiy vositalarning boshlanғich қiymatiga kiritilishi kўrsatiladi. Debet va kredit oborotlari summalari teng bўlganligi uchun bu schyot sal'doga ega bўlmaydi.

**0840 «Asosiy podani shakllantirish»** schyoti ishchi va maqsuldor qayvonlari mavjud xўjaliklarda ishlatiladi. Ushbu schyotning debetida ўstirishdagi va boқuvdagi qayvonlarni asosiy ishchi va nasldor qayvonlarga ўtkazishga ketgan kapital investitsiyalar, shuningdek ishchi va maqsuldor qayvonlarni sotib olishga doir kapital investitsiyalar, bepul olingan ishchi va nasldor qayvonlarni tashib keltirish xarajatlari jamlanadi. YOsh ўstirishdagi va

boқuvdagi qayvonlarni asosiy podaga ўtkazish bilan bu turdagi kapital investitsiyalar ishchi va maqsuldor qayvonlarning (schet № 0170) boshlanғich қiymatiga kiritiladi.

**0890 «Boshқa kapital қўyilmalar»** schyotida yuқoridagi schyotlarga kiritilmagan kapital investitsiyalar, jumladan asosiy vositalarni kengaytirishga, rekonstruktsiya va modernizatsiyasiga sarflangan kapital қўyilmalar qisobga olinadi. Bu xarakterdagi қўyilmalarning summalari kengaytirish, rekonstruktsiya va modernizatsiya қilish dalolatnomalari asosida qarakatda bўlib kelgan asosiy vositalarning boshlanғich қiymatiga kiritiladi.

## Ўz-ўzini sinash uchun test savol-javoblari

**1.Қuyidagilarning қaysi biri nomoddiy aktivlarga kirmaydi**

a) Binolar
b) Gudvil
v) Mualliflik quқuқi
g) Franshizalar

**2.Қўyidagilarning қaysi biri ishlab chiқarishga doir nomoddiy aktivlarga kirmaydi**

a) Franshizalar
b) Patent
v) “1-S “ buxgalteriya dasturi
g) Ishlab chiқarishga doir litsenziya

**3.Bepul kelib tushgan nomoddiy aktiv**

a) Rezerv kapitaliga olinadi
b) Korxonaning foydasiga olinadi
v) Korxona xarajatlarini kamaytirishga olib boriladi
g) Қўshilgan kapitalga olinadi

**4.Ta`sischilardan olingan nomoddiy aktivlar kirim қilinadi**

a) Sotish baqosida
b) Kelishuv baqosida
v) Қoldiқ baqosida
g) Qoqlagan baqoda

**5. Kapital investitsiyalar**

a) Nomoddiy aktivning қiymatini oshiradi
b) Nomoddiy aktivning қiymatini oshirmaydi
v) Ta`mirlash bilan boғliқ xarajatlar
g) Sotish bilan boғliқ xarajatlar

**6.Nomoddiy aktivlar ustav kapitaliga ishtirokchilarning ulushi sifatida kiritilganda kanday buxgalteriya yozuvi kilinadi?**

a) Dt 0410-0490 Kt 4710
b) Dt 0410 Kt 8510
v) Dt 0410-0490 Kt 5110
g) Dt 0410 Kt 4810

**7. Nomoddiy aktivlar қachon va қaysi muddatlarda inventarizatsiya қilinadi**

a) Qar oyning oxirida
b) Qar yilning oxirida
v) Qar chorakning boshida
g) Qar chorakning oxirida

**8.Moliyaviy investitsiyaga kiradi**

a) Korxonaning nomoddiy aktivlari
b) Korxonaning bir yildan kўp xizmat қiladigan moddiy aktivlari
v) Korxonaning kapital sarflari
g) Korxonaning moliyaviy қuyilmalari

**9.Қuyidagilarning қaysi biri moliyaviy investitsiyalarga kirmaydi**

a) Olingan kreditlar
b) Berilgan kreditlar
v) Aktsiyalar
g) Ta`sis badali

**10.Қўyidagilarning қaysi biri ta`sis badali sifatida kiritiladigan moliyaviy investitsiyalarga kirmaydi**

a) Kiritilgan stanok
b) Berilgan Gaz -3110
v) Berilgan kredit
g) Ўtқazib berilgan pul mablaғlari

**11.Қuyidagilarning қaysi biri aktsiyaning nominal қiymatini tashkil қiladi ?**

a) Aktsiyaning sotish baqosi
b) Aktsiyaning tipografik usulda yozilgan қiymati
v) Qisoblangan dividend summasi
g) Tўlangan dividend summasi

**12.Қuyidagilarni қaysi biri tuғri**

a) Moliyaviy investitsiyalar қaytarilmaydi
b) Moliyaviy investitsiyalar қisman қaytariladi
v) Moliyaviy investitsiyalar tўliқ қaytariladi
g) Moliyaviy investitsiyalar tўliқ kaytarilmaydi

**13.Aktsiyalar**

a) foiz ishlash uchun sotib olinadi
b) dividend olish uchun sotib olinadi
v) dividend berish uchun sotib olinadi
g) Foiz tўlash uchun sotib olinadi

**14..Қarz sifatida kiritilgan investitsiyalarga kirmaydi**

a) karzga berilgan asosiy vositalar
b) қarzga berilgan pul mablaғlari mablaғlari
v) kredit sifatida berilgan pul mablaғlari
g) қarzga berilgan nomoddiy aktivlar

**Mavzuni o`rganish uchun tavsiya etiladigan me`yoriy xujjatlar va davriy adabiyotlar**

1. *Ўzbekiston Respublikasining buxgalteriya qisobi tўғrisida қonuni. 1996 yil 30 avgustda қabul қilingan.*
2. *Moliyaviy qisobotni tayyorlash va taқdim etish uchun Kontseptual asos. Ўz.R. Adliya Vazirligidan 1998 yil 14 avgustda ro`yxatdan o`tgan, № 475.*
3. *BQMS № 1 «Qisob siyosati va moliyaviy qisobot. Ўz.R. Adliya Vazirligidan 1998 yil 14 avgustda ro`yxatdan o`tgan, № 474.*
4. *BQMS № 5 «Asosiy vositalar». Ўz.R. Adliya Vazirligidan 2004 yil 20 yanvarda ro`yxatdan o`tgan, № 1299.*
5. *BQMS № 6 « Lizing qisobi». Ўz.R. Adliya Vazirligidan 1998 yil 16 sentyabrda ro`yxatdan o`tgan, № 503.*
6. *BQMS № 7 « Nomoddiy aktivlar». Ўz.R. Adliya Vazirligidan 1998 yil 20 sentyabrda ro`yxatdan o`tgan, № 506.*
7. *BQMS № 11 « Ilmiy - tadқiқot va malaka – konstruktorlik ishlanmalariga ketgan xarajatlar». Ўz.R. Adliya Vazirligidan 1998 yil 28 dekabrda ro`yxatdan o`tgan, № 581.*
8. *BQMS № 12 « Moliyaviy investitsiyalarning qisobi». Ўz.R. Adliya Vazirligidan 1999 yil 16 yanvarda ro`yxatdan o`tgan, № 596.*
9. *BXMS № 19 «Inventarizatsiyani tashkil қilish va o`tқazish ». Ўz.R. Adliya Vazirligidan 1999 yil 2 noyabrda ro`yxatdan o`tgan, № 833.*
10. *BXMS № 21 «Xo`jalik yurituvchi sub`ektlar moliyaviy xo`jaligi buxgalteriya qisobining schyotlar rejasi va uni қo`llash bo`yicha yo`riқnoma. Ўz.R. Adliya Vazirligidan 2002 yil 23 oktyabrda ro`yxatdan o`tgan, № 1181.*
11. *Abdullaev A. Қayumov I. Buxgalteriya qisobi. T, «Minqoj» nashriyoti, 2002.*
12. *Bobojonov O. Moliyaviy qisob. T., «SHarқ», 2000.*
13. *Bobojonov O., Jumaniyozov K. Moliyaviy qisob. T., «Moliya», 2002.*
14. *Umarova M., eshboev Ў., Axmadjonov Қ. Buxgalteriya qisobi, T., Meqnat, 1999*
15. *Fulomova F.F. Buxgalteriya qisobi bo`yicha mustaқil o`rganish uchun қo`llanma.T., Iқtisodiyot va quқuқ dunyosi» nashriyot uyi, 2000.*
16. *Ўrazov K.B. Investitsiyalarning buxgalteriya qisobi va soliққa tortilishi. Monografiya. "Iқtisodiyot va quқuқ dunyosi" nashriyot uyi, Toshkent, 2003*

## Ma`ruza 7. ISHLAB CHIҚARISH ZAQIRALARI VA XARAJATLARINING QISOBI

**(2 soat)**

## Ma`ruza rejasi

*1.Ishlab chiқarish zaqiralarining qisobi*
*2.Ishlab chiқarish qarajatlarining qisobi*

### 1. Ishlab chiқarish zaqiralarining qisobi

Xўjalik yuritishning muqim omili bўlib korxonaning ishlab chiқarish zaqiralariga ega bўlishligi qisoblanadi.

**Ishlab chiқarish zaxiralari** –bu ishlab chiқarishning moddiy asosini tashkil etuvchi meqnat predmetlaridir. 4-son BQMS «Tovar-moddiy zaqiralar» ga muvofiқ, ishlab chiқarish zaqiralariga қuyidagi kўrinishlarga ega bўlgan aktivlar kiradi:

• **Xom- ashyo va materiallar** – maqsulot (ish, xizmat) ni ishlab chiқarish (bajarish)da uning moddiy asosini tashkil қiluvchi meqnat predmetlari;

• **YArim tayyor maqsulotlar (polufabrikatlar) –** bu ishlovning ma`lum texnologik bosқichlaridan ўtgan, lekinda mustaқil tayyor material sifatida tan olinishi mumkin bўlmagan, keyingi ishlavga muqtoj meqnat predmetlari;

• **Butlovchi қismlar –** bu buyumni bir butun qolatga keltirishda zarur bўlgan қismlari.

• **YOқilғi** – bu ishlab chiқarishda ishlatiladigan yoқilғilar (benzin, kerosin, salyarka, suyultirilgan gaz va boshқalar);

• **Moylash materiallari –** bu texnik vositalarni ishlatishga ketadigan solidol, aftol va shu kabi moylar.

• **Eqtiyot қismlar** – bu texnik vositalarning tarkibiy unsurlari ( porshen, gil'za, ballon, kamera va boshқalar );

• **Қurilish materiallari** – bu ob`ektlarni қurish, ta`mirlashda қullaniladigan materiallar (ғisht, taxta, tsement va boshқalar);

• **Em-xashaklar –** bu korxonalarning balansida turgan qayvonlarni saқlash, ўstirish, boқish uchun etishtirilgan, sotib olingan omuxtalar, kўkat ўtlar, silos, yontoқ, samon va shu kabi em-xashaklar.

• **Tara** – bu maqsulotlarni ўrashda, tashishda, saқlashda ishlatiladigan aktivlar ( butulka, bochka, yashik , xalta va boshқalar );

Ishlab chiқarish zaqiralariga yuқoridagilardan tashқari istesno tariқasida inventarlar va xo`jalik buyumlari, shuningdek o`stirishdagi va boқuvdagi mollar qam kiradi.

Ishlab chiқarish zaqiralari ishlab chiқarishdagi roliga kўra asosiy va yordamchi zaxiralarga bўlinadi.

**Asosiy ishlab chiқarish zaqirasi** deganda ishlab chiқariladigan maqsulotni asosiy komponentini tashkil etadigan xom - ashyo materiallar tushuniladi. Masalan, kolbasa ishlab chiқaruvchi korxona uchun asosiy xom-ashyo material bўlib gўsht qisoblanadi. Қolgan materiallar, aytaylik, chesnok, қalampir, tuz, sirka, ўrash plyonkasi, shpagat va boshқalar ushbu korxona uchun yordamchi materiallar qisoblanadi. Xuddi shunday қurilish tashkilotida қurilish materiallari, transport korxonasida eqtiyot қismlar asosiy ishlab chiқarish zaxiralari bўlib xizmat қiladi.

**Ishlab chiқarish zaqiralari qisobining vazifalari.** Ishlab chiқarish zaxiralari bўyicha buxgalteriya qisobining asosiy vazifalariga қuyidagilar kiradi:

- Ishlab chiқarish zaxiralarini ularning moxiyatini ochib beruvchi mezonlariga mos ravishda xisobga olish;
- Ishlab chiқarish zaxiralarini tugri turkumlash va guruxlarga ajratish;
- Ishlab chiқarish zaxiralarini tugri baxolash;
- Ishlab chiқarish zaxiralariga kilingan kushimcha xarajatlarni (tashib keltirish, boj va soliқ tўlovlari, kurs ўrtasidagi farқlar, ustamalar, sertifikatsiyalash va boshқalar) tugri xisobga olish, ularni uz vaktida sotib olingan zaxiralar tannarxiga (kiymatiga) yoki korxona xarajatlariga kiritish.
- Ishlab chiқarish zaxiralari xolati va xarakatini tugri, uz vaktida va tegishli boshlangich xujjatlar bilan rasmiylashtirish xisobga olish;
- Ishlab chiқarish zaxiralariga moddiy javobgarlikni ta`minlash, moddiy javobgar shaxslar tomonidan qisobotlarni tuғri va ўz vaқtida tuzilishi, taқdim etilishini nazorat қilish;
- Ishlab chiқarish zaxiralari qolati va xarakati bўyicha moddiy javobgar shaxslarning qisobotlari ma`lumotlari va qisob ma`lumotlarini tўliқ uyғunligini ta`minlash;
- Ishlab chiқarish zaxiralarining butligini ta`minlash, buning uchun ularni belgilangan muddatlarda kayta ruyxatdan utkazish (inventarizatsiya kilish), uning natijalarini tugri aniklash va xisobga olish;
- Mavjud ishlab chiқarish zaxiralaridan unumli foydalanish, buning uchun omborlarda me`eridan ortiқ zaxiralarni saқlamaslik, ularni қўshimcha nobudgarchiliklariga yўl қўymaslik, keraksiz materiallarni sotish va uning natijalarini tugri xisobga olish;
- Ishlab chiқarish zaxiralarini asosli ravishda қayta baqolash va uning natijalarini qisobda tўғri aks ettirish;

• Arzon baqoli buyumlarning eskirishini tўғri qisoblash, tўлиқ eskirgan buyumlarni ўz vақтida qisobdan chiқarish, ularni balans қiymatini qisobotda tўғri aks ettirish.

**Ishlab chiқarish zaqiralarini baqolash.** Ishlab chiқarish zaxiralari 4-son BQMS «Tovar- moddiy zaxiralarga muvofiқ (p.7) ularning tannarxi yoki sotilishini sof қiymatidan biri bўyicha eng kichigini tanlash yўli bilan baqolanadi.

**Ishlab chiқarish zaxiralarining tannarxi-**bu ularni sotib olishga yoki ishlab chiқarishga ketgan barcha xarajatlar majmuasi.

**Sotib olingan ishlab chiқarish zaxiralarining tannarxi** ularni sotib olish қiymati, bojxona yiғim va tўlovlari, sertifikatsiya xarajatlari, komissiya tўlovi, transport-tayyorlov va boshқa sotib olishda ketgan xarajatlarni ўz ichiga oladi. Қўshilgan қiymat soliғini (ҚҚS) tўlovchi qisoblanmagan korxonalarda ishlab chiқarish zaxiralarini sotib olishda ta`minotchilarga tўlangan ҚҚS qam ularning tannarxiga kiritiladi. ҚҚS ni tўlovchi korxonalarda zaxiralarni sotib olishda tўlangan ҚҚS summasi byudjetga ushbu soliқ bўyicha қarzdan chegiriladi (zachetga olinadi).

**Ishlab chiқarilgan zaxiralarning tannarxi –** bu ўz kuchi bilan ishlab chiқarilgan materiallar va boshқa zaxiralarga ketgan bevosita va bilvosita moddiy, meqnat va boshқa ustama xarajatlar majmuasi.

**Sotishning sof қiymati** –bu ishlab chiқarish zaxirasining tannarxidan kichik қiymati bўlib, faқatgina ularni keragidan кўp miқdorda yiғilib қolganida baqoni pasaytirish qollarida vujudga keladi. Bunday qolda ishlab chiқarish zaxiralari pasaytirilgan baqolarda, ya`ni sotishning sof қiymatida balansda aks ettiriladi.

Ishlab chiқarish zaxiralari қiymati 4- son BQMS ga muvofiқ (p. 16-18) қuyidagi usullarning birida baqolanadi:

• **FIFO** –zaxiralarni kelib tushish vақtidagi baqosida chiқim қilish, ya`ni birinchi tushum, birinchi chiқim .Ushbu usulda oldin kelgan zaxira oldin sarflanadi va ishlab chiқarish tannarxiga kelib tushgan baqosida kiritiladi, ushbu zaxira tugagach, keyingi tushgan zaxira tushgandagi baqosida sarflanadi va ishlab chiқarish tannarxiga kiritiladi. Ushbu usulning xarakterli xususiyati shundaki, qisobot davri oxirida korxonada faқatgina oxirgi navbatda va baqolarda kelib tushgan zaxiralar қoladi. Keyingi oyda қolgan zaxiraning chiқimi birinchi navbatda kelib tushgan baqosida ishlab chiқarish tannarxiga kiritiladi. Masalan, «A» material 5 yanvarda 1000 dona 100 sumdan jami 100000 sumga, 15 yanvarda 2000 dona 150 sumdan 300000 sumga, 20 yanvarda 1000 dona 200 sumdan 200000 sumga kelib tushdi. Aytaylik, yanvarda jami materiallardan 3500 donasi ishlab chiқarishga sarflandi. Ishlab chiқarish tannarxiga kiritilgan zaxiralarning қiymati ushbu usulda jami 500000 sumni tashkil etadi. Oy oxirida omborda 20 yanvarda kelib tushgan va ishlatilmay қolgan 500 dona material 200 sumdan jami 100000 sumga zaxira bўlib

қoladi. Keyingi oyda ushbu materialni ishlab chiқarishga sarflanishi aynan shu baqoda, ya`ni 200 sumdan chiқim қilinadi.

• **AVEKO** – bu zaxiralar қiymatini ўrtacha narxlardagi baqolar bўyicha qisobdan chiқarish usuli. YUқoridagi misolimizda kelib tushgan bir dona materialning ўrtacha қiymati 150 sўmni (600000/4000), ishlab chiқarishga sarflangan materialning қiymati 525000 sumni (3500*150 ) va oy oxirida қolgan materiallar қiymati 75000 sўmni (500*150) tashkil etadi.

• **LIFO** – bu zaxiralarni oxirgi tushum baqosidan boshlab qisobdan chiқarish usuli. YUқoridagi misolda ishlab chiқarishga sarflangan materiallar қiymati 550000 sumni (1000*200+2000*150+500*100), oy ixirida қolgan materiallar қiymati – 50000 sўmni (500*100) tashkil etadi. Baqolarni ўsib borishi yuz berayotgan sharoitda ushbu usul dastlab tannarxni oshishiga, keyinchalik esa kamayishiga, oy oxirida eski narxlardagi materiallarni omborlarda қolib ketishiga olib keladi. SHuning uchun materiallarni kўp martalab қayta baqolash zaruriyati tuғiladi.

Zaxiralarning yuқorida keltirilgan usullari ishlab chiқarilgan maqsulotlarni tannarxiga va ularning қoldiқ қiymatiga turlicha ta`sir kўrsatadi. CHunonchi, eng kichik tannarx va eng katta zaxiralar қoldiғi FIFOda, eng katta tannarx va eng kichik zaxiralar қoldiғi LIFO da yuz beradi. Bizning misolimizda, jumladan bu қuyidagicha:

| KЎRSATKICHLAR | FIFO | AVEKO | LIFO |
|---|---|---|---|
| Tannarx | 500000 | 525000 | 550000 |
| Zaxira қoldiғi | 100000 | 75000 | 50000 |

Ishlab chiқarish zaxiralari қiymatini baqolash usullari tannarx orқali foydaga, u orқali esa foydadan( daromaddan) olinadigan soliқlarga qam turlicha ta`sir kўrsatadi. Misol uchun zaxiralardan 3500 donasi 250 sumdan sotildi deylik. Bunda korxonaning sotishdan olgan foydasi va foydadan olinadigan soliқlar (davr xarajatlari , soliқ bazasiga қayta қўshiladigan xarajatlar va imtiyozlar qisobga olinmagan shartli ravishda) қuyidagicha bўladi.

| KЎRSATKICHLAR | FIFO | AVEKO | LIFO |
|---|---|---|---|
| Sof tushum | 875000 | 875000 | 875000 |
| Tannarx | 500000 | 525000 | 550000 |
| Foyda | 375000 | 350000 | 325000 |
| Foyda soliғi, 20% | 75000 | 70000 | 65000 |
| Infrastruktura- | | | |

| | | | |
|---|---|---|---|
| ni rivojlanti-rish soliғi, 8% | 24000 | 22400 | 20800 |

Misoldan кўrinib turibdiki, eng katta foydadan olinadigan soliқlar FIFO da, eng kichigi esa LIFO da namoyon bўladi.

BXMS №4 ga muvofиқ (p.17) Ўzbekiston Respublikasida кўproқ e`tiborli bўlgan FIFO va AVEKO usullarni қўllash кўzda tutilgan, LIFO usulini қўllash кўzda tutilmagan.

Xўjalik yurituvchi sub`ektlar ishlab chiқarish zaxiralarining қiymatini baqolashning yuқorida keltirilgan FIFO va AVEKO usullaridan birini tanlab olishlari va uni ўzlarining qisob siyosatlarida кўrsatishlari kerak. Bir vaқtning ўzida ikki usulni қўllash ta`қiқlanadi. Bir usuldan ikkinchisiga asos bўlganda ўtish mumkin va bu tўғrida qisob siyosatiga kiritilgan ўzgaritirishlar tegishli organlarga etkazilishi kerak.

**Ishlab chiқarish zaxiralarining saқlash joylaridagi qisobi.** Korxonalarda ishlab chiқarish zaxiralarining saқlanish joylari bўlib omborlar, tsexlar, maydonchalar, uchastkalar, molxonalar va boshқalar qisoblanadi. Barcha saқlash joylarida zaxiralar bўyicha aniқ moddiy javobgar shaxslar belgilanadi va ular bilan moddiy javobgarlik tўғrisida shartnomalar tuziladi.

Moddiy javobgar shaxslar bўlib ombor mudirlari, tsex boshliқlari, xўjalik bўlimi mudirlari, prorablar, garaj boshliғi, mol boқar cho`ponlar, bo`rdoқichilik bazalari mudirlari va boshқalar qisoblanadi.

Moddiy javobgar shaxslarning asosiy vazifalariga ishlab chiқarish zaxiralarini ўz vaқtida kirim қilish, korxona raxbari farmoyishi bilan ularni ishlab chiқarish tsexlari va uchastkalariga кўrsatilgan miқdorda berish, moddiy boyliklarni butligini tўliқ ta`minlash, talon-tarojlikga yul қўymaslik, zaxiralarning kirim va chiқimini tўғri va ўz vaқtida tegishli qujjatlar bilan rasmiylashtirish, ularning qolati va xarakati tўғrisida qisobotlarni belgilangan muddatlarda tўғri tuzish va buxgalteriyaga topshirish kiradi.

Ishlab chiқarish zaxiralari ularning saқlanish joylarida soniy va summaviy jixatdan miқdor va pul ўlchovlarida qisobga olinadi. Buning uchun qar bir ishlab chiқarish zaxirasiga inventar kartochka ochiladi yoki umumiy obmor kitobi yuritiladi. Bunda қuyidagi boshlanғich va jamlama qujjatlar ishlatiladi:

- **Kirim bўyicha:**

1. Schyot faktura – tashқi ta`minotchilardan olingan ishlab chiқarish zaxiralarini қabul қilishda.
2. Nakladnoy- ichki bўlinmalardan kirim қilishda.
3. Қabul қilish dalolatnomasi – ta`sischilardan, boshқa shaxslardan қaytarib bermaslik sharti bilan қabul қilinganda, ichki almashuvda, yordamchi ishlab chiқarishdan

olinganda, ilmiy izlanishlar va tajriba –konstruktorlik ishlanmalari natijasi sifatida kirim қilinganda va boshқa qollarda.

**4.** Inventarizatsiya varaғi va taққoslama қaydnoma – inventarizatsiyada ortiқchalar aniқlanganda, bir moddiy javobgar shaxsdan ikkinsisiga topshirilganda

**• CHiқim bўyicha:**

Talabnoma – ombordan ishlab chiқarishga berilganda

2.Zabor varaқasi - bir moddiy javobgar shaxsdan ikkinchisiga qar kunda ma`lum miқdordagi materiallarni berib borish qollarida

3.Schet-faktura – materiallar chetga sotilganda, bepul berilganda, ta`sis badali sifatida kiritilganda va boshқa qollarda

4.Qisobdan chiқarish dalolatnomalari – materiallarni qisobdan chiқarish qollari bulganda va boshқalar.

Moddiy javobgar shaxslar kirim va chiқim qujjatlari asosida belgilangan muddatlarda (qisob siyosatiga muvofiқ belgilangan muddatlarda) moddiy qisobot tuzadilar. Ushbu qisobotlar tasdiқlangan shakllarda tuziladi. Ularda ishlab chiқarish zaqiralarining qolati va xarakati soniy va summaviy kўrinishda aks ettiriladi. Moddiy qisobotlar ikki nusxada tuziladi, moddiy javobgar shaxslar tomonidan imzolanadi va ularning birinchi nusxasi buxgalteriyaga topshiriladi. Aynan moddiy qisobotlar va ularga tikilgan birlamchi qujjatlar ishlab chiқarish zaqiralarining sintetik qisobini yuritishga asos bўlib qisoblanadi.

**Materiallarning sintetik qisobi.** Materiallarining sintetik qisobini yuritish uchun 21-son BQMS da қuyidagi schyotlar kўzda tutilgan.

• **1010 «Xom–ashyo va materiallar».** Ushbu schyotning debetida asosiy va yordamchi xom-ashyo va materiallarning, қayta ishlov uchun tayyorlangan қishloқ xo`jalik maqsulotlarining, em-xashak va to`shash materiallarining boshlanғich қoldiғi va ularni turli manbalardan kelib tushush evaziga ko`payishi, kreditida esa – materiallarning ishlab chiқarishga sarfi va boshқa chiқimlari natijasida kamayishi tannarx yoki sof sotish қiymatlaridan eng kichik bo`lgan қiymatda aks ettiriladi.

• **1020 «Sotib olingan yarim tayyor maqsulotlar va butlovchi buyumlar».** Ushbu schyotning debetida yarim tayyor maqsulotlar, butlovchi buyumlar, қurilish detallari va konstruktsiyalarining mavjud қoldiқlari va ularni chetdan sotib olish evaziga ko`payishi, kreditida esa – ularning ishlab chiқarishga, қurilishga sarfi va boshқa chiқimlari natijasida kamayishi tannarx yoki sof sotish қiymatlaridan eng kichik bo`lgan қiymatda aks ettiriladi.

• **1030 «YOқilғi».** Ushbu schetning debetida mavjud neft’ maqsulotlari, yoқilғi-moylash materiallarining (neft’, benzin, kerosin, dizel yoқilғisi, moylar va boshқalar),

gazsimon yoқilғi turlarining (gaz va gazolin), shuningdek қattiқ yoқilғi turlarining (ko`mir, o`tin va boshқalar) қoldiғi va ularni chetdan sotib olish evaziga ko`payishi, kreditida esa – ularning ishlab chiқarish va boshқaruvga sarfi, shuningdek boshқa chiқimlari natijasida kamayishi tannarx yoki sof sotish қiymatlaridan eng kichik bo`lgan қiymatda aks ettiriladi.

• **1040 «Eqtiyot қismlar».** Ushbu schetning debetida mashina va mexanizlar, transport vositalarini ta`mirlash uchun zarur bo`lgan eqtiyot қismlari, avtomobillarning zaqiradagi shinalarining mavjud қoldiғi va ularni chetdan sotib olish evaziga ko`payishi, kreditida esa – ularning ishlab chiқarish va boshқaruvga sarfi, shuningdek boshқa chiқimlari natijasida kamayishi tannarx yoki sof sotish қiymatlaridan eng kichik bo`lgan қiymatda aks ettiriladi.

• **1050 «Қurilish materiallari».** Ushbu schetning debetida қurilish, қurilish –montaj ishlari, қurilish detallari va konstruktsiyalarini yasash uchun zarur bo`lgan қurilish materiallarining zaqiradagi mavjud қoldiғi va ularni chetdan sotib olish evaziga ko`payishi, kreditida esa – ularning қurilish, қurilish-montaj ishlariga, turli konstruktsiyalarni ishlab chiқarishga sarfi, shuningdek boshқa chiқimlari natijasida kamayishi tannarx yoki sof sotish қiymatlaridan eng kichik bo`lgan қiymatda aks ettiriladi.

• **1060 «Tara va tara materiallari».** Ushbu schetning debetida xo`jalik inventari va buyumi sifatida ishlatilmayotgan barcha turdagi taralar, taralarni yasash va ta`mirlash uchun zarur bo`lgan material va detallarning zaqiradagi mavjud қoldiғi va ularni chetdan sotib olish evaziga ko`payishi, kreditida esa – ularning ishlatilishi, shuningdek boshқa chiқimlari natijasida kamayishi tannarx yoki sof sotish қiymatlaridan eng kichik bo`lgan қiymatda aks ettiriladi.

• **1070 «CHetga қayta ishlash uchun berilgan materiallar».** Ushbu schetning debetida chetga қayta ishlash uchun berilishi mumkin bo`lgan asosiy va yordamchi materiallarning zaqiradagi mavjud қoldiғi va ularni chetdan sotib olish evaziga ko`payishi, kreditida esa – ularning ishlatilishi, shuningdek boshқa chiқimlari natijasida kamayishi tannarx yoki sof sotish қiymatlaridan eng kichik bo`lgan қiymatda aks ettiriladi.

• **1090 «Boshқa materiallar».** Ushbu schetning debetida yuқoridagi schetlarga kiritilmagan, ishlab chiқarishdan , asosiy vositalarni tugatishdan va boshқa operatsiyalardan olingan moddiy boyliklarning (chiқindilar, tuzatib bo`lmaydigan brak maqsulotlar, metallolom, eski shinalar va rezinalar, ishlatilgan moy, nigrol va sh.k.) zaqiradagi mavjud қoldiғi va ularni ishlab chiқarishdan olinishi evaziga ko`payishi, kreditida esa – ularning ishlatilishi, shuningdek boshқa chiқimlari natijasida kamayishi tannarx yoki sof sotish қiymatlaridan eng kichik bo`lgan қiymatda aks ettiriladi.

• **1510 «Materiallarni tayyorlash va sotib olish».** Ushbu schet korxonaning qisob siyosatida tayyorlov jarayonini aloqida aks ettirish ko`zda tutilgan qolda қo`llaniladi. Uning debetida materiallarni tayyorlash va sotib olish jarayonining қiymati, kreditida esa ushbu қiymatni kirim қilingan materiallar қiymatiga kiritilishi ettiriladi. Agar korxonaning qisob siyosatida materiallarning kirimini bevosita to`ғridan to`ғri 1010-1090 –schetlarda aks ettirish ko`zda tutilgan bo`lsa, u qolda 1510-schet қo`llanilmaydi.

• **1610 « Materiallar қiymatidagi chetlanishlar».** Ushbu schet korxonaning qisob siyosatida materiallarning tayyorlov va sotib olish қiymatini qisob baqolarida aks ettirish ko`zda tutilgan qolda қo`llaniladi. Qisob baqosi bo`lib, odatda, normativ yoki rejali tannarx qisoblanadi. Tayyorlangan (sotib olingan) materiallarning qaқiқiy tannarxini qisob baqosidan ko`p bo`lishi ushbu schetning debetida, kam bo`lishi esa uning kreditida 1510-schet bilan korrespondentsiya-langan qolda aks ettiriladi. 1610-schetning debet қoldiғi summasi qisob baqolaridan ortiқ қiymatda kelib tushgan materiallarga to`ғri keladigan chetlanishlar summasini ko`rsatadi. Baqolar o`rtasidagi farқlar sotib olingan materiallarni qaқiқatda sarflangan vaқtida ularning qisob baqosidagi қiymatiga proportsional ravishda xarajatlar schetlariga kiritilib boriladi.

Materiallarning xarakatiga doir operatsiyalar schyotlarda қuyidagicha aks ettiriladi.

**1. Qisob siyosatida 1510 –schyotni қo`llash ko`zda tutilmagan qolda**

| Tar-tib raқam | Operatsiyaning mazmuni | Debet schyot | Kredit schyot | YOzuvga asos bўluvchi qujjat |
|---|---|---|---|---|
| 1. | Materiallar ta`minotchilardan қabul қilinganda:<br>- zaxiralarni KҚSsiz sotib olish қiymatiga<br>- KҚS summasiga | <br><br>1010-1090<br>4410 | <br><br>6010,<br>4110<br>6010 | <br><br>SHartnoma, schet-faktura |
| 2. | YOrdamchi ishlab chiқarishdan olinganda | 1010-1090 | 2310 | Qisobot, nakladnoy |
| 3. | Qisobdor shaxslardan olinganda | 1010-1090 | 4220-4230 | Bўnak qisoboti |
| 4. | YArim tayyor materiallar xom ashyo va materiallar tarkibiga kiritilganda | 1010-1090 | 2110 | Қaror, nakladnoy |
| 5. | Tayyor maqsulotlar materiallarga aylantirilganda | 1010-1090 | 2810-2820 | Қaror, nakladnoy, talabnoma |
| 6. | Xo`jalik inventarlari va buyumlari | 1010- | 1080 | Қaror, |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | materiallarga aylantirilganda | 1090 | | talabnoma, nakladnoy |
| 7. | Ta`sischilardan olinganda | 1010-1090 | 4610 | Ustav, shartnoma, dalolatnoma, schet-faktura |
| 8. | Da`volar bўyicha olinganda | 1010-1090 | 4860 | Қaror, schet-faktura |
| 9. | Bepul olinganda | 1010-1090 | 8530, | Қaror, schet-faktura, dalolatnoma |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 10. | Moliyaviy yordam sifatida olinganda | 1010-1090 | 9380 | SHartnoma, schet-faktura, dalolatnoma |
| 11. | Kamomadlar o`rniga қabul қilinganda | 1010-1090 | 4730 | Қaror, schet-faktura, dalolatnoma |
| 12. | Nақd sotib olinganda | 1010-1090 | 5010-5020 | Schet-faktura, chiқim kassa orderi |
| 13 | Inventarizatsiya aniқlangan ortiқchalar summasiga | 1010-1090 | 9390 | Inventariza-tsiya varaғi, қaror |
| 14. | Ichki alamashuv bўlganda | 1010-1090 | 1010-1090 | Inventariza-tsiya varaғi, nakladnoy, talabnoma |
| 15 | Қayta baqolanganda:<br>-narxi oshirilganda<br><br>-narxi kamaytirilganda | <br>1010-1090<br><br>9430 | <br>9390<br><br>1010-1090 | Dalolatnoma |
| 16 | Asosiy ishlab chiқarishga sarflanganda | 2010 | 1010-1090 | Talabnoma, nakladnoy |
| 17 | YOrdamchi ishlab chiқarishga | 2310 | 1010- | Talabnoma, |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | sarflanganda | | 1090 | nakladnoy |
| 18 | Umum ishlab chiқarishga sarflanganda | 2510 | 1010-1090 | Talabnoma, nakladnoy |
| 19. | Xizmat қiluvchi xujaliklarga sarflanganda | 2710 | 1010-1090 | Talabnoma, nakladnoy |
| 20. | Reklama uchun sarflanganda | 9410 | 1010-1090 | Talabnoma, nakladnoy |
| 21. | Boshқaruv maқsadlariga sarflanganda | 9420 | 1010-1090 | Talabnoma, nakladnoy |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 22. | Sotilganda:<br>-sotish қiymatiga<br>-ҚҚS summasiga<br>-tannarxiga<br><br>-sotishdan olingan foydaga<br>-sotishdan kўrilgan zararga | <br>4010<br>9220<br>9220<br><br>9220<br>9430 | <br>9220<br>6410<br>1010-1090<br><br>9320<br>9220 | SHartnoma, schet-faktura |
| 23 | Bepul berilganda:<br>-tannarxiga<br><br>-ҚҚS summasiga<br>-kўrilgan zararga | <br>9220<br><br>9220<br>9430 | <br>1010-1090<br><br>6410<br>9220 | Қaror, schet-faktura, shartnoma |
| 24. | Kamomad chiқganda:<br>-moddiy javobgar shaxs bўyniga қўyilganda<br>-karrali ўndirish summasiga<br>-korxona zarariga olib borilganda | <br><br>4730<br>4730<br>9430 | <br>1010-1090<br><br>9390<br>1010-1090 | Dalolatnoma, Қaror |
| 25 | Ta`sis badali sifatida kiritilganda:<br>-kelishuv қiymatiga<br><br>-ҚҚS summasiga<br>-tannarxiga | <br><br>0610-0690<br>9220<br>9220 | <br><br>1010-1090<br>6410<br>1010- | SHartnoma, қaror, schet-faktura |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | foyda summasiga | 9220 | 1090<br>9320 | |
| 26. | Tayyor maxsulotga aylantirilganda | 2810-<br>2820 | 1010-<br>1090 | Қaror, talabnoma, nakladnoy |
| 27 | YArim tayyor materialga aylantirilganda | 2110 | 1010-<br>1090 | Қaror, talabnoma, nakladnoy |
| 28 | Arzon baxoli inventarlarga aylantirilganda | 1080 | 1010-<br>1090 | Қaror, talabnoma, nakladnoy |
| 29. | Tayyorlov- transport xarajatlari tannarxga kiritilganda | 1010-<br>1090 | 1510 | Raschet |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 30 | Brak maqsulotga kiritilganda | 2610 | 1010-<br>1090 | Қaror, talabnoma, nakladnoy |
| 31 | ITI va TKI ga sarflanganda | 3190 | 1010-<br>1090 | Қaror, talabnoma, nakladnoy |
| 32 | Kapital қuyilmalarga kiritilganda | 0810 | 1010-<br>1090 | Қaror, talabnoma, nakladnoy |
| 33 | Ta`minotchilarga қaytarilganda | 6010,<br>4110 | 1010-<br>1090 | Dalolatnoma, schet-faktura |
| 34. | Barter operatsiyalariga kiritilgan materiallarning tannarxiga | 4010 | 1010-<br>1090 | SHartnoma, Schet-faktura |
| 35. | Favқulotdagi xodisalar oқibatlarini bartaraf etishga sarflanganda | 9720 | 1010-<br>1090 | Қaror, schet-faktura, dalolatnoma |

## 2. Qisob siyosatida 1510 –schyotni қo`llash ko`zda tutilgan qolda

| Tar-tib rakami | Operatsiyaning mazmuni | Debet schet | Kredit schet | YOzuvga asos bo`luvchi qujjat |
|---|---|---|---|---|

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 1. | Materiallar ta`minotchilardan қabul қilinganda:<br>- Zaxiralarni ҚҚSsiz sotib olish қiymatiga<br>- ҚҚS summasiga | <br><br>1510<br><br>4410 | <br><br>6010,<br>4110<br>6010 | <br><br>SHartnoma,<br>schet-faktura |
| 2. | YOrdamchi ishlab chiқarishdan olinganda | 1510 | 2310 | Qisobot,<br>nakladnoy |
| 3. | Qisobdor shaxslardan olinganda | 1510 | 4220-<br>4230 | Bўnak qisoboti |
| 4. | Tayyorlovga doir xizmatlarga | 1510 | 6990 | Schet-faktura |
| 5. | Tayyorlov bo`yicha bildirilgan da`volarga | 4860 | 1510 | Da`vo xati |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 6. | Tayyorlov natijasida kirim қilingan materiallarga | 1010-<br>1090 | 1510 | Қabul қilish dalolatnomasi |
| 7. | Tayyorlovning qaқiқiy қiymati materiallarning qisob baqosidan past bo`lganda | 1510 | 1610 | Buxgalteriya ma`lumot-nomasi |
| 8. | Tayyorlovning qaқiқiy қiymati materiallarning qisob baqosidan yuқori bo`lganda | 1610 | 1510 | Buxgalteriya ma`lumot-nomasi |

## Ўstirishdagi va bўrdoқidagi qayvonlarning qisobi

**Ўstirishdagi qayvonlar** –bu ona qayvonlarning ( ot, sigir, қўy, echki, chўchқa, tovuқ va boshқalar) bolalari , ya`ni toychoқ, buzoқ, қўzi, uloқ, jўja va boshқalar.

**Bўrdoқidagi xayvonlar** –bu gўsht uchun yoki semirtirib sotish uchun boқilayotgan xayvonlar.

Ўstirishdagi va bўrdoқidagi qayvonlarning qisobi № 11 «Ўstirishdagi va bўrdoқidagi xayvonlar» schetida olib boriladi. Schet aktiv, doimiy bўlib, debetida ўstirishdagi va bўrdoқidagi xayvonlarning mavjud soni va uni kўpayishi tannarxi bўyicha , kreditida esa ularning kamayishi aks ettiriladi.

Ўstirishdagi xayvonlar asosan қuyidagi manbalar xisobidan kўpayadi:

- Tuғishdan olingan xayvonlar va ularni oғirligini oshirish evaziga
- YOsh mollarni sotib olish evaziga
- Bepul olish evaziga

- Ta`sischilardan badal sifatida kirim қilish evaziga

Ona qayvonlarni tuғishidan ўstirishga olingan qayvon bolalari soni bўyicha qisobga olinadi, ularning boshlanғich қiymati ona xayvonlarni saқlashga ketgan xarajatlarga tenglashtirib olinadi. Ushbu xarajatlar № 2010 «Asosiy ishlab chiқarish», № 2310 «YOrdamchi ishlab chiқarish» schetlarining debetida tўplanadi, ona xayvonlarni tuғishidan bola xayvonlar olingach, bu xarajatlar yuқoridagi schetlarning kreditiga yozilib, № 11 «Ўstirishdagi va bўrdoқidagi xayvonlar» schetining debetiga olib boriladi.

Bola xayvonlarni ўstirishga ketgan xarajatlar № 2010 «Asosiy ishlab chiқarish», № 2310 «YOrdamchi ishlab chiқarish» schetlarining debetida tўplanib, xisobot davrlari ( oy,chorak, yil) oxirida maxsus tortish қaydnomalari asosida ўstirishdagi xayvonlarning қiymatiga kiritilib boriladi. Ўstirish davri tugab, ular asosiy podaga utқazilganda, қuyidagi buxgalteriya yozuvi beriladi:

**Debet** 0840 «Asosiy podani shakllanishi»

**Kredi**t 1110 «Ўstirishdagi va bўrdoқidagi xayvonlar»

0840 «Asosiy podani shakllanishi» schetida tўplangan summa ўstirilgan qayvonni ishchi va maqsuldor qayvonlar guruqiga kiritilishiga қarab qisobdan chiқariladi, ya`ni:

**Debet** 0170 «Ishchi va maqsuldor qayvonlar»

**Kredit** 0840«Asosiy podani shakllanishi»

YOsh xayvonlar ўstirish uchun boshқa yuridik va jismoniy shaxslardan olinsa, u qolda қuyidagi yozuvlar қilinadi:

*1. Sotib olinsa*

**Debet** 1110 «Ўstirishdagi va bўrdoқidagi xayvonlar»

**Kredit** 6010 « Ta`minotchilarga қarzlar»

**Kredit** 4230 « Xodimlarning berilgan avanslar bўyicha қarzlari»

**Kredit** 6890 « Boshқa majburiyatlar»

*2. Bepul olinsa*

**Debet** 1110 «Ўstirishdagi va bўrdoқidagi xayvonlar»

**Kredit** 8530 « Bepul olingan mulklar»

*3. Ta`sischilardan olinsa*

**Debet** 1110 «Ўstirishdagi va bўrdoқidagi xayvonlar»

**Kredit** 4610 « Ta`sischilarning ustav kapitaliga ulushi bўyicha қarzlari»

Bu turdagi yosh xayvonlar qam ўstirish jarayoni tugagach, asosiy podaga ishchi xayvonlar yoki maqsuldor xayvonlar sifatida kirim қilinadi.

Ўstirishdagi xayvonlar sotilishi, bepul berilishi, ta`sis badali sifatida boshқa korxonaga berilishi, qalok bўlishi mumkin. Barcha qollarda ularning tannarx bўyicha қiymati Debet 9220 Kredit 1110 yozuvi bilan qisobdan chiқariladi, olingan foyda Dt 9220 Kredit 9320 yozuvi bilan, kurilgan zarar esa Debet 9432 Kredit 9220 yozuvi bilan aks ettiriladi. Xaridorlardan tushadigan tushumga Debet 4010 Kredit 9220 yozuvi beriladi.

Bўrdoқidagi xayvonlar semirtirishga ketgan xarajatlar № 2010 «Asosiy ishlab chiқarish» schetining debetida tўplanib, qisobot davrlari oxirida molning semirish tannarxiga kiritib boriladi.

Bўrdoқidagi mollar sўyib sotilganda yoki tiriklayin sotilganda sotishdan tushgan tushum korxonaning daromadiga olinadi ( Debet 5010,4010 Kdedit 9010), bir vaқtning ўzida sotilgan bўrdoқi molning tannarxi qisobdan chiқariladi
( debet 9110 Kredit 1110 ).

Ўstirishdagi va bўrdoқidagi xayvonlar xalok bўlganda, ularning tannarxi moddiy javobgar shaxs yoki korxona qisobidan, shuningdek suғurta қilingan bўlsa, suғurta polisi evaziga qam қoplanadi.Bu operatsiyalar mos ravishda Debet 4630, 9430,6510 Kredit 9220 yozuvlari bilan aks ettiriladi

Ўstirishdagi va bўrdoқidagi xayvonlarning analitik qisobi ularning turlari, guruqlari, yoshiga қarab saқlanish joylari va moddiy javobgar shaxslar bўyicha yuritiladi.

## Inventarlar va xo`jalik buyumlarining qisobi

**Inventarlar va xo`jalik buyumlari –** bu қuyidagi shartlarning biriga javob beruvchi meqnat vositalari va predmetlari (xўjalik inventarlari):

a) xizmat muddati 1 yildan kam bo`lgan;

b) қiymati bir birlikga sotib olish choғida Ўzbekiston Respublikasida mavjud bo`lgan eng kam ish qaқining 50 barobarigacha bo`lgan.

Қiymatidan қat`iy nazar inventarlar va xўjalik buyumlariga қuyidagilar kiradi:

- Maxsus instrumentlar va moslamalar;
- Maxsus va sanitar kiyimlar, maxsus payofzal;
- Ўrindiқ buyumlari (ko`rpa, yostiқ, choyshab va shu kabilar.);
- Kantselyariya buyumlari (kal'kulyatorlar, stol usti priborlari va boshқalar);
- Oshxona inventarlari (қoshiқ, vilka, қozon, choynik-piyolalar, pichoқ, skatert va shu kabilar);
- Vaқtinchalik moslama va қurilmalar (titulsiz inshoatlar)- taxta yo`lkalar, yuvinish xonalari, qojatxona va shu kabi қurilish-montaj ishlari tugagach ularning қiymatiga kiruvchi moslamalar;
- Xizmat muddati bir yilgacha bo`lgan smena jiqozlari;

- Balиқ ovlash қurollari (қarmoқ, to`r va shu kabilar).

Buxgalteriya qisobida inventarlar va xo`jalik buyumlari turgan joyiga қarab aks ettiriladi. Ushbu belgisiga kўra ular ikki guruqga bўlinadi:

- Ombordagi inventarlar va xo`jalik buyumlari.
- Foydalanishdagi inventarlar va xo`jalik buyumlari.

Mos ravishda inventarlar va xo`jalik buyumlari қuyidagi schetlarda qisobga olinadi:

1.Ombordagi zaqiralar - 1080 «Inventarlar va xo`jalik buyumlari» schyotida.

2. Foydalanishdagi қismi – 014 « Foydalanishdagi inventarlar va xo`jalik buyumlari» balansdan tashқari schyotda.

Korxonaga barcha manbalardan kelib tushgan inventarlar va xo`jalik buyumlari (ta`minotchilardan, ta`sischilardan, bepul berilgan va boshқalar) № 1080 «Inventarlar va xo`jalik buyumlari» schetiga kirim қilinadi (Debet 1080 Kredit 6010,4610,8530,4220,6990,1010-1090, 4110,9390,5010 va boshқalar).

Ombordan foydadanishga berilgan inventarlar va xo`jalik buyumlari birdaniga xarajatlar schyotlariga qisobdan chiқariladi (Debet 2010,0810,9410,9420 va boshқa schyotlar Kredit 1080). Bir vaқtning ўzida ishlatishga berilgan inventar va xo`jalik buyumlari 014- balansdan tashқari schetning kirimida aks ettiriladi. Ushbu schyotdan ular xizmat muddati tugaganda, foydalanishga yaroқsiz qolatga kelganida maxsus dalolatnomalar asosida chiқim қilinadi.

Inventarlar va xo`jalik buyumlarining sotilishi, bepul berilishi, ta`sis badali sifatida kiritilishi 9220 «Boshқa aktivlarni sotilishi va turli chiқimlari» schetining debetida va 1080- schetning kreditida tannarxi bўyicha aks ettiriladi.

Inventarlar va xo`jalik buyumlarining analitik qisobi moddiy javobgar shaxslar bўyicha ularning nomlari, baqolari va boshқa belgilariga қarab yuritiladi.

## 2. Ishlab chiқarish xarajatlarining qisobi

**Ishlab chiқarish xarajatlari** – *bu bevosita maqsulotlarni (ish, xizmatlarni) ishlab chiқarishga ketgan, shuningdek ularning tannarxini tashkil etuvchi xarajatlar.*

**Tannarx** – *bu maqsulot (ish,xizmat) larni ishlab chiқarishga ketgan barcha xarajatlarning pulda ifodalangan majmuasi.*

Ishlab chiқarish xarajatlarining turlari, tarkibi, qisobga olinish tartibi respublikamizda Vazirlar Maqkamasining 1999 yil 5 fevraldagi 54- son қarori bilan tasdiқlangan «*Maqsulot (ish, xizmat) larni ishlab chiқarish va sotish xarajatlari tarkibi va moliyaviy nptijalarni shakllantirish tўғrisida*

*Nizom »* bilan belgilangan.

Ushbu Nizomga muvofiқ korxonalarning barcha ishlab chiқarish xarajatlari қuyidagi belgilari bўyicha tasniflanadi.

- Ishlab chiқarish jarayonidagi roliga қarab;
- Tannarxga kiritilish usuliga қarab;
- Ishlab chiқarish xajmiga nisbatan ўzgarishiga қarab;
- Iқtisodiy moqiyatiga қarab.

*Ishlab chiқarish jarayonidagi roliga* қarab ishlab chiқarish xarajatlari asosiy ishlab chiқarish, yordamchi ishlab chiқarish, umum ishlab chiқarish xarajatlariga bўlinadi.

**Asosiy ishlab chiқarish xarajatlari** deganda ishlab chiқarishning asosiy texnologik jarayonlarini bevosita olib boruvchi ishlab chiқarish tsexlari xarajatlari tushuniladi. Bunday xarajatlarga asosiy tsexlarning texnologik jarayonlarida maqsulot (ish, xizmat) larni ishlab chiқarilishiga bevosita sarflangan xarajatlar kiradi.

**YOrdamchi ishlab chiқarish xarajatlari** deganda asosiy ishlab chiқarish tsexlari uchun yordamchi va xizmat ko`rsatuvchi bo`lib qisoblangan ishlab chiқarish bo`linmalarining (tsexlarning) xarajatlari tushuniladi. YOrdamchi tsexlar bo`lib, masalan, ta`mirlash tsexi, mexanika tsexi, buғ berish tsexi va boshқalar qisoblanadi. Ushbu tsexlarning xarajatlari aloqida qisobga olinadi va qar oyning oxirida asosiy ishlab chiқarish xarajatlari tarkibiga kiritiladi.

**Umum ishlab chiқarish xarajatlari** deganda barcha asosiy va yordamchi ishlab chiқarish tsexlarini boshқaruviga va tashkil etishga taalluқli bo`lgan, shuningdek ularga xizmat ko`rsatuvchi bo`linmalarning xarajatlari tushuniladi. Masalan, ta`minot bo`limi, yonғinga қarshi kurashish bo`limi, isitish bo`limi, қo`riқlash bo`limi va boshқalar asosiy va yordamchi tsexlarga turli xizmatlarni ko`rsatadi. Bu bo`linmalarning xarajatlari qam aloqida qisobga olinadi va oy oxirida qisob siyosatida belgilangan tartibga muvofiқ asosiy va yordamchi ishlab chiқarish xarajatlariga kiritiladi.

*Tannarxga kiritilish usuliga қarab* barcha ishlab chiқarish xarajatlari bevosita va bilvosita xarajatlarga bўlinadi.

**Bevosita xarajatlar** deganda u yoki bu ishlab chiқarilgan maqsulotning tannarxiga to`ғridan- to`ғri olib boriladigan xarajatlar tushuniladi. Ularga misol қilib, masalan, non ishlab chiқarishda tuzilgan kal'kulyatsiyaga muvofiқ bevosita sarflangan un va boshқa materiallarning xarajatlarini, bevosita non ishlab chiқarish bilan shuғullangan ishchilarga qisoblangan ish qaқj xarajatlarini, ishlab chiқarish tsexining bevosita boshқa xarajatlarini keltirish mumkin.

**Bilvosita** xarajatlar deganda korxonaning butun ishlab chiқarish faoliyatiga taalluқli bo`lgan ,lekinda aniқ bir bo`linmaning (maqsulotning) tannarxiga to`ғridan-to`ғri kiritib bo`lmaydigan, shuning uchun ma`lum bir tartibga muvofiқ bo`linmalar (maqsulotlar) o`rtasida taқsimlanadigan xarajatlar tushuniladi. Aksariyat umum ishlab chiқarish xarajatlari aynan bilvosita xarajatlar qisoblanadi, ular ishlab chiқarilgan maqsulotlarning qissasi, tsex xodimlari ish qaқjining qissasi va boshқa belgilariga қarab mutanosib tarzda taқsimlanadi.

*Ishlab chiқarish qajmiga nisbatan ўzgarishiga* қarab ishlab chiқarish xarajatlari o`zgaruvchan va shartli o`zgarmas turlarga bo`linadi:

**Ўzgaruvchan xarajatlar** – bu ishlab chiқarish qajmining oshishi va kamayishigaga ko`ra sarfi miқdor jiqatdan bevosita o`zgarib turadigan xarajatlar. Masalan, material sarfi bevosita ishlab chiқarilgan tayyor maqsulotning miқdoriga boғliқ, ishbay ishlaydigan xodimga qisoblanadigan ish qaқi summasi esa - uning ishlab chiқargan maqsuloti(bajargan ishi)ning miқdoriga boғliқ.

**SHartli o`zgarmas xarajatlar –** bu ishlab chiқarish qajmining o`zgarishiga қaramasdan summasi o`zgarmaydigan, lekinda nisbiy darajasi o`zgarishi mumkin bo`lgan xarajatlar. Misol қilib ishlab chiқarish қurollari va vositalari bo`yicha shartnomaga asosan қat`iy summada to`lanadigan ijara qaқi, mol-mulkni suғurta қilish xarajatlarini keltirish mumkin. Bunday xarajatlar miқdor jiqatdan shartli o`zgarmas, lekinda ishlab chiқarish qajmiga nisbatan darajasi o`zgaruvchan xarajatlar qisoblanadi.

*Iқtisodiy moqiyatiga ko`ra* maqsulot tannarxiga kiritiladigan barcha ishlab chiқarish xarajatlari «Maqsulot (ish, xizmat) larni ishlab chiқarish va sotish xarajatlari tarkibi va moliyaviy natijalarni shakllantirish tўғrisida
Nizom »ga asosan қuyidagi elementlarga bo`linadi:

- *Ishlab chiқarishga doir moddiy xarajatlar ( қaytariladigan chiқindilar қiymatidan tashқari )* – bu guruqga kiruvchi xarajatlar 12 ta moddadan iborat bo`lib, ularning to`liқ ro`yxati Nizomning 1.1 –punktida keltirilgan.
- *Ishlab chiқarish xarakteridagi meqnatga qaқ to`lash xarajatlari* - bu guruqga kiruvchi xarajatlar 7 ta modda va 12 қuyi moddadan iborat bo`lib, ularning to`liқ ro`yxati Nizomning 1. 2 –punktida keltirilgan.
- *Ishlab chiқarishga tegishli bo`lgan ijtimoiy suғurtaga ajratmalar* – bu guruqga kiruvchi xarajatlar 2 ta moddadan iborat, ularning nomi Nizomning 1.3 – punktida keltirilgan.
- *Ishlab chiқarishga doir asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning amortizatsiyasi* – bu guruqga kiruvchi xarajatlar 2ta moddadan iborat, ularning nomi Nizomning 1.4 – punktida keltirilgan.

• *Ishlab chiқarishga doir boshқa xarajatlar* - bu guruqga kiruvchi xarajatlar 9 ta modda va 11 ta қuyi moddadan iborat bo`lib, ularning to`liқ ro`yxati Nizomning 1.5 – punktida keltirilgan.

**Ishlab chiқarish xarajatlari qisobining vazifalari.** Ishlab chiқarish xarajatlari bўyicha buxgalteriya qisobining asosiy vazifalariga қuyidagilar kiradi:

• Ishlab chiқarish xarajatlarini ularning moqiyatini ochib beruvchi mezonlariga mos ravishda qisobga olish;

• Ishlab chiқarish xarajatlarini to`ғri turkumlash va guruqlarga ajratish;

• Ishlab chiқarish xarajatlarini to`ғri, o`z vaқtida va tegishli boshlanғich qujjatlar bilan rasmiylashtirish ;

• Ishlab chiқarish xarajatlari bo`yicha moddiy javobgar shaxslarning qisobotlari ma`lumotlari va qisob ma`lumotlarini tўliқ uyғunligini ta`minlash;

• Tugallangan ishlab chiқarish xarajatlarini to`ғri va o`z vaқtida tayyor maqsulotlar (ishlar, xizmatlar) tannarxiga kiritish;

• Tugallanmagan ishlab chiқarishga to`ғri keladigan xarajatlarni to`ғri va o`z vaқtida qisobga olish, buning uchun ularni belgilangan muddatlarda қayta ro`yxatdan o`tkazish (inventarizatsiya қilish), uning natijalarini to`ғri aniқlash va qisobga olish;

• Tannarxni oshib ketishiga sabab bo`luvchi noratsional chiқimlarni vujudga kelish sabablari va aybdorlarini topish, bnday chiқimlarga yo`l қo`ymaslik uchun moddiy javobgar shaxslar faoliyatini doimiy nazorat қilish;

• Mavjud ishlab chiқarish zaxiralari va vositalaridan unumli foydalanish ustidan nazorat o`rnatish;

• Ishlab chiқarish xarajatlarini soliқ solish bazasi ob`ekti sifatida to`ғri shakllantirish va boshқalar.

**Ishlab chiқarish xarajatlarining sintetik va analitik qisobi.** 21- son BXMS ga muvofiқ ishlab chiқarish xarajatlarining sintetik qisobi 2010 “Asosiy ishlab chiқarish”, 2310 “YOrdamchi ishlab chiқarish” va 2510 “ Umumishlab chiқarish xarajatlari” schetlarida olib boriladi. Ushbu schyotlarni ochish negiziga ishlab chiқarish xarajatlarining ishlab chiқarishda tutgan o`rni asos қilib olingan. Ushbu schyotlarning barchasi aktiv, doimiy schyotlardir. Ularning debetida xarajatlarning ko`payishi, kreditida esa xarajatlarning qisobdan chiқarilishi, ya`ni kamayishi aks ettiriladi. Bu schyotlarning қoldiғi mos ravishda asosiy, yordamchi va umum ishlab chiқarishning tugallanmay қolgan қismini pulda ifodalaydi. Aksariyat korxonalarda 2310 “YOrdamchi ishlab chiқarish” va 2510 “ Umumishlab chiқarish xarajatlari” schetlari qisobot davrining oxirida yopiladi, ya`ni ularning debetida to`plangan summalar, yuқorida aytib o`tganimizdek, u yoki bu usulga asosan taқsimlanadi. Jumladan, ularning asosiy ishlab chiқarishga doir қismi 2010

“Asosiy ishlab chiқarish” schyotining debetiga o`tқaziladi va shu asosda ushbu schyotlar yopiladi, ya`ni davr oxirida қoldiқga ega bo`lmaydi.

2010 “Asosiy ishlab chiқarish “ schyotining debetida to`plangan summa (uning kreditida aks ettirilgan ayrim summalardan tashқari, masalan қaytarilgan chiқindilarning қiymati, brak summasi) ishlab chiқarilgan barcha maqsulotlarning (ishlarning, xizmatlarning ) umumiy tannarxini pulda ifodalaydi. Ishlab chiқarilgan tayyor maqsulotlar (bajarilgan ishlar va xizmatlar)ning qaқiқiy tannarxi 2010 “Asosiy ishlab chiқarish” schyotining krediti orқali mos ravishda 2810 “Ombordagi tayyor maqsulotlar”, bajarilgan ishlar va ko`rsatilgan xizmatlarning tannarxi 9130 “ Bajarilgan ishlarning va ko`rsatilgan xizmatlarning tannarxi” schyotlarining debetiga o`tқaziladi.

Ishlab chiқarish xarajatlariga doir operatsiyalar schetlarda қuyidagicha aks ettiriladi.

| Tar-tib raқami | Operatsiyaning mazmuni | Debet schet | Kredit schet | YOzuvga asos bo`luvchi qujjat |
|---|---|---|---|---|
| 1. | Material xarajatlariga | 2010, 2310, 2510 | 1010-1090 | Moddiy va ishlab chiқarish qisobotlari |
| 2. | Qisoblangan ish qaқi xarajatlariga | 2010, 2310, 2510 | 6710 | Ish qaқi qisob-kitoblari |
| 3. | Ijtimoiy suғurta organlariga ish qaқi fondiga nisbatan belgilangan me`yorlardagi ajratmalarga | 2010, 2310, 2510 | 6510-6520 | Ajratmalarga doir qisob-kitoblar |
| 4. | Ishlab chiқarishga doir asosiy vositalarga qisoblangan amortizatsiya summalariga | 2010, 2310, 2510 | 0210-0299 | Amortizatsiya qisob-kitobi |
| 5. | Ishlab chiқarishga doir boshқa xarajatlar | 2010, 2310, 2510 | 6010, 6910-6990 | Schet-faktura, dalolatnoma |
| 6. | YOrdamchi ishlab chiқarish xarajatlari schyoiini yopish | 2010 | 2310 | Buxgalteriya qisob-kitobi |
| 7. | Umum ishlab chiқarish xarajatlari schyotini yopish | 2010 | 2510 | Buxgalteriya qisob-kitobi |
| 8. | Ishlab chiқarish xarajatlarini tayyor | 2810 | 2010 | Buxgalteriya |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | maqsulotning tannarxiga kiritish | | | qisob-kitobi |
| 9. | Ishlab chiқarish xarajatlarini bajarilgan ishlar va xizmatlar tannarxiga kiritish | 9130 | 2010 | Buxgalteriya qisob-kitobi |
| 10. | Ishlab chiқarishdan olingan қaytariladigan chiқindilar қiymatiga | 1090 | 2010 | Dalolatnoma |
| 11. | Ishlab chiқarishdan olingan brakga | 2610 | 2010 | Dalolatnoma |
| 12. | Ishlab chiқarishda aniқlangan kamomadlarga | 5910 | 2010, 2310, 2510 | Dalolatnoma |
| 13 | Ishlab chiқarishdan olingan yarim maqsulotlarga | 2110 | 2010 2310, 2510 | Qisobotlar |
| 14. | Tugallanmagan ishlab chiқarishni қayta baqolashada:<br>- oshish tomoniga<br>- kamayish tomoniga | <br><br>2010<br>3210 | <br><br>6230<br>2010 | Inventariza-tsiya vaғi, Dalolatnoma |

2010, 2310, 2510 –schyotlarda aks ettirilgan ishlab chiқarish xarajatlarining analitik qisobi bo`limlar (tsexlar) bo`yicha, maqsulot turlari bo`yicha va xarajat moddalari bo`yicha qisob siyosatida belgilangan tartibda olib boriladi.

## Ўz-ўzini sinash uchun test savol-javoblari

**1.Ishlab chiқarish zaxiralari**

a) Korxonaning moddiy texnik bazasini tashkil etadi

b) Korxona ularni sotish uchun sotib oladi

v) Korxonaning ustav kapital summasiga teng bўladi

g) Ishlab chiқarishning moddiy negizini tashkil etadi

**2.Қuyidagilarning қaysi biri ishlab chiқarish zaxiralariga kirmaydi**

a) Tovarlar

b) Nomoddiy aktivlar
v) YOқilғi
g) Tara

**3.Қuyidagilarning қaysi biri zaxiraning tannarxiga kirmaydi?**

a) Sotib olish narxi
b) Bojxona tўlovlari
v) Direktorning ish qaқi
g) Tashib keltirish xarajatlari

**4.Қuyidagilarni қaysi biri tuғri**

a) FIFO tannarxni kamaytiradi
b) FIFO maqsulot tannarxini pasaytirmaydi
v) FIFO maqsulot tannarxini oshib borishini ifodalaydi
g) FIFO ning tannarxga xech қanday aloқasi yўқ.

**5. Kelib tushgan ishlab chiқarish zaxiralarining butlugi uchun javobgar**

a) Bosh buxgalter
b) Ombor mudiri
v) Direktor
g) Inventarizator

**6. Materiallarning ta`minotchilardan olinishiga қuyidagi buxgalteriya yozuvi қilinadi**

a) DT 1010 Kt 5010
b) Dt 1010 Kt 4310
v) Dt 1010 Kt 6010
g) Dt 1010 Kt 9410

**7. Olingan materialga tўғri keladigan ҚҚS summasiga қuyidagi buxgalteriya yozuvi қilinadi**

a) Dt 4410 Kt 6010
b) Dt 1010 Kt 6010

v) Dt 4510 Kt 6010
g) Dt 6410 Kt 6010

**8. Materiadlarni sotilishiga қuyidagi provodka beriladi:**

a) Dt 2010 Kt 1010
b) Dt 9220 Kt 2010
v) Dt 9220 Kt 1010
g) Dt 1010 Kt 9220

**9. Materiallar xarakatini rasmiylashtirish uchun Soliқ Kodeksida қanday qujjat kўzda tutilgan**

a) Akt
b) Nakladnoy
v) Schet-faktura
g) Talabnoma

**10. Қaysi korxonada kelib tushgan materialga tўғri keladigan ҚҚS byudjetga tўlov summasidan kamaytirilmaydi?**

a) Umumiy soliқlarni tўlovchi korxonada
b) YAgona soliқ tқlovchi korxonada
v) Қurilish tashkilotida
g) Ishlab chiқarish firmasida

**11. Қuyidagilarni қaysi biri tuғri**

a) Tannarx tirik vaznni kamaytiradi
b) Em-xashak xarajati xayvon tannarxini oshiradi
v) Qayvonlarni baqolash LIFOda ifodalanadi
g) FIFO xayvonlarga bnvosita taalluқli

**12. Em –xashakning sarfi nimaga boғliқ**

a) CHўponga
b) Raxbarga
v) Ishlab chiқarish dasturiga
g) Mollarni boқish ratsioniga

**13.Ўstirishdagi va bўrdoқidagi mollarning vaznini oshishiga қuyidagi provodka beriladi**

a) Dt 1110 Kt 1010
b) Dt 1110 Kt 2010
v) Dt 1110 Kt 1210
g) Dt 1110 Kt 1110

**14.Ўstirish uchun bozordan sotib olingan buzoқga қanday provodka beriladi**

a) Dt 1110 Kt 5010
b) Dt 1110 Kt 4220
v) Dt 1110 Kt 4230
g) Dt 1110 Kt 5110

**15.Қuyidagilarning қaysi biri arzon baqoli buyumlarga kirmaydi**

a) Utyug
b) Parda
v) Қulf
g) Skaner

**16. Arzon baqoli inventarga kiradi**

a) Komp'yuter
b) Ofis' mebeli
v) Disketaga yozilgan dastur
g) Toғora

**17. Arzon baqoli buyumning qisobdan chiқarilishi nimaga boғliқ**

a) Ombor mudiriga
b) Raxbarga
v) Ishlab chiқarish dasturiga
g) YAroқliligiga

**18.Ishlab chiқarish xarajatlari**

a) Maqsulot tannarxiga kirmaydi
b) Korxonaning sotishga doir xarajatlarini o`z ichiga oladi
v) Sotish xarajatlarini o`z ichiga olmaydi
g) Korxona foydasi qisobidan қoplanadi

**19.Қuyidagilarning қaysi biri ishlab chiқarish xarajatlariga kirmaydi?**

a) Material xarajatlar
b) Ma`muriyat binosining amortizatsiyasi
v) Stanokni ta`mirlash xarajati
g) Mol-mulk soliғi summasi

**20.Қuyidagilarning қaysi biri to`ғri?**

a) Materialning sotish narxi ishlab chiқarish xarajatiga kiradi
b) ekologiya soliғi ishlab chiқarish xarajatiga kiradi
v) Direktorning ish qaқi ishlab chiқarish xarajatiga kiradi
g) Korxonani ta`sis etishda қilingan tashkiliy xarajatlar ishlab chiқarish xarajatlariga kirmaydi

**21. Қuyidagilarni қaysi biri to`ғri**

a) FIFO usul ishlab chiқarish xarajatlarini kamaytiradi
b) FIFO usul ishlab chiқarish xarajatlarini pasaytirmaydi
v) FIFO usul ishlab chiқarish xarajatlarini oshib borishini ifodalaydi
g) FIFO usul ishlab chiқarish xarajatlariga ta`sir o`tқazmaydi.

**22..Қuyidagi xarajatlarning қaysi biri o`zgaruvchan xarajat qisoblanadi?**

a) Ijara qaқi
b) elektr energiyasi xarajati
v) Suғurta xarajati
g) Stanokning bir maromda qisoblangan amortizatsiya summasi

**23.Garaj қarovuliga qisoblangan ish qaқi**

a) Asosiy ishlab chiқarish xarajatiga kiradi
b) YOrdamchi ishlab chiқarish xarajatiga kiradi
v) Umumishlab chiқarish xarajatiga kiradi
g) Qech қaysisiga kirmaydi

**24.Olingan materialga tўғri keladigan ҚҚS ushbu soliқni to`lovchi korxonada**

a) Asosiy ishlab chiқarish xarajatiga kiradi
b) YOrdamchi ishlab chiқarish xarajatiga kiradi
v) Umumishlab chiқarish xarajatiga kiradi
g) Qech қaysisiga kirmaydi

**25.TSexlarga o`rnatilgan signalizatsiya xarajatlari:**

a) 2010- schyotning debetida aks ettiriladi
b) 2310 –schyotning debetida aks ettiriladi
v) 2510 –schyotning debetida aks ettiriladi
g) Qech қaysisida aks ettirilmaydi

**26.Umum xo`jalik xarajatlari**

a) 2010 va 2310 –schyotlarga yopiladi
b) Faқat 2310 – schyotga yopiladi
v) Faқat 2010 schyotga yopiladi
g) Faқat 2110 –schyotga yopiladi

**27.Қaysi korxonada kelib tushgan materialga tўғri keladigan KҚS ishlab chiқarish xarajatlariga kiritiladi?**

a) Umumiy soliқlarni tўlovchi korxonada
b) YAgona soliқ to`lovchi korxonada
v) Қurilish tashkilotida
g) Ishlab chiқarish firmasida

**Mavzuni o`rganish uchun tavsiya etiladigan me`yoriy xujjatlar va davriy adabiyotlar**


1. *Ўzbekiston Respublikasining buxgalteriya qisobi tўғrisida қonuni. 1996 yil 30 avgustda қabul қilingan.*
2. *«Maqsulot (ish,xizmat)larni ishlab chiқarish va sotish xarajatlarining tarkibi qamda oxirgi moliyaviy natijalarni shakllantirish tўғrisida Nizom». Ўz.R. VM ning 1999 yil 5 fevraldagi 54-son қarori bilan tasdiқlangan.*
3. *BQMS № 1 «Qisob siyosati va moliyaviy qisobot. Ўz.R. Adliya Vazirligidan 1998 yil 14 avgustda ro`yxatdan o`tgan, № 474.*
4. *BQMS № 4 «Tovar-moddiy zaqiralar». Ўz.R. Adliya Vazirligidan 1998 yil 28 avgustda ro`yxatdan o`tgan, № 486.*
5. *BQMS № 4 «Tovar-moddiy zaqiralar».ga ўzgartirishlar. Ўz.R. Adliya Vazirligidan 2002 yil 20 noyabrda ro`yxatdan o`tgan, № 486-1.*
6. *BXMS № 19 «Inventarizatsiyani tashkil қilish va o`tқazish ». Ўz.R. Adliya Vazirligidan 1999 yil 2 noyabrda ro`yxatdan o`tgan, № 833.*

7. *BXMS № 21 «Xo`jalik yurituvchi sub`ektlar moliyaviy xo`jaligi buxgalteriya qisobining schyotlar rejasi va uni қo`llash bo`yicha yo`riқnoma. Ўz.R. Adliya Vazirligidan 2002 yil 23 oktyabrda ro`yxatdan o`tgan, № 1181.*
8. *Abdullaev A. Қayumov I. Buxgalteriya qisobi. T, «Minqoj» nashriyoti, 2002.*
9. *9.Bobojonov O. Moliyaviy qisob. T., «SHarқ», 2000.*
10. *Bobojonov O., Jumaniyozov K. Moliyaviy qisob. T., «Moliya», 2002.*
11. *Umarova M., eshboev Ў., Axmadjonov Қ. Buxgalteriya qisobi, T., Meqnat, 1999*
12. *Fulomova F.F. Buxgalteriya qisobi bo`yicha mustaқil o`rganish uchun қo`llanma.T., Iқtisodiyot va quқuқ dunyosi» nashriyot uyi, 2000.*

## Ma`ruza 8 TAYYOR MAQSULOTLAR VA TOVARLARNING QISOBI (2 soat)

### Ma`ruza rejasi

*1.Tayyor maqsulotlarning qisobi*
*2.Tovarlarning qisobi*

### 1.Tayyor maqsulotlarning qisobi

**Tayyor maqsulot** deganda *ishlab chiқarishning barcha texnologik jarayonlaridan o`tgan, ortiқ қayta ishlovni talab қilmaydigan, o`zining sifati bo`yicha davlat standartlariga, texnik shartlarga javob beradigan va omborxonalarga қabul қilingan tayyor buyumlar tushuniladi.*

Korxonaning faoliyat turiga қarab u ishlab chiқargan tayyor maqsulotlar turlicha bo`lishi mumkin. Masalan, mashinasozlik zavodining tayyor maqsuloti bo`lib engil yoki yuk tashish avtomobillari, non kombinatining tayyor maqsuloti bo`lib – non va non

maqsulotlari, қishloқ xo`jalik korxonasining tayyor maqsuloti bo`lib etishtirilgan meva-sabzavotlar va boshқa maqsulotlar qisoblanadi.

Tayyor maqsulotlar korxonada olib borilgan ishlab chiқarish jarayonining pirovard natijasi qisoblanadi. Ularni tayyorlashga ketgan xarajatlar korxonaning ishlab chiқarish xarajatlarini, shuningdek tayyor maqsulotning tannarxini tashkil қiladi.

Tayyor maqsulotlar korxonalarning aylanma aktivlarining muqim turi qisoblanadi. Ularning aylanish tezligi talab va taklifga, sifatiga, ishlab chiқarilgan qajmiga, baqosiga va boshқa omillarga boғliқ bo`ladi. Ўz navbatida tayyor maqsulotlarning xaridorligiga sotish qajmi, pul tushumlari, daromad va boshқa ko`rsatkichlar bevosita boғliқdir. SHuning uchun qam tayyor maqsulotlar buxgalteriya qisobining muqim ob`ektlaridan biri qisoblanadi.

4-son BXMS ga muvofiқ tayyor maqsulotlar қuyidagi baqolarda qisobga olinadi:

- Ishlab chiқarishdan olinganda – qaқiқiy tannarxi bo`yicha;
- Ta`sischilardan olinganda – kelishuv baqosida;
- Қaytarib bermaslik sharti bilan bepul kelib tushganda – ekspert yo`li bilan aniқlangan қiymatda;
- Baqosini real aniқlash қiyin bo`lgan buyumlar bo`yicha- rejali (normativ) baqoda.
- Xaridorgirligini yo`қotgan, sifati past yoki shikastlangan qollarda- sof sotish қiymatida ( tannarxdan past bo`lgan қiymatda).

Tayyor maqsulotlar қiymatini baqolash xuddi ishlab chiқarish zaqiralari kabi korxona qisob siyosatida belgilangan FIFO yoki AVEKO usullardan birida amalga oshirilishi mukin.

Maqsulot tannarxi ishlab chiқarish xarajatlarini qisobga olish va tannarxni kal’kulyatsiya қilish yo`li bilan topiladi. Kal’kulyatsiya, odatda bir xil nomdagi maqsulotga (ish yoki xizmat turiga) tuziladi. Amaliyotda normativ (rejali) kal’kulyatsiya, qaқiқiy tannarx kal’kulyatsiyasi kabi kal’kulyatsiyaning turlari keng ishlatiladi.

Normativ (rejali) kal’kulyatsiyada қabul қilingan maqsulot (ish, xizmat) birligining tannarxi maxsus tasdiқlangan retsepturalar asosida sarflanadigan xarajatlar summasini ishlab chiқarishga mo`ljallangan maqsulot(ish, xizmat)ning soniga bo`lish yo`li bilan topiladi. Masalan, 100 portsiya palov (250 grammlik) tayyorlash uchun retsepturada қuyidagi xarajatlar ko`zda tutilgan deylik: go`sht –6 kg, guruch –25 kg, yoғ –8 kg, sabzi – 20 kg, piyoz –3 kg, tuz va zirovarlar - 1 portsiyaga 5 so`m miқdorida. Ishlatiladigan masalliқlar bozordan sotib olinadi. Ushbu shartli ma`lumotlarga ko`ra 1 portsiya palovning normativ(rejali) tannarxini kal’kulyatsiyasi қuyidagicha bo`ladi.

**1 portsiya palovning normativ (rejali) tannarxini kal’kulyatsiyasi**

| 100 portsiya palovga ketadigan xarajatlar | Summa |
|---|---|
| 1. Go`sht 6 kg *2200 so`m | 13200 |
| 2. Guruch 20 kg *500 so`m | 10000 |
| 3. YOғ 8 kg *1100 so`m | 8800 |
| 4. Sabzi 20 kg*250 so`m | 5000 |
| 5. Piyoz 3 kg *150 so`m | 450 |
| 6. Tuz va ziravorlar | 500 |
| **7. Jami xarajatlar** | **40950** |
| *1 portsiya palovning o`rtacha normativ tannarxi* | 409-50 |

Normativ(rejali) kal'kulyatsiya asosida qisoblangan maqsulot tannarxi qisobot davri ichida qisob baqosi sifatida қo`llaniladi. CHunki qisobot davri tugamaguncha maqsulotni ishlab chiқarishga ketgan barcha ishlab chiқarish xarajatlarini to`liқ aniқlab bo`lmaydi,demak maqsulotning qaқiқiy ishlab chiқarish tannarxini qam qisoblab bo`lmaydi.

Maqsulot (ish, xizmat)ning qaқiқiy tannarxini kal'kulyatsiya қilish uchun qisobot davri oxirida ushbu maqsulot (ish,xizmat) uchun qaқiқatda қilingan xarajatlar summasi qisob registrlaridan olinadi, masalan bosh kitobdan. Jami xarajat summasi ishlab chiқarilgan maqsulot (ish, xizmat) ning umumiy soniga bo`linadi va shu yo`l bilan bir birlik maqsulot (ish, xizmat)ga to`ғri keladigan tannarx summasi qisoblanadi. Misol uchun, fabrikada 1 kilogramm choyni қadoқlashning normativ (rejadagi) ishlab chiқarish tannarxi kal'kulyatsiyaga muvofiқ – 1200 so`m, mart oyida 20 tonna choy қadoқlangan va jami ketgan ishlab chiқarish xarajatlari bosh kitob bo`yicha 25000000 so`m, unda 1 kilogramm қadoқlangan choyning qaқiқiy tannarxi 1250 so`m bo`ladi (25000000 / 20000 kg)., aprel oyida 25 tonna choy қadoқlangan va jami ketgan ishlab chiқarish xarajatlari bosh kitob bo`yicha 30000000 so`m, unda 1 kilogramm қadoқlangan choyning qaқiқiy tannarxi 1200 so`mni tashkil etadi.

Agar korxonada qisobot davri davomida tayyor maqsulotlarning xarakati rejali qisob baqolarida qisobga olib borilgan bo`lsa, u taқdirda qisobot davri oxirida qaқiқiy tannarx va qisob baqosi o`rtasidagi farқ aniқlanadi va ushbu summaga tuzatish yozuvlari қilinadi. Ushbu yozuvlar to`ғrisida keyinroқ to`xtalib o`tamiz.

Tannarxni kal'kulyatsiyasi asosida maqsulot (ish, xizmat)ning sotish baqosi qam kal'kulyatsiya қilinadi. Sotish baqosini kal'kulyatsiyasining tannarxning kal'kulyatsiyasidan farқi shundaki, unda sotishda tannarx ustiga қo`yiladigan қo`shimcha қiymatlar qisobga olinadi. Bunday қiymatlar bo`lib, jumladan korxonaning rentabellik darajasi bo`yicha oladigan foydasining summasi, aktsiz soliғi, қo`shilgan қiymat soliғi, savdo ustamasi, ovқatlanish korxonasining ustamasi qisoblanadi. Misol uchun, aroқ

ishlab chiқaruvchi zavodda bir shisha aroқ ni ( siғimi 0,5 litr) sotish baqosi kal'kulyatsiyasi taxminan қuyidagicha bo`ladi.

**Sotish baqosi kal'kulyatsiyasi (zavodda)**

| Baqo elementlari | Summa, so`mda |
|---|---|
| 1. Bir shisha aroқning o`rtacha ishlab chiқarish tannarxi | 90 |
| 2. Korxona foydasi 20% | 18 |
| 3. Korxonaning sof sotish baqosi | 108 |
| 4. Aktsiz soliғi 82% (aktsiz bilan birgalikdagi sotish baqosidan. Bu baqo topiladi 108 *100 /100-82= 600 sum | 492 |
| 5. Sotish baqosi aktsiz soliғi bilan | 600 |
| 6. Қo`shilgan қiymat soliғi 20% | 120 |
| 7. Korxonaning sotish baqosi | 720 |

Bir shisha aroқning chakana savdo magazinida sotilishi vaқtida sotib olish baqosi ustiga savdo ustamasi қo`yiladi. Bu qolda bir shisha aroқning sotish baqosining kal'kulyatsiyasi қuyidagicha bo`ladi.

**Sotish baqosi kal'kulyatsiyasi (magazinda)**

| Baqo elementlari | Summa, so`mda |
|---|---|
| 1. Bir shisha aroқning sotib olish baqosi | 720 |
| 2. Savdo ustamasi 20% | 144 |
| 3. Tovarni chakana sotish baqosi | 864 |

Ovқatlanish korxonalarida kelib tushgan tovarlar ustiga savdo ustamasidan tashқari ovқatlanish korxonasining ko`rsatgan xizmatlari uchun qam қo`shimcha ustama қo`yiladi. Bu qolda, masalan, restoranda, bir shisha aroқning sotish baqosining kal'kulyatsiyasi қuyidagicha bo`ladi.

**Sotish baqosi kal'kulyatsiyasi ( restoranda)**

| Baqo elementlari | Summa, so`mda |
|---|---|
| 1. Bir shisha aroқning sotib olish baqosi | 720 |
| 2. Savdo ustamasi 20% | 144 |

| | |
|---|---|
| 3. Tovarni chakana sotish baqosi | 864 |
| 4. Restoran xizmati ustamasi 30% | 259 |
| 5. Aroқning restoran menyusidagi baqosi | 1123 |

**Tayyor maqsulotlar qisobining vazifalari.** Tayyor maqsulotlar bўyicha buxgalteriya qisobining asosiy vazifalariga қuyidagilar kiradi:

- Tayyor maqsulotlarni ularning moqiyatini ochib beruvchi mezonlariga mos ravishda qisobga olish;
- Tayyor maqsulotlarni to`ғri turkumlash va guruqlarga ajratish;
- Tayyor maqsulotni to`ғri baqolash;
- Tayyor maqsulotla qolati va qarakatini to`ғri, o`z vaқtida va tegishli boshlanғich qujjatlar bilan rasmiylashtirish;
- Tayyor maqsulotlarga moddiy javobgarlikni ta`minlash, moddiy javobgar shaxslar tomonidan qisobotlarni to`ғri va ўz vaқtida tuzilishi, taқdim etilishini nazorat қilish;
- Tayyor maqsulotlarning butligini ta`minlash, buning uchun ularni belgilangan muddatlarda қayta ro`yxatdan o`tқazish (inventarizatsiya қilish), uning natijalarini to`ғri aniқlash va qisobga olish;
- Tayyor maqsulotlarni o`z vaқtida sotilishi, chunonchi tannarxdan past baqolarda sotilmasligi, omborlarda me`yoridan ortiқ zaqiralarni to`planib қolinishiga yo`l қo`ymaslik ustidan nazorat o`rnatish;
- Tayyor maqsulotlarni asosli ravishda қayta baqolash va uning natijalarini qisobda tўғri aks ettirish va boshқalar.

**Tayyor maqsulotlarni saқlanish joylaridagi qisobi.**Korxona omborxonasiga tayyor maqsulotlar asosan ishlab chiқarish bo`linmalaridan (tsexlardan), shuningdek ayrim qollarda chetdan ta`sischilarning badali sifatida, қaytarib bermaslik shartlari bilan bepul olingan buyumlar sifatida қabul қilinadi. Kirim қilish naklodnoylar, dalolatnomalar, schyot-fakturalar, zabor varaқalari asosida amalga oshiriladi. Қabul қilingan tayyor maqsulotlarning soniy-summoviy qisobi uchun ularning qar biriga kartochkalar ochiladi yoki umumiy ombor qisobi kitobi yuritiladi. Tayyor maqsulotlarning omborxonadan sotilishi va boshқa chiқimlari faқat raqbariyatning ruxsatnomasi orқali amalga oshiriladi. CHiқim operatsiyalari schyot-fakturalar, nakladnoylar, dalolatnomalar, talabnomalar, zabor varaқalari va boshқa xujjatlar bilan rasmiylashtiriladi. Qisob siyosatida belgilangan muddatlarda ombor mudirlari tayyor maqsulotlar qolati va qarakatini soniy va summoviy ko`rinishda ifodalovchi qisobotlarni tuzadilar va ularni buxgalteriyaga topshiradilar. Qisobotlar va ularga ilova қilingan boshlanғich xujjatlar tayyor maqsulotlarning sintetik va analitik qisobini yuritishga asos bo`lib qisoblanadi.

**Tayyor maqsulotlarning sintetik va analitik qisobi**. Tayyor maqsulotlarni qisobga olish uchun 21-son BQMS da қuyidagi schyotlar tizimi ko`zda tutilgan:

- **2810** "Ombordagi tayyor maqsulotlar"
- **2820** "Ko`rgazmadagi tayyor maqsulotlar"
- **2830** "Komissiyaga berilgan tayyor maqsulotlar"

Ushbu schyotlar aktiv schyotlardir, ularning debetida tayyor maqsulotlarning қoldiғi, kelib tushish natijasida ko`payishi, kreditida esa – kamayishi aks ettiriladi.

Korxona omboriga kirim қilingan barcha tayyor maqsulotlar 2810 "Ombordagi tayyor maqsulotlar" schyotining debetida va boshқa tayyor maqsulotlarni қaysi manbalardan kelib tushganligini ko`rsatuvchi schyotlarning kreditida aks ettiriladi, jumladan:

- **Kredit** 2010 "Asosiy ishlab chiқarish" – asosiy ishlab chiқarishdan olingan tayyor maqsulotlarning tannarx bo`yicha қiymatiga;
- **Kredit** 2310 "YOrdamchi ishlab chiқarish" – yordamchi ishlab chiқarishdan olingan tayyor maqsulotlarning tannarx bo`yicha қiymatiga;
- **Kredit** 4610 "Ustav kapitaliga badallar bo`yicha ta`sischilarning қarzi" – ta`sischilardan ta`sis badali sifatida olingan tayyor maqsulotlarning қiymatiga;
- **Kredit** 9380 "Қaytarilmaydigan moliyaviy yordam" – boshқa shaxslardan қaytarilmaydigan moliyaviy yordam sifatida olingan tayyor maqsulotlarning қiymatiga;
- **Kredit** 1010 " Materiallar " - tayyor maqsulot tarkibiga kiritilgan materiallar қiymatiga;
- **Kredit** 2810,2820,2830 – tayyor maqsulotlarning ichki almashuviga
- **Kredit** 9390 " Boshқa operatsion daromadlar" – inventarizatsiyada aniқlangan ortiқchalar summasiga va boshқalar.

Tayyor maqsulotlarning sotilishi buxgalteriya qisobida қuyidagicha aks ettiriladi:

*1.Xaridorlarga taқdim etilgan schyot-fakturalar bo`yicha tayyor maqsulotning ҚҚS siz bo`lgan sotish baqosidagi қiymatiga*

**Debet** 4010 "Xaridor va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar"

**Kredit** 9010 " Tayyor maqsulotlarni sotishdan olingan daromadlar"

*2.Sotilgan tayyor maqsulotlarga to`ғri keladigan ҚҚS summasiga*

**Debet** 4010 "Xaridor va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar"

**Kredit** 6410 " Byudjetga to`lovlar bo`yicha қarzlar"

*3.Xaridorlar bilan sotilgan tayyor maqsulotlar bo`yicha qisob-kitob қilinganda*:

- Olingan avans summasiga

**Debet** 5010 "Kassa", 5110 "Qisob-kitob schyoti", 5210 "Valyuta schyoti"

**Kredit** 6310"Xaridor va buyurtmachilardan olingan avanslar"

- Olingan avans summasini maqsulot sotilgan so`ng yopilishiga

**Debet** 6310”Xaridor va buyurtmachilardan olingan avanslar”

**Kredit** 4010 Xaridor va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar”

- Oxirgi debitorlik қarzni olinishiga

**Debet** 5010 “Kassa”, 5110 “Qisob-kitob schyoti”, 5210 “Valyuta schyoti”

**Kredit** 4010 Xaridor va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar”

4.*Sotilgan tayyor maqsulotlarning qaқiқiy tannarini qar bir schyot-faktura bo`yicha aniқlab bo`lmaydi. SHuning uchun sotilgan maqsulotlarning tannarxini topish maқsadida qisobot davri oxirida tayyor maqsulotlar qolati va qarakati bo`yicha balans tuziladi*. Ushbu balans қuyidagicha tuziladi.

**Tayyor maqsulot bo`yicha balans**

| Ko`rsatkichlar | Tannarxi bo`yicha | Sotish baqosi bo`yicha | Farқi (+,- ) |
|---|---|---|---|
| 1. Davr boshiga қoldiқ | 2000000 | 2580000 | 258000 |
| 2. Ishlab chiқarishdan olingan maqsulot | 10000000 | 13400000 | 3400000 |
| 3. Қayta baqolash summasi | | 500000 | 500000 |
| 4.Jami sotishga tayyor maqsulot (1 + 2 + 3) | 12000000 | 14158000 | 2158000 |
| 5. 1 so`mlik maqsulotga to`ғri keladigan xarajat | X | 0,8475 | |
| 6. Sotilgan tayyor maqsulot | 9322500 | 11000000 | 1677500 |
| 7.Davr oxiridagi қoldiқ | 2677500 | 3158000 | 480500 |

Sotilgan maqsulotlarning tannarxini topish uchun balansda ularning qolati va xarakati to`ғrisidagi ma`lumotlar qaқiқiy ishlab chiқarish tannarxi va sotish baqolarida aloqida ustunchalarda ko`rsatiladi. Jami sotishga tayyor maqsulotlarga ketgan barcha xarajatlarni sotishga tayyor jami maqsulotlarni sotish baqosiga (ҚҚS siz) bo`lish yo`li bilan 1 so`mlik sotishga tayyor maqsulotga to`ғri keladigan o`rtacha tannarx aniқlanadi. Topilgan o`rtacha tannarx sotilgan tayyor maqsulotlarning sotish baqosidagi (ҚҚS siz) қiymatiga ko`paytiriladi, chiқgan summa jami sotilgan tayyor maqsulotning tannarxini bildiradi. YUқorida keltirilgan shartli misolda 1 so`mlik sotishga tayyor maqsulotga to`ғri keladigan o`rtacha tannarxi 0, 85 so`mni tashkil қilgan. Jami sotilgan tayyor maqsulotning tannarxi – 9322500 so`m (11000000 x 0,85). Ushbu summaga qisobot davri oxirida қuyidagi buxgalteriya yozuvi қilinadi:

**Debet** 9110 “Sotilgan tayyor maqsulotning tannarxi”

**Kredit** 2810 “Ombordagi tayyor maqsulotlar”

5. *Tayyor maqsulotlarni sotishdan olingan foydani topish uchun 9010- schyotda aks ettirilgan daromad № 9910 “Oxirgi moliyaviy natija” schyotining kreditiga, 9110-schyotda aks ettirilgan sotishning tannarxi № 9910 “Oxirgi moliyaviy natija” schyotining debetiga o`tқaziladi, oxirgi schyotning kredit va debet oborotlari o`rtasidagi ijobiy farқ (boshқa yozuvlarsiz) sotishdan olingan foydani ifodalaydi.* YUқoridagi shartli misolda sotishdan olingan foyda summasi 1677500 so`mni tashkil etgan.

Tayyor maqsulotlar sotilgan deb qisoblanadi, agarda ular xaridorlardan tashқari o`z xodimlariga meqnat qaқi evaziga berilgan bo`lsa, ta`sis badali sifatida boshқa korxonaga investitsiya қilingan bo`lsa, xo`jalik zaruriyatlariga ishlatilgan bo`lsa qam. Bunday qollarda yuқorida keltirilgan yozuvlarda 4010 –schyotning o`rniga 0600 “ Moliyaviy investitsiyalar “, “1000 “Materiallar”

6700 “ Xodimlar bilan ish qaқi bo`yicha qisob-kitoblar”, 9430 “Boshқa operatsion xarajatlar” kabi schyotlar debetlanadi.

2810 “Ombordagi tayyor maqsulotlar” schyotining kreditida tayyor maqsulotlar zaqiralarining boshқa chiқimlari qam aks ettiriladi, jumladan:

- *Ular asosiy va yordamchi ishlab chiқarishga қayta sarflanganda*

**Debet** 2010 “Asosiy ishlab chiқarish” , 2310 “YOrdamchi ishlab chiқarish”

**Kredit** 2810 “Ombordagi tayyor maqsulotlar”

- *Ular korxonaning magaziniga berilganda*

**Debet** 2920 “CHakana savdodagi tovarlar”

**Kredit** 2810 “Ombordagi tayyor maqsulotlar”

- *Brak maqsulot deb tan olinganda*

**Debet** 2600 “Ishlab chiқarishdagi braklar”

**Kredit** 2810 “Ombordagi tayyor maqsulotlar”

- *Kamomadlar aniқlanganda*

**Debet** 5910 “ Boyliklarni buzilishidan ko`rilgan kamomad va yo`қotishlar”

**Kredit** 2810“Ombordagi tayyor maqsulotlar”

- *Kўrgazma zallariga berilganda*

**Debet** 2820 «Ko`rgazmadagi tayyor maqsulotlar»

**Kredit**2810“Ombordagi tayyor maqsulotlar”

- *Komissiyaga berilganda*

**Debet** 2830 «Komissiyaga berilgan tayyor maqsulotlar»

**Kredit**2810 «Ombordagi tayyor maqsulotlar»

Tayyor maqsulotlarning analitik qisobi moddiy javobgar shaxslar bo`yicha, maqsulotlarning turlari bo`yicha olib boriladi.

## 2. Tovarlarning qisobi

**Tovar** deganda *korxonaning sotish uchun sotib olingan yoki ishlab chiқarilgan moddiy aktivlari tushuniladi.* Bu turdagi aktivlarning xarakterli xususiyatlariga қuyidagilarni kiritish mumkin:

- Ular iste`mol қiymatiga ega bo`ladi, ya`ni odamlarning iste`mol talablarini қondiradi;
- Ular қiymatga ega bo`ladi, ya`ni pulda ifodalangan baqoga ega bo`ladi;
- Aylanma aktivlar bo`lib qisoblanadi, ya`ni ma`lum bir tsikl davomida ularning zaqiralari yangilanib turadi;
- Pulga va boshқa aktivlarga almashtiriladi;
- Investitsiya vositasi sifatida қo`llaniladi;
- Ijaraga berish ob`ekti qisoblanmaydi.

Buxgalteriya qisobida tovarlar turgan joyiga, egalik қilish quқuқiga, turlariga, baqosiga va boshқa belgilariga қarab aks ettiriladi.

Turgan joyiga қarab tovarlarni omborlardagi, chakana savdo shaqobchalaridagi, vistavkadagi, komissiyadagi, konsignatorlardagi, yo`ldagi va boshқa tovarlarga bo`lish mumkin.

Egalik қilish quқuқiga ko`ra tovarlarni xususiy tovarlar, konsignatsion tovarlar, komission tovarlarga ajratish mumkin.

Tovarlarni sotishning asosan ikki usuli keng қo`llaniladi: ulgurji va chakana.

**Ulgurji sotish** –bu tovarlarni kelgusida boshқalarga sotish yoki iste`mol қilish uchun sotilishi. Ushbu savdo turini olib boruvchi xo`jalik yurituvchi sub`ektlar ulgurji savdo korxonalari deb ataladi. Ulgurji savdoning xarakterli xususiyatlariga қuyidagilar kiradi:

- Tovarlarni katta partiyalarda naқdsiz sotilishi;
- Qar bir sotish muomalasini albatta schyot-faktura bilan қat`iy rasmiylashtirilishi;
- Tovarlarni faқat omborxonalardan jo`natilishi;

Respublikamizda tovarlarni ulgurji sotilishi Vazirlar Maqkamasining 2002 yil 26 noyabrdagi 407-son қarori bilan tasdiқlangan «Ulgurji va chakana savdo faoliyatini қayd etish va olib borish tartibi tўғrisida Nizom» ga muvofiқ amalga oshirilishi lozim. Ushbu Nizomga muvofiқ ulgurji savdo bilan shuғullanish uchun ulgurji savdo korxonalari, shuningdek ulgurji savdo bilan shuғullanmoқchi bўlgan boshқa korxonalar eng kam ish qaқining 6000 miқdoridagi ustav kapitaliga ega bўlishi, shundan eng kam ish qaқining

2000 miқdoridagi mablaғlarni қayd etishgacha bank muassasasida ochilgan dastlabki qisob-kitob raқamiga pul mablaғlari bilan kiritgan bўlishlari, tovarlarni katta partiyada saқlash, saralash, ўrash, yuklash, tushirish imkonini beradigan xususiy omborxonalar, jiqozlar va boshқa moddiy-texnik vositalarga ega bўlishi, shuningdek maqalliy qokimlikning ruxsatnomasiga ega bўlishlari lozim.

**CHakana sotish** – bu tovarlarni oxirgi iste`molchiga sotish. Ushbu savdo turini olib boruvchi xo`jalik yurituvchi sub`ektlar chakana savdo korxonalari deb ataladi. CHakana savdo korxonalariga ovқatlanish korxonalari qam tenglashtiriladi. CHakana savdoning xarakterli xususiyatlariga қuyidagilar kiradi:

- Tovarlarni naқd pulga sotilishi;
- Tovarlarni savdo shaqobchalarida savdo ustamalari bilan birga qisobga olinishi;
- Tovarlarni naқdsiz mayda ulgurji sotilishini chegaralanganligi;
- Qar bir tovarning sotilishini qujjatli rasmiylashtirilmasligi, lekinda kassa apparati pattasi bilan sotish summasini қayd etilishi;

CHakana savdo faoliyatini olib borish respublikamizda Ўzbekiston Vazirlar Maqkamasining 2003 yil 13 fevraldagi 75-son қarori bilan tasdiқlangan «Ўzbekiston Respublikasida chakana savdo Қoidalari» tartibga solingan.

21- son BQMSda tovarlar qisobini olib borish uchun қuyidagi schyotlar tizimi ko`zda tutilgan:

- **2910 «Ombordagi tovarlar»** – ushbu schyot asosan ulgurji savdo va ovқatlanish korxonalarida tovarlarning saқlanish joylaridagi (omborlardagi) qolati va qarakatini aks ettirishga mo`ljallangan.
- **2920 «CHakana savdodagi tovarlar»** - ushbu schyot chakana savdo va ovқatlanish korxonalarida (magazinlar, kioskalar, bufet va boshқa shaqobchalardagi) tovarlarning qolati va qarakatini aks ettirishga mo`ljallangan.
- **2930 «Ko`rgazmadagi tovarlar»** - ushbu schyot ulgurji, chakana va ovқatlanish korxonalarining reklama қilish maқsadida ko`rgazmalar va yarmarkalarga қo`yilgan tovarlarini qolati va qarakatini aks ettirishga mo`ljallangan.
- **2940 «Vaқtincha foydalanishga beriladigan buyumlar»** – ushbu schyot maxsus shaqobchalar orқali to`lov asosida vaқtincha foydalanishga қo`yilgan buyumlarni qolati va qarakatini aks ettirishga mo`ljallangan.
- **2950 «Tovar bilan bo`lgan va bo`sh turgan idishlar»** -ushbu schyot tovar bilan birga bo`lgan va bo`sh turgan idishlarning qolati va qarakatini aks ettirishga mo`ljallangan.
- **2960 «Komission tartibda sotishga berilgan tovarlar»** –bu schyot maxsus shaqobchalarda komission tartibda sotishga berilgan tovarlarning qolati va qarakatini aks ettirishga mo`ljallangan.

• **2970 «Yo`ldagi tovarlar»** –bu schyot puli to`langan va ta`minotchidan jo`natilgan, lekinda korxonaga qali kelib tushmagan tovarlarni aks ettirishga mo`ljallangan.

• **2980 «Savdo ustamasi»** –bu schyot savdo va ovқatlanish korxonalarida tovarlarga қo`yilgan savdo ustamalarining qolati va qarakatini aks ettirishga mo`ljallangan.

• **2990 «Boshқa tovarlar»** –bu schyot yuқorida nomlari zikr etilgan schyotlarda aks ettirilmagan turli boshқa tovarlarni, masalan konsignatsiyaga berilgan tovarlarni, qisobga olish uchun mo`ljallangan.

YUқorida keltirilgan 2980 «Savdo ustamasi» schyotidan tashқari barcha boshқa schyotlar aktiv, doimiy schyotlar qisoblanadi, ularning debetida tovarlarning қoldiқi va ko`payishi, kreditida esa kamayishi aks ettiriladi. 2980 «Savdo ustamasi» schyoti kontraktiv schyot bo`lib, uning kreditida қoldiқ tovarlarga to`ғri keladigan savdo ustamalarining summasi va ularning ko`payishi, kreditida esa –savdo ustamalarini kamayishi aks ettiriladi. Savdo ustamalarining summasini tovarlarni sotilishi va boshқa chiқimlari natijasida kamayishi ushbu schyotning kreditida «қizil yozuv» bilan qam aks ettirilishi mumkin.

4-son BQMS ga muvofiқ tovarlarni qisobga olishning ikkita tizimi mavjud:

**1.Davriy qisob tizimi** – bu tizim chakana savdo va ovқatlanish shaqobchalariga taalluқli bo`lib, unda qar bir tovarning sotilishi қat`iy qujjatlashtirilmaydi, shu sababli sotilgan tovarlarning tannarxini qar bir qujjat asosida aniқlab bo`lmaydi. Ushbu tizimdagi korxonalar qisobot davri ichida tovarlarni sotib olinishini vaқtinchalik 9140 «Davriy qisobda tovar-moddiy boyliklarni sotib olish» schyotining debetida (kredit 6010 «Ta`minotchilar va pudratchilarchilarga to`lanadigan schyotlar» va boshқalar), tovarlarning davr boshidagi va davr oxiridagi қoldiқlaridagi farқni esa vaқtinchalik 9150 «Davriy qisobda tovar-moddiy boyliklar bo`yicha tuzatishlar» schyotining debetida (kredit 2910 «Ombordagi tovarlar») aks ettiradilar. Davr oxiridagi tovarlarning қoldiғi ushbu usulda faқat inventarizatsiya қilish yo`li bilan topiladi. Qisobot davr oxiriga kelib, yuқoridagi vaқtinchalik schyotlar 9910 «Oxirgi moliyaviy natija» schyotining debetiga yopiladi. Tovarlarning sotilishi ushbu usulda sotish baqosida қuyidagi yozuvlar bilan aks ettiriladi:

a) *Naқd sotilganda*

**Debet** 5010 «Kassa»

**Kredit** 9020 «Tovarlarni sotishdan olingan daromad»

b) *Naқdsiz sotilganda*

**Debet** 4010 «Xaridor va buyurtmachilarlardan olinadigan schyotlar»

**Kredit** 9020 «Tovarlarni sotishdan olingan daromad»

Qisobot davri oxirida tovarlarni sotishdan olingan daromad 9020 «Tovarlarni sotishdan olingan daromad» schyotining debetiga va 9910 «Oxirgi moliyaviy natija» schyotining kreditiga yopiladi.

**2.Uzliksiz qisob tizimi** –ushbu tizim omborxonalarda tovarlarning kelib tushushi va ketishi қat`iy qujjatlashtiriladigan ulgurji va ovқatlanish korxonalari uchun xos. Unda tovarlarning sotib olish baqosidagi қiymati 2910 «Ombordagi tovarlar» schyotining debetida va ularni sotib olish manbalari va usullarini ko`rsatuvchi schyotlarning kreditida (6010 «Ta`minotchilar va pudratchilarchilarga to`lanadigan schyotlar» va boshқalar) aks ettiriladi. Tovarlar sotilganda sotish baqosida korxona daromadiga olinadi ( debet 5010 «Kassa», 4010«Xaridor va buyurtmachilarlardan olinadigan schyotlar» kredit 9020«Tovarlarni sotishdan olingan daromad»), bir vaқtning o`zida sotilgan tovarlarning tannarxi sotib olish baqosida qisobdan chiқariladi (debet 9120 «Sotilgan ovarlarning tannarxi» kredit 2910 «Ombordagi tovarlar»). Qisobot davri oxirida daromad va sotish tannarxini aks ettiruvchi schyotlar mos ravishda 9910 «Oxirgi moliyaviy natija» schyotining krediti va debetiga yopiladi.

Tovar-moddiy boyliklarni aks ettiruvchi schyotlarning ( № 2910-2990) debet va kreditida yuқorida keltirilgan operatsiyalardan tashқari boshқa қuyidagi xo`jalik muomalalari qam aks ettiriladi:

| Tar-tib raқami | Operatsiyaning mazmuni | Debet schet | Kredit schet | YOzuvga asos bo`luvchi qujjat |
|---|---|---|---|---|
| 1. | Tovarlarni ko`payishi:<br>-ta`sischilardan olinganda<br>-qisobdor shaxslardan olinganda<br>-ishlab chiқarish tsexlari kelganda<br>-tayyor maqsulot omboridan<br>-materiallar qisobiga<br>-ortiқchalar evaziga<br>-bepul olinish evaziga<br>-ichki almashuv evaziga<br><br>-narxi oshirilganda<br>-savdo ustamasi evaziga | 2910-2990 | 4610<br>4230<br>2010<br>4010<br>1010<br>9390<br>9380<br>2910-2990,<br>6230<br>2980 | Tovar qisoboti, Tovar-pul Qisoboti, Schyot-faktura, Nakladnoylar, Dalolatnoma va boshқa qujjatlar |
| 2. | Tovarlarni kamayishi:<br>-ishlab chiқarishga berilganda<br>-materialga aylantirilganda | 2010, 1010, | 2910-2990 | Qisobotlar, Dalolatnoma-lar, nakladnoy, |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | -kamomad chiқganda<br>-narxi pasaytirilganda<br>-ichki almashuvga | 5910,<br>3190,<br>2910-<br>2990 | | Schyot-faktura va boshқa qujjatlar |

2910-2990 schyotlarda aks ettirilgan tovarlarning analitik qisobi moddiy javobgar shaxslar, saқlanish joylari, turlari, navi, baqosi va boshқa belgilari bo`yicha olib boriladi.

## Ўz-ўzini sinash uchun test savol-javoblari

**1.Tayyor maqsulotga kirmaydi**

a) Non
b) Bulka
v) Un
g) Pechen’e

**2.Қuyidagilarning қaysi biri to`ғri**

a) Tayyor maqsulotning qisob baqosi bo`lib sotish baqosi qisoblanadi
b) Ma`muriyat binosining amortizatsiyasi maqsulot tannarxiga kiradi
v) Maqsulotlar tannarxi bo`yicha qisobga olinadi
g) Maqsulotlar foyda summasini o`z ichiga olgan baqoda qisobga olinadi

**3.Қuyidagilarning қaysi biri to`ғri?**

a) Debet 2810 Kredit 0610
b) Debet 2810 Kredit 2010
v) Debet 2810 Kredit6610
g) Debet 2810 Kredit 7510

**4.Қuyidagilarni қaysi biri maqsulotni sotilishiga kirmaydi?**

a) Maktabga yordam sifatida berilgan maqsulotlar
b) Ish qaқi evaziga berilgan maqsulot
v) Maqsulotning tabiiy kamayishi
g) Inventarga aylantirilgan maqsulot

**5.Maqsulotni sotishdan olingan ҚҚS ushbu soliқni to`lovchi korxonada**

a) Asosiy ishlab chiқarish xarajatiga kiradi

b) YOrdamchi ishlab chiқarish xarajatiga kiradi

v) Umumishlab chiқarish xarajatiga kiradi

g) Olinadigan schyotlar summasiga kiradi

6. **Tayyor maqsulotlar schyoti:**

a) Doimiy schyot

b) Passiv schyot

v) Tranzit schyot

g) Bunaқa schyot yo`қ.

**7.Sotilgan maqsulotning tannarxi қaysi schyotning debetida aks ettiriladi?**

a) 2010 –schyotning debetida

B) 2810 – schyotning debetida

V) 9010 – schyotning debetida

G) 9110 – schyotning debetida

**8.Ўz tovari qisoblanmaydi**

a) Ombordagi tovarlar

b) Vaқtinchalik saқlashga қabul қilingan tovarlar

v) CHakana savdo shaqobchalaridagi tovarlar

g) Konsignatsiyaga berilgan tovarlar

**9.Қuyidagilarning қaysi biri to`ғri**

a) Magazinda tovarlar sotish baqosida qisoblanadi

b) Magazinda tovarlar sotib olish baqosida qisoblanadi

v) Magazinda tovarlar ҚҚS bilan sotiladi

g) Magazinda tovarlar tannarxdan past narxda qisobga olinadi

**10.Қuyidagilarning қaysi biri ombordagi tayyor maqsulotni magazinga berilishini to`ғri ifodalaydi?**

a) Debet 2820 Kredit 2810

b) Debet 2920 Kredit 2810

v) Debet 2910 Kredit2820

g) Debet 2960 Kredit 2830

**11.Қuyidagilarni қaysi biri tovarlarni sotilishiga kirmaydi?**

a) Maktabga yordam sifatida berilgan tovarlar

b) Ish qaқi evaziga berilgan tovarlar

v) Қayta ishlovga berilgan tovarlar

g) Inventarga aylantirilgan tovarlar

**12.Sotilgan tovarning tannarxi қaysi schyotning debetida aks ettiriladi?**

a) 2010 –schyotning debetida

b) 2810 – schyotning debetida

v) 9120 – schyotning debetida

g) 9110 – schyotning debetida

## Mavzuni o`rganish uchun tavsiya etiladigan me`yoriy xujjatlar va davriy adabiyotlar


1. *Ўzbekiston Respublikasining buxgalteriya qisobi tўғrisida қonuni. 1996 yil 30 avgustda қabul қilingan.*
2. *«Maqsulot (ish,xizmat)larni ishlab chiқarish va sotish xarajatlarining tarkibi qamda oxirgi moliyaviy natijalarni shakllantirish tўғrisida Nizom». Ўz.R. VM ning 1999 yil 5 fevraldagi 54-son қarori bilan tasdiқlangan.*
3. *Ulgurji va chakana savdo faoliyatini қayd etish va olib borish tartibi tўғrisida Nizom. ЎzyuR. VM ning 2002 yil 26 noyabrdagi 407- son қarori bilan tasdiқlangan.*
4. *Ўzbekiston Respublikasida chakana savdo Қoidalari. Ўz.R. VM ning 2003 yil 13 fevraldagi 75-son қarori bilan tasdiқlangan.*
5. *Moliyaviy qisobotni tayyorlash va taқdim etish uchun Kontseptual asos. Ўz.R. Adliya Vazirligidan 1998 yil 14 avgustda ro`yxatdan o`tgan, № 475.*
6. *BQMS № 1 «Qisob siyosati va moliyaviy qisobot. Ўz.R. Adliya Vazirligidan 1998 yil 14 avgustda ro`yxatdan o`tgan, № 474.*
7. *BQMS № 4 «Tovar-moddiy zaqiralar». Ўz.R. Adliya Vazirligidan 1998 yil 28 avgustda ro`yxatdan o`tgan, № 486.*
8. *BQMS № 4 «Tovar-moddiy zaqiralar».ga ўzgartirishlar. Ўz.R. Adliya Vazirligidan 2002 yil 20 noyabrda ro`yxatdan o`tgan, № 486-1.*
9. *BXMS № 19 «Inventarizatsiyani tashkil қilish va o`tқazish ». Ўz.R. Adliya Vazirligidan 1999 yil 2 noyabrda ro`yxatdan o`tgan, № 833.*
10. *BXMS № 21 «Xo`jalik yurituvchi sub`ektlar moliyaviy xo`jaligi buxgalteriya qisobining schyotlar rejasi va uni қo`llash bo`yicha yo`riқnoma. Ўz.R. Adliya Vazirligidan 2002 yil 23 oktyabrda ro`yxatdan o`tgan, № 1181.*
11. *Abdullaev A. Қayumov I. Buxgalteriya qisobi. T, «Minqoj» nashriyoti, 2002.*

12. *Bobojonov O. Moliyaviy qisob. T., «SHarқ», 2000.*
*13. Bobojonov O., Jumaniyozov K. Moliyaviy qisob. T., «Moliya», 2002.*
*14. Umarova M., eshboev Ў., Axmadjonov Қ. Buxgalteriya qisobi, T., Meqnat, 1999*
*15. Fulomova F.F. Buxgalteriya qisobi bo`yicha mustaқil o`rganish uchun қo`llanma.T., Iқtisodiyot va quқuқ dunyosi» nashriyot uyi, 2000.*

## Ma`ruza 9. KASSADAGI VA QISOB-KITOB SCHYOTIDAGI PUL MABLAFLARINING QISOBI

**(2 soat)**

### Ma`ruza rejasi

1. *Pul mablaғlarining turlari, moqiyati va ular qisobining vazifalari*
2. *Kassadagi pul mablaғlarining qisobi*
3. *Qisob-kitob schyotidagi pul mablaғlarining qisobi*

### 1.Pul mablaғlarining turlari, moqiyati va ular qisobining vazifalari

Korxonalar xo`jalik faoliyatida ishtirok etuvchi aktivlar ichida juda katta rolni pul mablaғlari o`ynaydi.

**Pul mablaғlari** deganda o`ta tez likvidlik xarakteriga ega bo`lgan, barcha munosabatlarda umumiy ekvivalent rolini o`ynaydigan, davlat tomonidan қoғozli va metalli ko`rinishda ma`lum қiymatlarda chiқariladigan maxsus tovar tushuniladi. Pulning jamiyatdagi o`rni u tomonidan bajariladigan қiymat o`lchovi, to`lov vositasi, muomala vositasi va jamғarish vositasi kabi funtsiyalarida yorқin namoyon bo`ladi.

Buxgalteriya qisobida pul mablaғlarini asosan ikkita belgisiga қarab, ya`ni ko`rinishi va turgan joyiga қarab, guruqlash va aks ettirish keng қo`llaniladi.

Ko`rinishiga ko`ra pul mablaғlari ikkiga bo`linadi:

• **Milliy valyutadagi pul mablaғlari** – bu davlat tomonidan metal va қoғozlarda қiymati ifodalangan, muomala, ayirboshlash, baqolashda umumiy ekvivalent rolini bajararuvchi maxsus bank belgilari. Pul belgilari bo`lib bizning mamalakatimizda so`m va tiyinlar qisoblanadi.

• **CHet el mamlakatlari pul mablaғlari** – bu o`zga davlatlarning metal va қoғozlarda қiymati ifodalangan, muomala, ayirboshlash, baqolashda umumiy ekvivalent rolini bajararuvchi maxsus bank belgilari. Ularga AҚSH dollari, Angliya funt sterlingi, EVRO va boshқalar mamlakatlarning milliy valyutalari kiradi. CHet elmamlakatlari valyutalaridan o`zaro qisob-kitoblarda foydalanish davlatlararo kelishuvlarga asosan amalga oshiriladi.

Turgan joyiga қarab pul mablaғlari қuyidagi guruqlarga bo`linadi:

• **Kassadagi pul mablaғlari** – bu korxonaning kunlik eqtiyojlari uchun zarur bo`lgan, turli maқsadlar va manbalardan kelib tushgan, belgilangan muddatlar va miқdorlargacha saқlanadigan kassadagi pul mablaғlari. Kassada saқlanishi mumkin bo`lgan pul mablaғlarining eng kichik miқdori kassa limiti deb ataladi va u korxona tomonidan aniқlanib, xizmat қiluvchi bank bilan tuzilgan shartnomada ko`rsatiladi.

• **Yo`ldagi pul mablaғlari** – bu korxona kassasidan bankga turli yo`llar bilan topshirilgan, masalan inkassatorlar orқali, aloқa bo`limi orқali, bankning kechki kassalari orқali, lekinda oyning oxirida qali qisob-kitob schyotiga kirim қilinganligi bank ko`chirmasi bilan tasdiқlanmagan pul mablaғlari. Pul mablaғlari qisob-kitob schyotiga kirim қilingan kundan boshlab ular yo`ldagi pul mablaғlari guruqidan chiқariladi.

• **Bankdagi pul mablaғlari** – bu korxonaning xizmat қiluvchi banklarda ochilgan depozit schyotlarida saқlanayotgan pul mablaғlari. Korxona bitta asosiy, qoqlagancha maxsus depozit schyotlarni xizmat қiluvchi banklarda ochishi va ularda o`z pul mablaғlarini saқlashi mumkin. CHet el valyutasi bilan muomalarga ega bo`lgan korxonalar xizmat қiluvchi banklarda bitta asosiy va qoqlagancha maxsus valyuta

schyotlarini, masalan, konvertatsiya uchun, konsignatsion tovarlar uchun va boshқa maқşadlar uchun, ochishlari mumkin.

Pul mablaғlari bo`yicha buxgalteriya qisobining asosiy vazifalari bo`lib қuyidagilar qisoblanadi:

- .Pul mablaғlari qolati va qarakati ustidan doimiy nazoratni olib borish;
- .Pul mablaғlarini kassadan o`z vaқtida bankga topshirishni nazorat қilish;
- Kassada pul mablaғlarining belgilangan minimal miқdoridan ko`p miқdoridagi pul mablaғlarini turib қolishiga yo`l қo`yilmaslikni nazorat қilish;
- Pul mablaғlaridan maқşadli foydalanishni nazorat қilish;
- Pul mablaғlari qarakatini o`z vaқtida va to`ғri tegishli qujjatlar bilan rasmiylashtirish;
- Pul mablaғlari bo`yicha moddiy javobgarlikni o`rnatish, moddiy javobgar shaxslarning faoliyatini doimiy nazorat қilib borish;
- Pul mablaғlarini butligini, talan-taroj bo`lib ketmasligini doimiy nazorat қilish, buning uchun ularni қonunda belgilangan muddatlarda ( qar oyda) inventarizatsiyasini o`tқazish va boshқalar.

## 2.Kassadagi pul mablaғlarining qisobi

Kassadagi pul mablaғlarining qisobi Ўzbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tasdiқlangan va Ўzbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan 1998 yil 17 dekabrda 565-tartib raқami bilan rўyxatga olingan «YUridik shaxslar tomonidan kassa operatsiyalarini oshirish Қoidalari»ga va ularga kiritilgan ўzgartirishlar va қўshimchalarga muvofiқ olib boriladi. Ushbu me`yoriy qujjatga asosan xo`jalik yurituvchi sub`ektlar kassa xo`jaligini tashkil etishlari lozim. Kassa xo`jaligi o`z ichiga қuyidagi elementlarni oladi:

- Kassa bo`yicha moddiy javobgar shaxs, ya`ni kassir, u bilan moddiy javobgarlik to`ғrisida tuzilgan shartnoma;
- Tegishli xavfsizlik vositalari bilan ta`minlangan va jiqozlangan kassa xonasi. Ushbu xonaning eshik va derezalariga temir panjaralar o`rnatilgan bo`lishi, ichida temir seyflar, signalizatsiya va o`t o`chirish anjomlari bo`lishi zarur;
- Kassa bo`yicha qujjatlar tizimi, ya`ni kassa kitobi, kirim va chiқim kassa orderlari, ularni қayd etish jurnali va boshқalar.

Kassaga pul mablaғlari turli manbalardan kelib tushadi, masalan bankdan, savdo shaqobchalaridan, korxona xodimlaridan va boshқa manbalardan. Barcha qollarda pul mablaғlari kassaga «Kirim kassa orderi» qujjati asosida қabul қilinadi. Ushbu barcha

korxonalar uchun yagona shakl va mazmunga ega bo`lgan qujjat buxgalteriyada tuziladi, unga kirim va chiқim kassa orderlarini қayd etish jurnali bo`yicha tartib raқami beriladi. Kirim kassa orderi chap va o`ng tomonlarga bo`linadi. Uning chap tomoni kirim kassa orderi deb atalib, unda pul mablaғlarining kimdan, қachon, nima maқsadda va қancha miқdorda olinganligi ko`rsatiladi. Qujjatning o`ng tomoni kirim kassa orderiga kvitantsiya deb ataladi va unda qam chap tomondagi yozuvlar bir xil mazmunda aks ettiriladi. Kirim kassa orderi bosh qisobchi va pulni қabul қilib olgan kassir tomonidan imzolanadi. Qujjatning chap tomoni kassirda қoladi, o`ng tomoni esa pulni topshirgan shaxsga beriladi.

Kassadan pul mablaғlari turli maқsadlarda chiқim қilinadi, masalan ish qaқi, nafaқa, safar xarajatlari va boshқa maқsadlarda, shuningdek kelib tushgan savdo tushumi va boshқa maқsadlarda olingan pullar bankdagi korxonaning qisob-kitob schyotiga topshiriladi. Barcha qollarda pul mablaғlarining kassir bo`ynidan soқit etilishi «CHiқim kassa orderi» qujjati bilan rasmiylashtiriladi. Ushbu qujjat qam qamma korxonalar uchun yagona shakl va mazmunga ega. Unda қachon, kimga, nima uchun, қancha miқdorda pul berilganligi, olgan shaxsning qaқiқatda pulni қanday qujjat asosida olganligi to`ғrisida ma`lumotlar yoziladi. CHiқim kassa orderi korxona raqbari, bosh qisobchi, kassir va pulni olgan shaxs tomonidan imzolanadi. Qujjatlar sonini ko`paytirib yubormaslik uchun kassadan ish qaқi, mukofat pullari, nafaқalar, safar xarajatlari va boshқalar oldin kassadan қaydnomalar asosida berilishi, shundan so`ng ularning umumiy summasiga bitta chiқim kassa orderi tuzilishi mumkin. Bunday qollarda chiқim kassa orderlarida ushbu қaydnomalarning tartib raқamlari, қaydnomalarda esa – chiқim kassa orderining tartib raқami ko`rsatiladi. Barcha chiқim kassa orderlariga kirim va chiқim kassa orderlarini қayd etish jurnali bo`yicha tartib raқamlari beriladi.

Kirim va chiқim kassa orderlarida tuzatishlar, bo`yab yozishlar, bitta tartib raқamini takrorlanishi mumkin emas.

Kirim va chiқim kassa orderlari asosida kassir «Kassa kitobi»ni yuritadi. Ushbu kitob tikilgan, nomerlangan, korxona raqbari va bosh qisobchi tomonidan imzolangan va korxona muqri bilan tasdiқlangan bo`lishi lozim. Kitobning qar bir vaғi ikki қismdan iborat bo`lib, o`ng қismi chap қismining tagiga bukiladi, ular o`rtasiga nusxa o`tқazuvchi қoғoz қo`yiladi. Kassir kitobning chap қismiga davr boshiga kassadagi pul mablaғlarining қoldiғini, keyingi қatordan boshlab oldin kirim kassa orderlari bo`yicha қabul қilingan pul mablaғlarini, keyin esa chiқim kassa orderlari bo`yicha pul mablaғlarini chiқimini aloqida ustunchalarda ko`rsatadi. Barcha kirim va chiқim kassa orderlari yozilgach, kirim va chiқim summalari jamlanadi. Kitobning so`ngida kassir davr oxiriga kassada қolgan pul mablaғlarining қoldiғini, shu jumladan tarқatilmay қolingan ish qaқi summasini, yozadi. Kassa kitobining o`ng tomoni yirtib olinadi va qisobot sifatida barcha kirim va chiқim

qujjatlari bilan birga imzolanib buxgalteriyaga topshiriladi. Kassirning qisoboti buxgalter tomonidan tekshirib қabul қilinadi, qisobotning oxirgi қismida unga nechta kirim va chiқim qujjatlari kiritilganligi yoziladi va imzolanadi. Kassa kitobida qam boshқa kassa qujjatlari kabi bo`yab yozishlar, tuzatishlar mumkin emas. Buzilgan kassa kitobining varaқlari қayta yoziladi, buzilgan varaқlar kitobda saқlanishi kerak.

Buxgalteriyaga topshirilgan kassa qisoboti va unga ilova қilingan boshlanғich qujjatlar kassadagi pul mablaғlarining sintetik va analitik qisobi registrlarini ( 1-son jurnal-order va 1-son қaydnomani) yuritishga asos bo`ladi.

CHet el valyutasi bo`yicha kassa operatsiyalari yuz bergan qollarda, ularga doir muomalalar aloqida kassa kitobida қayd etiladi.

Kassadagi pul mablaғlarining sintetik qisobini yuritish uchun 21- son BQMS da 5010 «Milliy valyutadagi pul mablaғlari» va 5020 «CHet el valyutasidagi pul mablaғlari» schyotlar ko`zda tutilgan. Ushbu aktiv schyotlarning debet tarafida pul mablaғlarining қoldiқlari va davr maboynidagi kirimlari, kredit tarafida esa ularning chiқimlari aks ettiriladi. Ushbu schyotlar bo`yicha asosiy buxgalteriya yozuvlari қuyidagilardan iborat bo`ladi.

| Tar-tib raқami | Operatsiyaning mazmuni | Debet schet | Kredit schet | YOzuvga asos bo`luvchi qujjat |
|---|---|---|---|---|
| 1. | Pul mablaғlarining tushumi: | | | |
| | -bankdagi qisob-kitob schyotidan | 5010- | 5110 | Kirim |
| | -valyuta schetidan | 5020 | 5210 | Kassa |
| | -ta`sischilardan olinganda | | 4610 | Orderi |
| | -qisobdor shaxslardan olinganda | | 4220- | |
| | | | 4230 | |
| | -kredit olinganda | | 6810 | |
| | -қarz olinganda | | 6820 | |
| | - қaytarilmaydigan moliyaviy yordam | | 9380 | |
| | -sotishdan olinganda | | | |
| | | | 9010- | |
| | -xodimlardan қarzni қoplanishi | | 9030 | |
| | -ortiқchalar evaziga | | 4730 | |
| | -maқşadli mablaғlar | | 9390 | |
| | | | 8810- | |
| | | | 8890 | |
| 2. | Pul mablaғlarini chiқimi: | | | |
| | -qisob-kitob schyotiga topshirilsa | 5110 | 5010- | CHiқim kassa |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | -valyuta schetiga topshirilsa | 5210 | 5020 | orderi |
| | -kredit қaytarilsa | 6810 | | |
| | -қarz қaytarilsa | 6820 | | |
| | -ish qaқi berilsa | 6710-6720 | | |
| | -safar xarajatlari bo`yicha қarz berilsa | | | |
| | -xo`jalik zaruriyatlariga berilsa | 6970 | | |
| | -ish qaқi qisobidan avans berilsa | 9420 | | |
| | -safar xarajatlari uchun avans | 4210 | | |
| | -nafaқa berilsa | 4220 | | |
| | -kelgusi davr uchun sarflansa | 6520 | | |
| | -inkassatorlarga topshirilsa | 3110-3190 | | |
| | -kamomad chiқsa | 5710 | | |
| | | 4730 | | |

Kassada turli pulli ekvivalentlar ( markalar, biletlar, yo`llanmalar va boshқalar ) saқlanishi mumkin. Bunday pulli ekvivalentlarning qisobi maqsus 5610 « Pulli ekvivalentlar» schyotida qisobga olinadi.

## 3.Qisob-kitob schyotidagi pul mablaғlarining qisobi

Korxonalarning bo`sh turgan pul mablaғlari bankda ochilgan qisob-kitob schyotida saқlanadi. Qisob- kitob schyoti korxona tashkil etilgan vaқtda tanlab olingan bank muassasalaridan birida ochiladi. Qisob-kitob schyotini ochish uchun bank muassasiga ariza bilan chiқiladi va unga қuyidagi qujjatlar ilova қilinadi:

- Maqalliy qokimiyatning korxonani davlat ro`yxatidan o`tқazilganligi to`ғrisida қarorining nusxasi;
- Korxonaning natariusdan tasdiқlangan ustavi;
- Natariusdan tasdiқlangan ta`sis shartnomasi;
- Korxona bo`yicha birinchi va ikkinchi shaxslarning imzolarini namunalari kartochkasi.

Korxona va bank o`rtasida xizmat ko`rsatish bo`yicha shartnoma tuziladi, unda tomonlarning quқuқ va majburiyatlari, javobgarliklari, xizmatlar uchun to`lanadigan to`lovning miқdori, saқlanadigan pul mablaғlari uchun bank to`laydigan foizlar va boshқa jiqatlar aks ettiriladi. SHartnomaga muvofiқ bankda korxonaga 20 ta raқamdan iborat

bo`lgan shaxsiy schyot ochiladi, ushbu schyot korxonaning bankdagi qisob-kitob schyotining raқamini bildiradi. Barcha bank operatsiyalariga doir qujjatlarda korxona o`zining ushbu qisob-kitob schyoti raқamini, bankning nomi va kodini ko`rsatishi shart bo`ladi.

Korxonaning qisob-kitob schyotiga pul mablaғlari naқd va naқdsiz yo`llar bilan kelib tushadi. Naқd pullar qisob-kitob schyotiga korxonaning o`zi tomonidan topshiriladi. Buning uchun kassir yoki pul topshirish vakolati berilgan boshқa shaxs bankda maxsus “Naқd pul topshirishga e`lon” qujjatini to`ldiradi. Ushbu qujjat uch қismdan iborat: birinchi қismi naқd pul topshirishga e`lon deb ataladi, ikkinchi қismi kvitantsiya va uchinchi қismi order deb ataladi. Qujjatning barcha қismlari bir xil mazmundagi yozuvlarga ega bo`ladi, ya`ni ularda qisob-kitob schyotining raқami, nima uchun va қancha pul topshirilayotganligi, shuningdek pulni topshirgan shaxsning familiyasi, ismi-sharifi va imzosi aks ettiriladi. Pul bank kassasiga topshirilgach, topshiruvchi shaxsning қo`liga imzolangan va muqr bilan tasdiқlangan kvitantsiya beriladi, e`lon va order bankda қoladi. Oxirgi qujjat qam bank ko`chirmasi bilan ilova sifatida korxonaga қaytib keladi.

Naқdsiz yo`l bilan pul mablaғlari korxonaning qisob-kitob schyotiga boshқa korxonalardan, davlat organlaridan, bankning o`zidan kelib tushushi mumkin. Bunday pul mablaғlari bankda korxonaning qisob-kitob schyotiga to`lov topshiriқnomalari, elektron avizo, memorial-orderlar asosida kiritiladi.

